


TAFAKKUR TUHEALARI

ALISHER NAVOIY

HIRKMATLAR



TAFAKKUR TUHFALARI

ALISHER NAVOIY

HIRKMATLAR



36 307

TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»
2015

ALISHER NAVOIY NOMIDA
ToshDO TAU
ANDOROT FERMIYA MARKAZI

UO'K: 821.512.133-1
KBK 84(5O')6
N14

To‘plovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi:
Ergash OCHILOV,
filologiya fanlari nomzodi

Mas’ul muharrir:
Vahob Rahmon,
Xalqaro Bobur mukofoti laureati

ISBN 978-9943-01-939-3

© «O‘ZBEKISTON» NMIU, 2015



HAYOT QOMUSI

Alisher Navoiy asarlari, yaxlit olganda, hayot qomusiga o‘xshaydi. Chunki biror-bir hayotiy masala, insonga xos qadriyat va tuyg‘ular, fazilat va illatlar yo‘qki, u qalamga olmagan bo‘lsa! Prezident Islom Karimov ta’biri bilan aytganda: «Buyuk gumanist shoirimiz faoliyati va ijodiga teran nazar tashlasak, uning dahosi ijtimoiy hayotning, mafkura va mada-niyatning barcha sohalarini qamrab olganidan hayratga tushamiz»¹.

Darhaqiqat, hech narsa Navoiyning teran nigo-hidan chetda qolmagan. Aytaylik, ota-onaning farzand hayotidagi o‘rni va farzandning ota-ona oldidagi burchi haqida shunday yozadi:

*Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a.
Tun-kunungg‘a aylagali nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.*

¹ Prezident Islom Karimovning Navoiy shahrida Alisher Navoiy yodgorlik majmuyining ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqi // «O‘zbek tili va adabiyoti» jurnali, 2001, 5-son, 4-bet.

Mazmuni: «Otagning qoshiga boshingni fido, onangning boshiga jismingni sadqa qil. Birini tuningni yoritadigan oy, ikkinchisini kuningni charog'on etadigan quyosh deb bil».

Ota-onaning farzand hayotida tutgan o'rmini hech kim bundan ortiq ta'riflab berolmasa kerak: dunyo uchun oy bilan quyosh qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, farzand uchun ota-ona ham shunchalik qimmatga ega! Chindan ham, oy tufayli tun, quyosh sababli kun yorug' bo'lganidek, ota farzand hayotining tunini yoritsa, ona kunini nurga to'ldiradi. Ulardan biri bo'lmasa, kecha-kunduzning yarmi yorug' bo'lsa, yarmi qorong'iday tuyuladi.

Mutafakkir shoir ustoz va shogird munosabatlari xususida fikr yuritar ekan, «Haq yo'lida kimki mashaqqat chekib, senga birgina harf o'rgatgan bo'lsa, yuz xazina boylik bilan ham uning haqini ado etolmaysan», deydi:

*Haq yo'linda kim senga bir harf o'qutmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.*

Bu – ustoz va shogirdning o'zaro munosabati to'g'risidagi shoirning falsafiy xulosasi. Darhaqiqat, ustozning maqomi buyuk – uni hech narsa bilan tenglashtirib bo'lmanidek, ustoz oldidagi shogirdlik qarzini ham ikki dunyoda uzib bo'lmaydi. Ustoz otangdan ulug', degan maqol bejiz aytilmagan. Bir donishmanddan buning ma'nosini so'raganlarida: «Chunki otam meni ko'kdan yerga tushirgan bo'lsa, ustoz yerdan yana ko'kka ko'tardi», – deb javob bergen ekan.

Yoshlarga qarata esa shunday deydi:

*Yigitlikda yig‘ ilmning maxzani,
Qarilig‘ chog‘i sarf qilg‘il ani.*

Avvalo, yoshlikda egallangan bilim toshga o‘yilgan naqsh kabi mustahkam bo‘lishi ma’lum. Qolaversa, keyin hayot tashvishlariga ko‘milib, ilm egallahsga fursat ham, imkon ham qolmaydi. Bora-bora, xalq ta’biri bilan aytganda, «xotira ham aytganni qilmaydi».

Mutafakkir shoir insonlik mohiyatini uning ijtimoiy faoliyatida – jamiyatga foydali kasb bilan shug‘ullanishi, xalqqa manfaati tegishi, odamlarning og‘irini yengil qilishida deb biladi. Uning xalq g‘amini o‘z g‘ami deb bilmaydigan odamni odam qatoriga qo‘shmasligi bejiz emas:

*Odami ersang, demagil odami
Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.*

Bu – Navoiyning inson haqidagi qarashlari tizimida eng muhim nuqta. Zero, shoirning o‘zi ham xalqqa qancha ko‘p foydang tegsa, bu narsaning o‘zingga foydasi ko‘proq degan aqida bilan yashagan:

*Naf‘ing agar xalqqa beshakdurur,
Bilki, bu naf‘ o‘zungga ko‘prakdurur.*

Xalq hayotini eng chuqur qatlamlarigacha, ikir-chikirlarigacha yaxshi bilgan, xalq og‘zaki ijodidan to‘la xabardor shoir o‘z asarlarida xalq maqol-matallari, obrazli iboralaridan keng foydalanadi, kundalik turmushdan olingan hayotiy tashbehlarni ko‘p qo‘llaydi. O‘z navbatida zamonasining barcha

ilmlarini egallagan, hayotning butun achchiq-chuchugini totgan donishmand shoirning ko'rgan-kechirganlarining xulosasi sifatidagi teran mazmunli lo'nda hikmatlari xalq orasiga shunchalik singib ketganki, ularning qaysi biri xalqning o'ziniki-yu qaysi biri Navoiyniki ekanligini ajratib bo'lmaydi. Misollar:

Tilga ixtiyorsiz, elga e'tiborsiz.

* * *

Aytur so'zni ayt, aytmas so'zdin qayt.

Alisher Navoiy ilk devoni «Badoe' ul-bidoya»ga yozgan debochasidayoq adabiyot – tarbiya vositasi ekanligiga urg'u berib, har qanday badiiy asar ma'rifiy fikrlar va pand-nasihatdan xoli bo'lmasligi kerakligini qayd etib, jumladan shunday yozgan edi: «Devon topilg'aykim, anda ma'rifatomiz bir g'azal topilmag'ay va g'azal bo'lg'aykim, anda mav'izatangiz bir bayt bo'limg'ay. Mundoq devon bitilsa, xud asru behuda zahmat va zoye' mashaqqat tortilg'on bo'lg'ay»¹. Shundan keyin o'zining ishqiy g'azallari ham ma'rifiy va falsafiy baytlardan xoli emasligini alohida ta'kidlab o'tadi. Ayni jihatdan shoir merosi – ma'naviy-axloqiy tarbiyaning kuchli qurollaridan biri. Inson tarbiyasi, kamoloti masalalarini o'zbek adabiyotida hech kim Navoiydek haddi a'losida kuylamagan. Shoir orzu qilgan ko-

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma jildlik. 1-jild. – T.: «Fan», 1987. 21-bet.

millik yo‘li bu, birinchi navbatda, yetuk odob-axloq sohibi bo‘lish, jami insoniy ezgu fazilatlarni egallash, zamonasining barcha ilm-u hunarlarini o‘zlashtirish, ilm va hunarni bir-biridan ajratmaslik, nafaqat ma’naviy, balki jismoniy jihatdan ham barkamollikka intilish, hamisha el-u yurt xizmatiga shay turish, millatning og‘irini yelkaga olish, Vatanga sodiq farzand bo‘lish, burch va mas’uliyat tuyg‘usini hamma narsadan baland qo‘yish va hokazo.

Navoiy barchadan talab etgan va hammada bo‘lishini orzu qilgan ezguliklarning mazmun-mundarijasi shunchalik ko‘pki, ularni birma-bir sanab chiqsangiz shuning o‘zi bitta kitob bo‘ladi. Aslida shoirning inson tarbiyasi bilan bog‘liq o‘git-nasihatlari, fikr-mulohazalari, talab-ko‘rsatmalari, orzu-istiklarini bir yerga jamlab, ularni tartib bilan joylashtirib chiqsa, insoniy kamolotga erishish yo‘llari ko‘rsatilgan o‘ziga xos nazmiy dastur, qo‘llanma vujudga keladi.

Aslida Sharq xalqlari qadim ul-ayyomdan maqol-matallar, teran ma’noli hikmatli so‘zlar, ibratli rivo-yatlarga moyilliklari bilan ajralib turadilar. Xalq ertaklari donishmand ota-bobolarimiz bitta hikmatli so‘zni bir tillaga sotib olganligidan shohidlik beradi. Rivoyat qilishlaricha, Olloh taolo Luqmoni hakimdan: «Payg‘ambarlik beraymi yoki hikmat?» – deb so‘raganida, u hikmatni tanlagan ekan. Shundan keyin Xudovandi karim unga shunchalik ko‘p hikmat bergen ekanki, barcha payg‘ambarlar ham uning pand-nasihatlariga muhtoj

bo'lgan ekanlar». Shuning uchun ham Sharqda didaktik adabiyot rivojlangan. Bu o'rinda «Kalila va Dimna», «Ming bir kecha», Kaykovusning «Qobusnom», Shayx Sa'diyning «Bo'ston» va «Guliston», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Xojaning «Miftoh ul-adl» va «Gulzor», Abdulla Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud axloq» kabi asarlarini eslashning o'zi kifoya. Pand-nasihat mumtoz adabiyotimizning qat-qatiga singib, uning asosiy xususiyatlaridan biriga aylangan.

Alisher Navoiy ijodi abadiy barhayotligining siri shundaki, u azaliy va abadiy mavzularni yuksak mahorat bilan qalamga olgan: muhabbat, vafo, do'stlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, mardlik, saxovat, qanoat,adolat, olivjanoblik, yaxshilik kabi insoniy fazilatlarni ulug'lagan bo'lsa, yomonlik, zulm-zo'rlik, nohaqlik, e'tiqodsizlik, bevafolik, dilozorlik, hasad, riyo, kibr, yolg'on, tama, xasislik singari illatlarni keskin tanqid qilgan. Insoniyat jamiyatni mavjud ekan, bu ijobiy va salbiy xususiyatlar u yoki bu darajada yashaydi. Binobarin, Navoiy kabi hassos shoirlarning ezgulikni ulug'lash, yovuzlikni qoralashga yo'naltirilgan asarlari hamma davrlarda ham jamiyat manfaatlariga birday xizmat qilaveradi.

Alisher Navoiy ko'p qirrali teran fikrlarni lo'nda va aniq shaklda ifodalaydi, o'z fikrining ta'sirchanligini oshirish uchun hayotiy tashbehlar topadi. Fikr, narsa va holatni o'xshashiga nisbat berish, yo'

ziddiga qiyoslash orqali ibratli xulosa chiqaradi.
Chunonchi:

*Sen agar tarki tama' qilsang, ulug' ishdur bukim,
Olam ahli barcha bo'lg'ay bir taraf, sen bir taraf.*

Bu yerda shoir o'z fikrini qarama-qarshi qo'-yish – tazod san'ati orqali ifodalamoqda: hozir butun dunyo tama quliga aylangan, agar sen tamani tark etsang, olamdagи barcha odamlar bir taraf-u sening yolg'iz o'zing bir taraf bo'lasanki, bu nihoyatda ulug' ishdir.

Quyidagi hikmat esa tashbeh – o'xshatish asosiga qurilgan: bir siniq ko'ngilni ko'tarish Ka'bani obod qilishga tenglashtiriladi:

*Kimki bir ko'ngli buzuqning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay.*

Bu tasavvufdagi ko'ngilni ulug'lash an'analariga borib taqaladi. Ko'ngilning hamma narsa, hatto Ka'-badan ham ustun qo'yilishining sababi shundaki, tasavvufda Ollohdan keyin ko'ngil turadi. To'g'ri, Ka'ba – Ollohnинг uyi, lekin u zohiriyl, ramziy uy, uning haqiqiy uyi – insонning ko'ngli. Dunyo va nafs g'uborlaridan poklangan, ko'zguday musaffo holga kelgan ko'ngilda Olloh jamoli jilvalanadi. Shuning uchun ham Umar Xayyom loydan bino qilingan yuzta Ka'ba bitta ko'ngilning o'rmini bosolmaydi, degan. Navoiy ham «Hayrat ul-abror» dostonida olamning qiblasi bo'lishiga qaramay, Ka'baning ko'ngil ka'basichalik qadri yo'q, deb lutf etadi:

*Ka'baki, olamning o'lub qiblasi,
Qadri yo'q onchakim, ko'ngul ka'basi.*

Navoiy olam va odam mohiyati haqida ko‘p bosh qotirgan, tiriklik va o‘lim sabablari ustida muttasil mulohaza yuritgan, inson hayotining maqsadi, ma’no-mazmuni xususida bir umr o‘ylagan, tabiat va jamiyat sirlarini o‘zicha yechishga intilgan. Uning chuqur bilim, keng dunyoqarash, katta hayotiy tajriba, olimona teran tafakkur va shoirona o‘tkir nigoh bilan uyg‘unlashgan fikr-mulohazalari, falsafiy xulosalari hikmat kabi jaranglashi shundan. Chunonchi, shoir olamning yaratilishi to‘g‘risidagi ko‘p yillik mushohadalarining natijasi sifatida dunyoda bir qil ham behuda yaratilmagan, basharti, men unda biror xato ko‘rsam, bu olamning nomukammalligidan emas, balki mening nuqtayi nazarimning xato ekanligidandir, degan teran va haqqoniy bir fikrni bayon etadi:

*Bu korgahda xato kelmadи chu bir sari mo'y,
Xato mening nazarimdindur, xato ko'rsam.*

Dunyo otliq Yosuman harchand Farhoddek asl odamlarni juvonmarg qiluvchi bo‘lmasisin, Xusrav kabi nokaslar ham undan vafo umid qilishi xatodir, chunki hayot tegirmoni navbati bilan yaxshini ham, yomonni ham o‘z komiga tortadi. Umar Xayyom aytganidek, boshqalar o‘lib, o‘zingning tirik yurganingga mag‘rur bo‘lmaki, bir kuni albatta sening ham galing keladi:

*Dahr zoli nechakim Farhodkushdur, turfa ko'r –
Kim, xatodur tutsa gar andin vafo Parvez ko'z.*

Bu yerda «Farhod va Shirin» dostonidagi Farhodning Xusrav yollagan Yosuman makri bilan o'ldirilganligiga ishora qilinayapti. Holbuki, bila-mizki, Xusravning quvonchi ham uzoqqa bormaydi – Shirinning vasliga yetolmay, o'g'li Sheruya tomonidan o'ldiriladi. O'z navbatida, padarkush Sheruya ham olti oy o'tmay, ajal sharbatini totadi. Abdulla Oripov ta'biri bilan aytganda, farq shundaki, «Qurban oldin ketar, jallod keyinroq».

Xalqdan boshingga har qancha jabr-u jafo yog‘ilmasin, men uchun boshqa xalq yarat deyish joiz emas, chunki yer-u ko‘kning Parvardigori nimani qanday yaratishni o‘zi biladi. Nima, sen Xudodan ham donomisanki, unday qilish kerak edi, bunday qilish kerak edi, deb maslahat berasan. Ayni nuqtayi nazardan qaraganda, dunyo mukammal emas deyish ham qaysidir ma'noda Yaratuvchiga ta'na qilish hisoblanadi, bunday harakatning gunoh ekanligi shubhasiz. Avval-u oxirni bilguvchi ulug‘ zot dunyoni hozirgi holatida yaratibdimi, shuni ma'quil ko‘rgan – bunda Xudoning nimani ko‘zda tutganini ertaga ne bo‘lishini bilmaydigan bandalar qayerdan bilsin:

*Xalqdin har yaramas kelsa, xush ulkim, Haqq‘a
Desa bo‘lmas, mening uchun yana bir xalq yarot.*

Navoiy umrni shamolga o‘xshatadi: har qancha yugurib, shamolga yetib bo‘limgani singari, shiddatli umr oqimini ham to‘xtatib turish mumkin emas. Shunday ekan, qo‘lingdan kelgancha uni shodxurram o‘tkaz, toki so‘nggi lahzada bu olam ayvonini afsus-u nadomat bilan tark etma:

*Ey Navoiy, umr o'tar yeldek, o'zungni shod tut,
Elga yetmak mumkin ermastur chu sur'at ko 'rguzub.*

Boshqa bir g‘azalida iztirob bilan yozganiday, gullagan yoshlik bo‘stonini harchand ignaband devor bilan o‘rab olma, keksalik qo‘smini – kuz baribir unga bostirib kiradi:

*Xazon sipohiga, ey bog‘bon, emas mone’
Bu bog‘ tomida gar ignadin tikan qilg‘il.*

Ma’lum bo‘ladiki, Alisher Navoiy ijodi o‘ziga xos hikmat bo‘stonidir. O‘zingizda tug‘ilgan har qanday savolga javob izlab, unga murojaat qilsangiz, ahvoli ruhiyangizga mos bir hikmat topib, maqsadingiz hosil bo‘lishi, ko‘nglingiz taskin topishi shubhasiz. Chunki ko‘pni ko‘rgan donishmand shoir hayotning deyarli hamma yaxshi-yomonini boshidan o‘tkazgan, inson fe’lining butun «o‘r-u qir»ini obdan kuzatgan, tabiat va jamiyat hodisalarini teran tahlil qilgan, bir so‘z bilan aytganda, olam va odam bilan bog‘liq barcha narsa-tushunchalarni aql tarozisida o‘lchab, ko‘ngil daftariga darj etgan. Shoir hikmatlari hayotdan olinganligi, shaklan go‘zal, mazmunan teran, badiiy yuksak ekanligi uchun ham biror-bir zamonda o‘z ahamiyatini yo‘qotmay, barcha toifaga ma’qul bo‘lib kelayapti va to yer yuzida inson avlodini yashar ekan, ularning qimmati zarracha kamaymaydi, bil’aks tobora ortib boraveradi.

Ergash OCHILOV



HIKMATLAR

* * *

Kamol et kasbkim, olam uyidin
Sanga farz o'lmag'ay g'amnok¹ chiqmoq.
Jahondin notamom² o'tmak biaynih³,
Erur hammomdan nopol chiqmoq.

* * *

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiq-u⁴ mehribon bo'lmas emish.
Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulg'a tikandek oshyon bo'lmas emish.

* * *

Tuxm yerga kirib, chechak bo'ldi,
Qurt jondin kechib, ipak bo'ldi.
Lola tuxmicha g'ayrating yo'qmu?!

Pilla qurticha himmating yo'qmu?!

¹ *G'amnok* – g'amgin, g'amli, qayg'uli.

² *Notamom* – qusurli, komil emas.

³ *Biaynih* – xuddi, xuddi o'zi, aynan.

⁴ *Shafiq* – shafqatli, marhamatli.

* * *

Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig‘,
Yor o‘lung bir-biringizgaki, erur yorlig‘ ish.

* * *

Dahr¹ bo‘stonida qilmoq sayr aylab ho-yu huy
Harza² kezmakdur hayoting qushlarini urkutub.

* * *

Moldin umrungg‘a osoyish agar yetmas ne sud³,
Nuh⁴ umrin hosil etsang, ganji⁵ Qorun⁶
qozg‘anib.

* * *

Erur chun olam ichra joh⁷ foni, yaxshi
ot boqiy,
Bas, el komin⁸ ravo ayla o‘zungni komron⁹
ko‘rgach.

¹ *Dahr* – dunyo, olam; zamon.

² *Harza* – behuda.

³ *Sud* – foyda, naf, manfaat.

⁴ *Nuh* – eng uzoq umr ko‘rgan payg‘ambar. Uning 1000, hatto 1600 yil umr ko‘rgani naql qilinadi.

⁵ *Ganj* – 1) boylik, xazina; 2) oltin-kumush.

⁶ *Qorun* – Muso alayhissalom davrida yashagan, had-hisob-siz boyligini xayrli ishlarga sarflamay, xasislikda nom chiqargan shaxs. Bu takabbur kimsani oxir-oqibat butun mol-dunyosi bilan birga yer yutgan. U Sharq adabiyotida harislik va xasislik timsoli hisoblanadi.

⁷ *Joh* – 1) amal, martaba; 2) davlat, boylik; 3) buyuklik, shavkat.

⁸ *Kom* – 1) og‘iz, tanglay; 2) murod, maqsad, orzu, tilak.

⁹ *Komron* – 1) baxtiyorlik, maqsadga erishganlik; 2) qudratlilik, hukmronlik.

* * *

Bo‘lub nafsingg‘a tobe’, band etarsen tushsa
dushmanni,
Senga yo‘q nafsdek dushman, qila olsang ani
qil band.

* * *

Ayb erurkim, ahli donish¹ qilsa nodon birla bahs.

* * *

Kirma savdo bahrig²a olamdin istab sudkim,
Siym³ naqdi tushsa, lekin umr naqdi siyg‘alur.

* * *

G‘arib⁴ qissa erur ishqkim, tuganmadi hech,
Agarchi bo‘lg‘ali olam binosi aytildur.

* * *

Bu damni tut g‘animatkim, kelur damdin asar
yo‘qtur,
Ne damkim, o‘tti, xud⁵ andin kishi topmas
nishon hargiz⁶.

* * *

Dahr sudidin tama’ uzkim, ziyone besh⁷ emas,
Umrni tutqil g‘animatkim, zamone besh emas.

¹ *Ahli donish* – donolar, olimlar.

² *Bahr* – azim daryo, dengiz.

³ *Siym* – kumush, tanga, pul.

⁴ *G‘arib* – bu yerda: tengsiz, ajoyib.

⁵ *Xud* – 1) albatta, haqiqatan; 2) yolg‘iz, faqat; 3) o‘zi, o‘zginasi;
4) xuddi, kabi, -dekk.

⁶ *Hargiz* – hech qachon, aslo, sira.

⁷ *Besh* – ko‘p, ortiq, ziyoda.

* * *

Yugurma rizq uchun, ne yetsa Haqdin, anglakim,
komil
Ne kelturgil demish, ne g‘aybdin kelganni
qaytarmish.

* * *

Qo‘zg‘ama bulbulni ko‘p, ey gulki, davron bog‘ida
Qolmamish qo‘zg‘almayin ulkim, birovni
qo‘zg‘amish.

* * *

Andoq ish qilkim, pushaymon bo‘limg‘aysenkim,
emas
Hech osig¹ chun ish xato bo‘ldi pushaymonlig‘da
hayf.

* * *

Bu chaman ra’nolari sarkashlik² etgandin
ne sud –
Kim, xazon torojidin emin³ emastur
bir nihol.

* * *

G‘animat anglasun bulbulni gul yetgachki,
bo‘stondin
Uchar gul yafrog‘i ham, qolmas uchmay garchi
bulbul ham.

¹ *Osig’ (Asig')* – foyda, manfaat, naf.

² *Sarkashlik* – o‘jarlik, qaysarlik, itoatsizlik, mag‘rurlik.

³ *Emin* – tinch, osuda, xotirjam.

* * *

Sarv¹ ila xoshok agar gul oshiqidur,
farqi bor,
Sarvg'a to o't tutashqay, kul bo'lur yuz ming
giyoh.

* * *

Qaysi johilg'a nadomat bo'lg'ay ul olimchakim,
Har ne bildi, qilmadi, har neki qildi,
bilmadi.

* * *

Birovki, ishq-u may ilgida² mubtalo bo'lg'ay,
Ne tong³, agar anga har lahza yuz balo bo'lg'ay.

* * *

Garchi bas⁴ tiyraro'dur⁵ ul zulumot,
G'am emas, chun bor anda obi hayot⁶.

* * *

Har yerda bahor o'lsa, chaman bo'lsa kerak,
Har yerda chaman, gul-u suman⁷ bo'lsa kerak,
Har qayda xazon bo'lsa, tikan bo'lsa kerak,
Har qayda tikan, ranj-u mihan⁸ bo'lsa kerak.

¹ Sarv – qishin-yozin ko'm-ko'k bo'lib yashnab turadigan ignabargli go'zal va xushqomat daraxt.

² Ilig (Ilik) – qo'l.

³ Ne tong – ne ajab, ajab emas.

⁴ Bas – bu yerda: ko'p, benihoya.

⁵ Tiyraro' – qora yuzli.

⁶ Obi hayot – Xizr alayhissalom yer osti – zulmat qa'ridan izlab topgan va bir qatra ichib, abadiy hayotga noil-tilgan mangulik suvi.

⁷ Suman – oppoq gullaydigan jasmin guli, yosuman.

⁸ Mihan – mehnatlar, mashaqqatlar.

* * *

Yuz gul arosida bir tikon bo‘lsa, ne tong?!
 Yuz yaxshi ichinda bir yomon bo‘lsa, ne tong?!
 Ming sog‘ar¹ ichilsa, o‘ylakim obi hayot,
 Birning tahida durdi don² bo‘lsa, ne tong?!

* * *

Ayb istaguchiki, so‘zidur barcha xilof,
 Feruzani³ xarmuhra⁴ debon sursa gazof⁵,
 Chun javharini⁶ zohir⁷ etar, ayla muof⁸,
 Mundoq javhariyg‘a⁹ Tengri bergay insof.

* * *

Komin qilur ermish odamizod xayol,
 Naqsh aylar emish ko‘ngliga yuz fikri mahol,
 Mundin g‘ofil qolibki, Hayyi mutaol¹⁰,
 Kelturgusi tongla¹¹ aning ollig‘a ne hol.

¹ *Sog ‘ar* – may ichadigan idish, piyola, jom, qadah.

² *Durd* – may quyqasi, qoldig‘i.

³ *Feruza* (*Firuza*) – ko‘k tusli qimmatbaho tosh.

⁴ *Xarmuhra* – eshakmunchoq.

⁵ *Gazof* – yolg‘on, behuda, asossiz.

⁶ *Javhar* – 1) gavhar; 2) asos, mohiyat; 3) nodir, noyob; 4) hayot.

⁷ *Zohir* – 1) ko‘rinib turgan, ochiq-oshkor, ayon; 2) tashqi ko‘rinish, biror narsaning sirti, tashi.

⁸ *Muof* – afv etish.

⁹ *Javhariy* – javharshunos: qimmatbaho toshlarni ajratuvchi.

¹⁰ *Hayyi mutaol* – Xudoning sifati: oliy darajali.

¹¹ *Tongla* – 1) erta; 2) qiyomat.

TAJAKKUR TUHFLARID

* * *

Gul bo'lsa, tikan dog'i¹ bo'lur bo'stonda,
Dur bo'lsa, sadaf² dog'i bo'lur ummonda.

* * *

Uyki, adno³ tebranur, sokinga xotir jam' emas,
Ne ajab, gar amn⁴ yo'qtur gunbadi gardon⁵ aro.

* * *

Charxi doyir⁶ bahridin el tutmasun sohil
umid –

Kim, qutulmas har kishikim, tushti bu girdob aro.

* * *

G'urbat suubatin⁷ kishi bilmas vatan aro.

* * *

Gulshan ichra chun butar gul, sho'ra yerdin
sho'razor,
G'ayri g'adr ahli⁸ ne bo'lg'ay olami g'addor aro.

* * *

Topmasang davr ahlidin mehr-u vafo, ayb
etmakim,
Butmamish bu meva davron bog'ining ashjorida⁹.

¹ *Dog'i* (*Dag'i*) – yana, tag'in, hamda.

² *Sadaf* – ichida gavhar yetiladigan huqqa.

³ *Adno* – bu yerda: ozgina.

⁴ *Amn* – tinchlik, osoyishtalik.

⁵ *Gunbadi gardon* – aylanuvchi falak.

⁶ *Charxi doyir* – aylanuvchi, sayr etuvchi falak.

⁷ *Suubat* – qiyinchilik, azob.

⁸ *G'adr ahli* – muttahamlar, xiyonatkorlar.

⁹ *Ashjor* – daraxtlar.

* * *

Ey Navoiy, aql-u din yag'mo¹ qilur davron mayi,
Chiq ravon bu bazmdin filjumla² hushung
borida.

* * *

Ey, Navoiy, er esang dunyo arusin³ qil taloq,
Bir yo'li bo'lma zabun⁴ bu zoli⁵ makkor ollida.

* * *

Dahr elidin naf' agar yo'qtur, zarar ham
bo'lmasa,
Marham ar⁶ yo'qtur, ko'ngulga nishtar ham
bo'lmasa.

* * *

Nasihat birla daf' o'lmas qazo⁷ bo'lg'an balo.

* * *

Balosiz kom yo'q.

* * *

Tana'um⁸ dast bermas kimsaga, bo'lmay diram⁹
paydo.

¹ *Yag'mo* – talon-toroj, g'oratgarlik, buzg'unchilik.

² *Filjumla* – xullas, qisqasini aytganda.

³ *Arus (Aro's)* – kelin, kelinchak.

⁴ *Zabun* – ojiz, zaif, bechora, mag'lub.

⁵ *Zol* – qariya (chol, kampir). *Zoli makkor* – keksa firibgar, ya'ni dunyo.

⁶ *Ar* – agar bog'lovchisining qisqargan shakli.

⁷ *Qazo* – taqdir, qismat. Olloh taolonning hamma narsalarning kelajakda qanday bo'lishini azaldan bilishi.

⁸ *Tana'um* – bahramand bo'lish.

⁹ *Diram* – dirham: kumush tanga.

TAFAKKUR TUHFULARI

* * *

Har kishi ani istarki, bor anga marg‘ub¹.

* * *

Ne chamandur buki, hasrat suyi-yu dard o‘tidin
Parvarish top mish qay-u bir guldakim, bor ob-u
tob².

* * *

Kimki sarkashrak, havodis³ o‘qig‘a ko‘prak
hadaf⁴.

* * *

Tolib ulkim, topmasang dag‘i bu baskim,
aylamas
Bir nafas g‘ofil seni matlub yodidin talab.

* * *

Umr chun foni emish, gar kishi olam shahidur,
Chun o‘lar, nevchun etar muncha taazzum⁵, yo Rab?

* * *

Sof qil xotirki, solg‘ay aks ul yuz yaxshikim,
Ko‘rguzur yuzni, qachonkim ravshan o‘ldi ko‘zgu
xub⁶.

¹ Marg ‘ub – yoqimli, sevimli.

² Ob-u tob – tovlanish, yashnash.

³ Havodis – hodisalar, voqealar.

⁴ Hadaf – nishon.

⁵ Taazzum – kibr-u g‘urur.

⁶ Xub – 1) yaxshi; 2) go‘zal.

* * *

Nafsing etsa sho‘xlug¹, charx emgagidin¹ qil
 adab,
 Tiflni² andoqki, zajr³ aylar falaq birla adib⁴.

* * *

Husn aro ishva-u noz el ko‘nglin
 Oncha olmaski, hayo birla adab.

* * *

Hunar⁵ ham bor emish nodon kishi ollida ayb.

* * *

Ey Navoiy, sendek etkan zoye’ ayyomi shabob⁶,
 Sudi yo‘q anjum⁷ kibi ashki nadomat shomi
 shayb⁸.

* * *

Shar’siz⁹ xoshok aro xashxoshdekdur¹⁰, ey hakim,
 Ko‘kka chiqsang jaybing¹¹ ichra subhai¹² Parvin¹³
 solib.

¹ *Emgak* – mashaqqat, qiyinchilik.

² *Tifl* – bola.

³ *Zajr* – bu yerda: pand-nasihat.

⁴ *Adib* – tarbiyachi, murabbiy, o‘qituvchi.

⁵ *Hunar* – fazl, fazilat.

⁶ *Ayyomi shabob* – yoshlik davri.

⁷ *Anjum* – yulduzlar.

⁸ *Shomi shayb* – qarilik shomi.

⁹ *Shar* – shariat: islom dini qonun-qoidalari.

¹⁰ *Xashxosh* – ko‘knor urug‘i.

¹¹ *Jayb* – 1) cho‘ntak, kissa; 2) yoqa.

¹² *Subha* – tasbeh.

¹³ *Parvin* – Hulkar.

* * *

Nuktayi tavidni¹ bilgan qila olmas bayon –
Kim, bayon qildim desa, bilgilki, qilmaydur bilib.

* * *

Shabnam ermas, nargis ashkidur, nedin qon
yig'lamas,
Ko'z yumub-ochquncha gulshan umri poyonin ko'rub?

* * *

Navoiy kunda chun bir qursi² maqsum³ ortmas,
ne sud
Falakdek bo'lmosing sargashta tun-kun ehtimom⁴
aylab?

* * *

Dahr bog'ida giyohi mehr hargiz butmadi,
Gar desangkim ko'rmayin bemehrlik, bu so'zga
but⁵.

* * *

Shahdi ayshing zahr etar gardun⁶, sen ushbu
jomdin⁷,
Xoh komingni achit, xohi mazoqingni⁸ chuchut.

¹ *Nuktai tavid* – tavid siri, mohiyati. *Tavid (Vahdat)* – Olloh taoloning birligi, yagonaligi. Bu tushunchaga ko'ra borliq yagona bir vujuddan, olamidagi barcha narsalar uning tajalliyasi – namoyon bo'lishidan iborat.

² *Qurs* – kulcha.

³ *Maqsum* – taqsimlangan, bo'lingan, ajratilgan; majozan: taqdir, qismat. *Qursi maqsum* – taqdir qilingan rizq.

⁴ *Ehtimom* – ahamiyat berish, diqqat qilish.

⁵ *But* – sanam; majozan: go'zal mahbuba.

⁶ *Gardun* – 1) dunyo, olam; 2) osmon, falak.

⁷ *Jom* – qadah, may piyolasi.

⁸ *Mazoq* – ta'm bilish a'zolari.

* * *

Chekma un, ohim ko'r, ey Majnunki, bulbul
ko'p fig'on
Chekti, o'rtangan vale parvona bo'ldi oqibat.

* * *

Ko'p Masihodin¹ dam urma, qil hayotingni
tufayl²
Angakim, topmish Masih aning tufaylidin
hayot.

* * *

Diramsiz elga boy el farzdur bermak zakot³.

* * *

Yaxshi ermas zuhd⁴ zanjirig'a bo'lmoq poybast⁵.

* * *

Ne voqe' o'lsa chu taqdirdin emas xorij,
Bas o'ktadur⁶ qiluridin kishiga bermak o'gut.

¹ *Masiho (Masih)* – Iso payg'ambar. Uning qo'li tekkan-silagan o'likka jon kirar ekan. Shuning uchun ham ul zot al-Masih – silovchi deb ulug'langan.

² *Tufayl* – sabab, bahona.

³ *Zakot* – islom dinida muhtojlar foydasi uchun har yili umumiy daromadning qirqdan bir ulushi miqdorida beriladigan soliq.

⁴ *Zuhd* – dunyodan voz kechib, toat-ibodat bilan shug'ullanish, taqvodorlik, parhezkorlik, porsolik.

⁵ *Poybast (Pobast)* – oyog'i bog'liq, giriftor, asir.

⁶ *O'kta* – behuda, keraksiz.

* * *

Ne uchun ashjordin yig'mish o'tun, ey bog'bon,
Otashin guldin agar urmas falak bo'stong'a o't.

* * *

Bu chaman ichra xazon sarsaridin¹ sarv kibi,
G'ami yo'q tuzluk² ila kimki shior etti sabot.

* * *

Domdin yo'q chorasi har qushki, bo'lg'ay
donado'st³.

* * *

Orif⁴ ermas har kishikim qilsa irfon⁵ birla
bahs.

* * *

Ranj chekmasa hargiz tuyassar o'lmas ganj.

* * *

Agar kishiga chekib ranj, ganj bo'ldi nasib,
Desa bu ganjni asray, yo'q andin ortuq ranj.

¹ *Sarsar* – kuchli va sovuq shamol, dahshatli bo'ron, dovul.

² *Tuzluk* – to'g'rilik.

³ *Donado'st* – donni sevuvchi, majozan: nafs quli.

⁴ *Orif* – ma'rifat sohibi, Ollohoi tanigan kishi, komil inson, Ollohnning zoti, sifatlari va ismlarini mushohada etadigan zavqiy va vajdiy ilmlar egasi bo'lgan zot.

⁵ *Irfon* – ma'rifat: Olloho mohiyati haqidagi ilm.

* * *

Kishiki naqdini vazn¹ aylabon qilur madfun²,
Bu g‘ussasanjdur³, olg‘an kishi – farog‘atsanj⁴.

* * *

Yilon kibi, ne ajab, ganj asrag'an kishining
Hamisha komida gar zahr erur, tanida shikanj⁵.

六

Bor muayyankim, bo‘lur bemorlar nozukmizoj.

* * *

Hech kim vayronadin ganj istamas hargiz xiroj.

* * *

Bo'lsa shah zolim, el ichra zulmg'a ermish rivoj.

* * *

Toparlар yerda zaxmin⁶ sayd⁷ qonidin nishon
ko'rgach.

* * *

Havas ishq aylagan ozoda⁸, kechkil bu
xayolingdin –
Ki, chiqmas bu tikan ko‘nglungda nogah ustuvor
o‘lg‘ach.

¹ *Vazn* – og‘irlik, o‘lchov; miqdor, qadr.

² *Madfun* – ко‘милган, yashirilgan.

³ *G'ussasanj* – *g'am chekuvchi, qayg'uruvchi.*

⁴ Farog 'atsanj – rohat qiluvchi.

⁵ *Shikani* = 1) bukilish, buralish; 2) rani, azob.

⁶ *Zaxm = 1) vara jarohat; 2) ozor xafalik*

⁷ *Sawd* = ov shikor.

⁸ Ozoda – 1) erkin, ozod, dunyoviy bog‘liqliklardan qutulgan; 2) javonmard, ezgu xislatlar sohibi.

* * *

Qani Hotam¹, qani Qorun, qani Jamshid-u²
 Afridun?³
 Bas ehson qil sanga gardundin adno e'tibor
 o'lg'ach.

* * *

G'ururi jahl⁴ jomi birla mast o'lmaki,
 o'lmakdur,
 Maozallah⁵ bu mayg'a charx davridin⁶ xumor
 o'lg'ach.

* * *

Sham' ravshanroq bo'lur torin parishon
 aylagach.

* * *

O'lturur mahramni sulton ganj pinhon
 aylagach.

¹ *Hotam* – saxiyligi va olıyanobligi bilan Sharq mamlakatlarida dong taratgan shaxs. Yamandagi Toy qabilasidan bo'lganligi uchun Hotami Toy nomi bilan shuhrat qozongan.

² *Jamshid* – qadimgi Eronning afsonaviy podshohi Jamshid. U «Jomi jahonnamo» – jahonni ko'rsatuvchi jom ixtiro qilgan bo'lib, unda dunyodagi nafaqat hozirgi, balki o'tmishda yuz bergan va kelajakda sodir bo'ladigan voqeа-hodisalar ham aks etar ekan.

³ *Afridun* (*Faridun*) – qadimgi Eronning peshdodiylar sulolasiga mansub oltinchi hukmdor. U adolat timsoli hisoblanadi.

⁴ *Jahl* – 1) bilimsizlik, nodonlik; 2) g'aflat, jaholat.

⁵ *Maozallah* – Xudo saqlasini.

⁶ *Charx davri* – falak aylanishi.

* * *

Tengri razzoq¹ keldi – ro‘zi² uchun
Aylama o‘zni xalq aro muhtoj.

* * *

Soqiyo, tutqil sabuhiy³ bodakim⁴, bu dayrdin⁵,
Biz ketib, bu nav’ toli’ bo‘lg‘usi bisyor subh⁶.

* * *

Ey Navoiy, istasang barg-u navo⁷ bu bog‘ aro,
Guldek o‘l roki⁸ kecha, bulbul kibi bedor subh.

* * *

Tutmas ermish zahri g‘amdin o‘zga dahri dun⁹
qadah.

* * *

Yuz qadah qilg‘il murassa’kim¹⁰, chekarsen jomi
marg¹¹,
Hech kim xud topmadi Jamshiddin afzun¹²
qadah.

¹ *Razzoq* – rizq beruvchi: Xudoning sifatlaridan biri.

² *Ro‘zi* – rizq, nasiba.

³ *Sabuhiy* – ertalabki bosh og‘rig‘i uchun ichiladigan may.

⁴ *Boda* – may, sharob, mast qiluvchi ichimlik. Boda va uning may, sharob kabi ma’nodoshlari tasavvuf adabiyotida ilohiy tajalliy timсоли, ishq va irfon (ma‘rifat) ramzi bo‘lib keladi.

⁵ *Dayr* – otashparastlar ibodatxonasi; majozan: mayxona. So‘fiylar istilohida oriflar majlisi va zoti ahadiyatdan huzurlanishni bildiradi.

⁶ *Subh (Saboh, Subhidam)* – tong, ertalab.

⁷ *Barg-u navo* – rizq-u ro‘z, tirikchilik vositalari.

⁸ *Roki’* – ruku’ qiluvchi, bosh eguvchi.

⁹ *Dahri dun* – tuban dunyo.

¹⁰ *Murassa* – bezash, ziynatlash.

¹¹ *Jomi marg* – ajal qadahi.

¹² *Afzun (Fuzun)* – ko‘p, ortiq, ziyoda.

* * *

Balo ichra daler¹ urma qadam to oshiq
 o‘lmaysen,
 Samandar² bo‘lmaq‘uncha kirsa bo‘lmas o‘t aro
 gustox³.

* * *

Chu topmas har nekim, taqdirdur, bu dayr aro
 tag‘yir⁴,
 Adab ermasdurur qilmoq har ishni muddao
 gustox.

* * *

Umr shahdi bas chuchukdур, lekin oxir qilmasa
 Marg zahri birla ani dahri nofarjom⁵ talx⁶.

* * *

G‘am shomi bordi ul quyosh andoqli, gardini
 Topmas tilab o‘kush⁷ ko‘z ila to‘tiyog‘a charx.

* * *

Foni y o‘ldi falakdin base⁸ bino,
 Hargiz xalal yeturmadi dayri fanog‘a⁹ charx.

¹ Daler – qo‘rqmas, dovyurak, botir.

² Samandar – afsonaga ko‘ra, olov ichida tug‘ilib, olov ichida yashovchi, rangi ham olovrang jonivor.

³ Gustox – odobsiz, andishasiz.

⁴ Tag ‘yir – o‘zgarish, o‘zgartirish.

⁵ Nofarjom – oxiri xayrli tugamagan, natijasiz, behuda.

⁶ Talx – achchiq.

⁷ O‘kush – ko‘p, ancha, talay.

⁸ Base – ko‘p, benihoya.

⁹ Dayri fano – foni y dunyo. Tasavvufda orif va avliyolar davrasi, majlisi.

* * *

Ahli vafo yo‘q ersa, ne tong, charx javfida¹
Hargiz chu mayl qilmadi rasmi vafog‘a charx.

* * *

Taqdirdin ne kelsa, Navoiy, itoat et –
Kim, sen kibi zabun erur amri qazog‘a charx.

* * *

Sen o‘z xulqungni tuzgil, bo‘lma el axloqidin
xursand,
Kishiga chun kishi farzandi hargiz bo‘lmadi
farzand.

* * *

Bu foniy dayr aro gar shohlig^{*} istar esang,
bo‘lg‘il –
Gadolig[‘] nonig^{‘a} xursand-u bo‘lma shahg^{‘a}
hojatmand.

* * *

Shakarlablar tabassum qilg[‘]anin ko‘rgach ko‘ngul
berma –
Ki, bedillarni achchig[‘] yig[‘]latur oxir bu
shakkarxand².

* * *

Jahon lazzotini shirin ko‘rarsen,
lek bandingdur,
Giriftor o‘lma, voqif bo‘lki, qayd-u³ qand
erur monand.

¹ *Javf* – ich, qursoq; bir narsaning ichi.

² *Shakkarxand* – shirin, chiroyli tabassum qiluvchi.

³ *Qayd* – bog‘lanish, band, zanjir.

* * *

Gul yafrog‘i tirnog‘lar erur bu chaman ichra,
Bulbul par-u bolini¹ yulub bergali barbod.

* * *

Ey ko‘ngul, kuydur tama’ tuxmin, tamanno²
mazra’in³,
Bu ekinni chunki hargiz qilmadi dono pisand.

* * *

Kech bu bog‘-u gullaridin ham Navoiykim, emas
Ahli tahqiq⁴ oldida dunyo-vu mofiho⁵ pisand.

* * *

Kuydurur albatta har doruki, bo‘lg‘ay sudmand⁶.

* * *

Har ne nofe’dur⁷, marizi⁸ notavon ko‘rmas laziz.

* * *

Zulmat ahli g‘aflat istarlarki, olam komini
Uyqucha shabgir⁹ qilg‘an korvon ko‘rmas laziz.

¹ *Par-u bol* – par va qanotlar; majozan: qo‘l-u oyoq.

² *Tamanno* – orzu, maqsad, istak, xohish.

³ *Mazra’* – ekin ekiladigan joy, ekinzor, maydon.

⁴ *Ahli tahqiq* – bilimdonlar, haqiqat izlovchilar.

⁵ *Mofiho* – undagi, uning ichidagi; *Dunyo-vu mofiho* – dunyo va undagi narsalar.

⁶ *Sudmand* – foydali, nafli.

⁷ *Nofe’* – foydali, nafli.

⁸ *Mariz* – kasal, bemor, xasta, betob.

⁹ *Shabgir* – 1) kechasi hamla qiluvchi; 2) kechani uyqusiz o‘tkazuvchi.

* * *

Quti¹ botin istakim, zohir g'izosi² birla
tab'
Bir zamon gar topsa lazzat, bir zamon ko'rmas
laziz.

* * *

Or etar pashminadin³ ablah tilab
zarrishtani⁴ –
Kim, eshak halvoni andoqkim samon ko'rmas
laziz.

* * *

Har ne eldin qutqarur, lazzatlig' uldurkim,
faqir –
Mehr⁵ qursin, o'ylakim, bir pora non ko'rmas
laziz.

* * *

Dunyo arusi zulfini tutqan ne ogah faqrin⁶,
Ganj istamas ulkim, yilon tutmoq bila
xursand erur.

¹ *Qut* – oziq, yemak. *Quti botin* – ruh ozig'i, ma'naviy ne'mat.

² *G'izo* – oziq-ovqat, yegulik, taom. *Zohir g'izosi* – nafs ozig'i; noz-ne'mat; mol-dunyo.

³ *Pashmina* – jundan tikilgan mato, chakmon.

⁴ *Zarrishta* – zar ip.

⁵ *Mehr* – quyosh. *Mehr qursi* – quyosh shakli, doirasi.

⁶ *Faqr* – tariqatning to'rtinchı maqomi. Dunyo ne'matlari, vujud ehtiyojlaridan qo'l tortib, faqat Haqqa muhtoj bo'lish.

* * *

Mehr isi bu mijmari¹ feruzadin ko‘z tutmakim,
Barcha qad shamshodi bu mijmar ichinda dud
erur.

* * *

Eyki qadding bo‘ldi xam, olam bila qil
xayrbod² –
Kim, xam etmak qad hamisha lozimi padrud³
erur.

* * *

Ey baso makruhkim⁴, zimnida bir behbud⁵ erur.

* * *

Bu chaman gulbargi xushrang o‘lsa,
mayl etmangki, ul
G‘oza⁶ bulbul qonidin surtarki, rangi ol⁷ erur.

* * *

Sendadur maqsud ganji, lek jismingdur tilsim,
Vahki, bu ganj ul tilism ichra ajab noyob erur.

¹ *Mijmar* – xushbo‘y narsalar solib tutatiladigan idish, manqal. *Mijmari firuza* – ko‘k manqal; majozan: charx, falak.

² *Xayrbod* – xayrashish, vidolashish.

³ *Padrud* – xayr-xo‘sh, vido, xayrashish.

⁴ *Makruh* – noxush, yoqimsiz.

⁵ *Behbud* – yaxshilik; foyda najot.

⁶ *G‘oza* – upa-eliq.

⁷ *Ol* – qizil, to‘q qizil.

* * *

Chun quyoshdek yerga kirgung, ne osig‘,
gar yuz quyosh,
Masnading¹ toqida har yon shamsai² devor erur.

* * *

Bihisht mehnat³ emas, bo‘lsa va’dai diydor,
Visol umidi bor ersa, jafo ne bo‘lg‘usidur?

* * *

Navoiyo, chu alamsiz murod mumkin emas,
Desangki, vasl topay, hajr o‘tig‘a yoqilako‘r.

* * *

G‘am o‘lsa, solma girihlar⁴ qoshingg‘akim, qilmas
G‘aliz⁵ o‘lub bu qora man‘i xomai⁶ taqdir.

* * *

Falak daqoyiqidin⁷ kimsa bosh chiqarmadi
hargiz –
Kim, ushbu rishtaning asru⁸ tugunlari
chigilibdur.

¹ *Masnad* – o‘rin, taxt.

² *Shamsa* – imorat devor va peshtoqlariga quyoshga o‘xshatib ishlangan naqsh; zarlangan, yarqiroq qubba.

³ *Mehnat* – 1) qiyinchilik, mashaqqat; 2) balo, musibat; 3) dard, g‘am.

⁴ *Girih* – tugun, chigil.

⁵ *G‘aliz* – quyuq, qalin.

⁶ *Xoma* – qalam. *Xomai taqdir* – taqdir qalamı; qismat, yoziq.

⁷ *Falak daqoyiqi* – qismat chigalliklari.

⁸ *Asru* – juda ko‘p, behisob.

* * *

Ishq sirrin necha ko'nglum ichra pinhon asrasam – Ham, ko'ngul o'ti zabona chekkach', elga fosh erur.

* * *

Qaysi gul bazminki sug'a, yo'qsa yelga bermadi,
Bu chamanda to bulut saqko², sabo³ farrosh erur.

* * *

Ey ko'ngul, Farhod ila Vomiq dog'i Majnun
qani?!

-0H 00

Dahr bog'i ichra barbod o'lmag'an mil chigmadi

300

Tanni chun simob⁴ etar bu charxi axzar⁵ oqibat,
To‘n agar simobiy⁶ o‘lsun, gar yashil, bir hukmi
bor.

* * *

Charx shabgardig^a go^byo naqdi umrungdur g^caraz^d,
Tegrangga har tunki ikki bukrayib^e aylonadur.

¹ *Zabona chekmoq – til chiqarmoq, alangalanmoq.*

² *Saggo* – suv tashuvchi, meshkob.

³ Sabo – Sharq tomondan esadigan tonggi yoqimli va salqin shamol.

⁴ Simob – kumushrang kimyoviy element. Mumtoz she’riyatda betoqatlik, begarorlik ramzi va ko’z yoshi timsoli bo‘lib keladi.

⁵ Axzar – ko'k, yashil. Charxi axzar – moviy osmon; falak.

⁶ *Simobiy – simobrang.*

⁷ *Shabgard* – тұнда аяланувчы.

⁸ *G'araz* – magsad, njvat.

⁹ *Bukravmoq* = bukilmog, egilmog.

* * *

Dahr bo'stonida bosh chekkan nihol atrofida,
Shox emas, novak¹ degil, yafrog² emas, paykon³
erur.

* * *

Rostlarga charx agar har lahza qilmas sarzanish⁴,
Sham' bas har tun nedin yig'lab kuyub afg'on
qilur.

* * *

Desam husn ahlini ko'rmangki, zolimdurlar-u qotil,
Ko'ngul aytur ko'ray, shoyadki mundoq ermas
erkinlar.

* * *

Ne yellanmakdur⁵, ey shah, mo'r⁶ xaylidek⁶
cherikdinkim⁷,
Sulaymondek⁸ bu vodiy ichra barbod o'ldi
chandinlar⁹.

¹ *Novak* – o'q, kamon o'qi.

² *Paykon* – 1) o'qning uchi; 2) tikonning uchi.

³ *Sarzanish* – malomat, ozor, ta'na.

⁴ *Yellanmak* – yugurmoq.

⁵ *Mo'r* – chumoli.

⁶ *Xayl* – 1) to'da, guruh; 2) el, jamoa.

⁷ *Cherik* – qo'shin, lashkar.

⁸ *Sulaymon* – shon-shavkatli podshoh va payg'ambar. Uning mol-mulki had-hisobsiz bo'lgan. Unga Xudoning sirli va muqaddas ismi – Ismi a'zam ma'lum bo'lgan va bu ism uning sehrli uzugiga naqsh qilingan. Bu uzuk vositasida u nafaqat odamlar, balki hayvonlar, qushlar, barcha ins-u jinslarga, tabiat hodisalariga ham hukmini o'tkaza olgan.

⁹ *Chandin* – ko'p, behisob.

* * *

Navoiy, bo'lmayin zor-u zaif o'lmas navo topmoq,
 Bu ermish piri chang avtoridin¹ dayr ichra
 talqinlar.

* * *

Eyki, istarsen salomat, ishq ko'yin so'rmag'il –
 Kim, bu yo'lg'a har kishikim tushti, sargardon
 bo'lur.

* * *

Jahon makkorasi dilkashdur, ammo kimki
 aqd² etsa,
 Ipak jon rishtasi, yormoq³ anga din naqdi
 kobindur⁴.

* * *

Xushturur jon-u jahon jonon bila, jonon agar
 Bo'lmasa jon, o'ylakim, o'lmas jahon, zindon
 erur.

* * *

Go'r uchun ochmoq nedur har lahza bahromiy
 kamand⁵,
 Chun seni Bahromdek⁶ aylar ajal go'ri shikor.

¹ *Avtor* – torlar.² *Aqd* – nikoh.³ *Yormoq* – pul, tanga; oltin.⁴ *Kobin* – mahr; mol, mablag‘.⁵ *Kamand* – halqa, sirtmoq, arqon, tuzoq.⁶ *Bahrom Go'r* – go'r – qulon oviga o'ch bo'lgani uchun shunday nom olgan qadimgi Eronning sosoniylar sulolasiga mansub shoh (hukmronlik yillari – 421–438).

* * *

Ikki yuzluk bo‘lmakim, bu bog‘ning ra’no guli
Gar qizarur bir yuzi, lekin yana bir sarg‘arur.

* * *

Siymbarlar¹ ul kishingdurkim, aning moli bor.

* * *

Gavhari maqsud chun vobastai² tavfiq³ erur,
Desa bo‘lmaskim, munung sa’yi, aning ehmoli⁴ bor.

* * *

Jong‘a balo nishin hajr o‘zgacharak sanchar.

* * *

Xush gulshan erur dahr, budur aybiki, anda
Payvasta⁵ xazon yelidin ozurdadur ashjor.

* * *

Ne hukm qilsa vafo ahli jurmida⁶ g‘am emas,
Bu zulm erurki, jafo ahlini hakam qiladur.

* * *

Zamona o‘q kibi tuzlarni⁷ sindurub «yo»dek,
Alarki egridurur, shahg‘a muhtaram qiladur.

¹ *Siybar* (*Siyminbadan*) – kumushbadan, oqbadan; go‘zal, mahbuba.

² *Vobasta* – bog‘liq, aloqador.

³ *Tavfiq* – yordam, ko‘mak, madad.

⁴ *Ehmol* – beparvolik, sustkashilik, xushyoqmaslik.

⁵ *Payvasta* – bog‘langan, ulangan, tutashgan.

⁶ *Jurm* – gunoh, ayb.

⁷ *Tuz* – to‘g‘ri, tik.

* * *

Par urub, boshingg'a tutma avjkim, har necha
mo'r –
Kim, qanotlang'ay qachon uchmoq anga maqdur¹
erur.

* * *

Xom etkan tama' ranjur² erur.

* * *

Dahr toroji qilur uryon³ chaman ra'nolarin,
Yeldin un chekmas yig'ochlarkim⁴, chaman
afg'onidur.

* * *

Tavsani⁵ gardunni markab⁶ qilmakim,
Yer bila rokibni⁷ oxir teng qilur.

* * *

Bo'lma emin charx davridin muraqqa'po'sh⁸ deb –
Kim, quyoshdin bu muraqqa⁹ ichra o'tlug' tosi¹⁰
bor.

¹ *Maqdur* – 1) imkon; 2) taqdir.

² *Ranjur* – 1) g'amgin, xafa; 2) kasalmand, dardmand.

³ *Uryon* – yalang'och.

⁴ *Yig'och* – daraxt, yog'och.

⁵ *Tavsan* – arg'umoq, sho'x, o'ynoqi ot. *Tavsan gardun* – falak arg'umog'i.

⁶ *Markab* – ulov: ot, tuya.

⁷ *Rokib* – otliq, suvoriy.

⁸ *Muraqqa'po'sh* – janda kiygan, darveshona kiyangan.

⁹ *Muraqqa'* – darveshlar kiyadigan janda.

¹⁰ *Tos* – tog'ora, jom; osmon, falak.

* * *

Ey Navoiy, ma'siyat¹ uzrida o'lsang yaxshiroq,
Zuhd ujbidin² mukaddar³ bo'lg'ucha lavhi zamir⁴.

* * *

Nuh umri-yu Sulaymon mulkiga yo'qtur baqo.

* * *

Erur bedod, borinda tarahhum⁵ do'stdin yuz hayf
Angakim, shukr borinda ishi doim shikoyatdur.

* * *

Falak arusida yo'q mehr-u dilrabolig⁶ ko'p,
Nechukki, husn-u jamol ahlig'a vafo bila noz.

* * *

Yo'qturur bori olamda bir ko'ngul g'amsiz.

* * *

Xush ulki, yor firoqi-yu yo ko'ngul g'amidin
Tamomi umrida bir lahza erdi motamsiz.

* * *

Charx yolg'iz qilmadi Farhod qonin lolazor,
Lola qonin to'kkuchi aning nifoqidur hanuz.

¹ *Ma'siyat* – gunoh.

² *Ujb* – o'ziga bino qo'yish, manmanlik.

³ *Mukaddar* – xira tortgan, zang bosgan.

⁴ *Lavhi zamir* – dil, ko'ngil.

⁵ *Tarahhum* – rahm qilish, shafqat aylash.

* * *

Faqr naxlidin¹ guli maqsud uzmak istama,
Yetmay anda ohu ashkingdin havovu nam hanuz.

* * *

Kom yetkurmak g‘animat angla hojat ahlig‘a,
Ey g‘aniy², bu damki koming birladur davron
hanuz.

* * *

Pil o‘lsa sening xasming³, desangki zarar topmay,
Bir pashshag‘a olamda yetkurma zarar hargiz.

* * *

Ulki ermas ishqı pok-u sajda aylar ko‘rsa husn,
Uyladurkim, aylagay fosiq tahiratsiz namoz.

* * *

Desang zamona sitezini⁴ har zamon ko‘rmay,
Zamonnı xush tut-u qilma zamona birla sitez.

* * *

Pok lafz ayturg‘a og‘zing pok qilkim, hayfdur
Yaxshi so‘z borinda surgay nuktai⁵ mazmum⁶
og‘iz.

¹ *Naxl* – daraxt, nihol, ko‘chat.

² *G‘aniy* – boy, badavlat.

³ *Xasm* – dushman, raqib, muxolif.

⁴ *Sitez* – xusumat, adovat, dushmanlik.

⁵ *Nukta* – gap.

⁶ *Mazmum* – yomon; xato. *Nuktai mazmum* – yomon so‘z.

* * *

Uy bino aylab, ajabtur elni mehmon aylamak,
Ulki bu uy ichra besh kun mehmone besh emas.

* * *

Mehr toj-u charx taxting bo'lsa g'ofil bo'lmakim,
Mehr bemehr-u falak nomehribone besh emas.

* * *

Zarra xurshid¹ ollida ko'zdin nihon ermas.

* * *

Agarchi qon yutar bulbul, vale ne g'am anga,
chunkim
Navola² g'unchadin ayru-yu guldin o'zga xon³
ermas.

* * *

Bo'l mangiz mag'ruri husn, ey sho'xlarkim, bog' aro
Siz kibi bilturg'i gullardin biri paydo emas.

* * *

Hech ish xoriji taqdir emas.

* * *

Dahr sho'xig'a ko'ngul gar bermadim,
ayb etmangiz,
Ishvasi chinmu emas, yo ahdi yolg'onmu emas?!

¹ *Kurshid* – quyosh, oftob.

² *Navola* – rizq, nasiba; taom.

³ *Xon* – dasturxon.

* * *

G‘unchakim, ochildi, butkarmak¹ ani imkon emas.

* * *

Kimdurur bu korgah² vaz’ig‘akim³ hayron emas?!

* * *

Tori ummid aro harisni bil
Rishtai ankabut⁴ ichinda magas⁵.

* * *

Bu chamanning gullariga yo‘qtur, ey bulbul,
vafo,
Avlo⁶ ulkim, aylasang gulbong⁷ chekmaklikni
bas.

* * *

Zamon ahli zamondek g‘ayri nohamvorlig⁸
bilmas.

* * *

G‘unchani amdon⁹ ochib, gul aylamak oson emas.

¹ *Butkarmak* – butun qilmoq, avvalgi holiga keltirmoq.

² *Korgah* – 1) ishxona, korxona; 2) dunyo; falak.

³ *Vaz’* – hol, ahvol, shakl, tuzilish, tartib. *Korgoh vaz’i* – dunyo ahvoli.

⁴ *Ankabut* – o‘rgimchak.

⁵ *Magas* – pashsha; chivin.

⁶ *Avlo (Avli)* – afzalroq, yaxshiroq.

⁷ *Gulbong* – xushovoz bilan sayrash: faryod chekish.

⁸ *Nohamvorlig* – notekislik, nomunosiblik, nomuvofiqlik.

⁹ *Amdon* – ataylab, qasddan.

* * *

Mehr sham'ig'a parvona bo'lmedi xuffosh¹.

* * *

Kabutar qasr burjida emas shah shastidin²
emin,
Xusho, ul chug'z kim³ vayrona kunjin ixtiyor
etmish.

* * *

Umri jovid istasang fard⁴ o'lki, bo'ston
Xizridur⁵,
Sarvkim, da'b⁶ ayladi ozodalig⁷ birla maosh⁸.

* * *

Tut faqr etagin, atlas-u zarbaft⁹ so'zin qo'y –
Kim, ul dag'i tan hifzida¹⁰ moshobdek¹¹ ermish.

¹ *Xuffosh* – ko'rshapalak.

² *Shast* – qarmoq, changak.

³ *Chug'z* – boyqush, boyo'g'li.

⁴ *Fard* – yolg'iz, yakka.

⁵ *Xizr* – zulmat qa'ridan obi hayot – tiriklik suvini izlab topgan va undan ichib, abadiy hayotga noil bo'lgan payg'ambar. U odamlarni mushkul ahvoldan qutqaradigan, ularga to'g'ri yo'lni ko'rsatadigan xaloskor va oshiqlar homisi hisoblanadi. Bu yerda ma'shuqanining xati obi hayot chashmasi tegrasidagi maysaga tashbeh qilinmoqda.

⁶ *Da'b* – odat, rasm.

⁷ *Ozodilik* – ozodlik, yakka-yolg'izlik.

⁸ *Maosh* – hayot, tirikchilik.

⁹ *Zarbaft* – zardan to'qilgan mato, kimxob.

¹⁰ *Hifz* – saqlash, muhofaza qilish.

¹¹ *Moshob* – jundan to'qilgan kiyim.

* * *

Yaxshi so‘zga ne kengash?!

* * *

Dahr bog‘i ichra chun bir gulga yo‘q bo‘yi vafo,
Qilmag‘ay erdi havo ko‘nglum qushi ul gulga kosh.

* * *

Ish vafo qilmoq erur, gar qila olsangki emas,
Ey vafosiz, bu jahon ichra jafokorlig‘ ish.

* * *

Ishq aro qochma ko‘ngul xor-u zabunlug‘dinkim,
Oshiq o‘lg‘ang‘a zabunluq bo‘lur-u xorlig‘ ish.

* * *

Ey Navoiy, har ne olam ichra bo‘lg‘ay sahl¹ tut,
Lek matlubung tamannosida bo‘lg‘il saxtko‘sh².

* * *

Saxtko‘sh elga dema oxir falakdur saxtgir³,
Arzimas olamda hech ish xud bo‘lurg‘a saxtko‘sh.

* * *

Ko‘ngul alil⁴ esa forig‘ emas xavotirdin,
Jarohat uzra yig‘ilmoqdurur chibinga xos.

* * *

Mahrum bo‘lur har kishikim, bo‘lsa haris.

¹ *Sahl* – oson, yengil.

² *Saxtko‘sh* – qattiq harakat qiluvchi, tirishqoq.

³ *Saxtgir* – qattiq ishlovchi.

⁴ *Alil* – kasal, bemor, xasta.

* * *

Kirib vayrong'a bo'lmas kimsa to'fondin xalos.

* * *

Telba atfol¹ ichra bo'lmas sangborondin² xalos.

* * *

Manzil etsang bu rabot³ ichra iqomat⁴ qilmakim,
Har kun o'zga korvon oromgahidur bu rabot.

* * *

Ne to'sharsen taxti johing farshin⁵ oltun xisht ila –
Kim, seningdek shohni ko'p o'tkariptur bu bisot⁶.

* * *

Qo'yma ko'ngulni dahrning eski rabotig'a,
Soyirg'a⁷ chun mahalli iqomat emas rabot.

* * *

Asrading katton⁸ kafan qilmoq uchun, ne sudkim
Hashr⁹ bozorida beqiyatdurdur mundoq mato'.

* * *

Maskaning oxir chu tufrog'dur, ne o'tkarmakdurur
Madfaning¹⁰ ayvonig'a ko'k gunbazidin irtifo'¹¹.

¹ *Atfol* – yosh bolalar.

² *Sangboron* – toshbo'ron, tosh yog'dirish.

³ *Rabot* – karvonsaroy; majozan: dunyo.

⁴ *Iqomat* – yashash, istiqomat.

⁵ *Farsh* – to'shak, gilam, palos.

⁶ *Bisot* – bu yerda: joy, ya'ni dunyo.

⁷ *Soyir* – sayr qiluvchi, kezuvchi.

⁸ *Kat(t)on* – kanopdan to'qilgan mato, kiyimlik.

⁹ *Hashr* – qiyomat.

¹⁰ *Madfan* – go'r, qabr.

¹¹ *Irtifo* – ko'tarilish, yuksalish, balandlik.

* * *

Navoiy voqif o'l gardun arusidinki, qasdingga
Ochar gah shomdin gesu¹, kiyar gah subhdin
miqna².

* * *

Barq³ o'tig'a bo'lmadi yomg'ur suyi dofe⁴.

* * *

Bo'lur barcha ashyo aslig'a roje⁵.

* * *

El nasibi chu azal qismatida topti raqam,
Senki sa'y ortuq etarsen, nechuk o'lg'ay nofe⁶?

* * *

Topsa hirmon⁶ zulmati ichra, ne tong, hayvon suyin⁷,
Kimgakim bo'lsa hidoyat⁸ nuridin hamroh sham'.

* * *

Yig'ochqa kesmagidin bo'lg'ay samar mone'.

* * *

Mehrsizlikdin falak el qatlin aylar bedarig⁹,
Yo'qsa nevchun dafn etar har kun quyoshtin
yerga tig'.

¹ *Gesu* (*Gisu*) – soch, zulf, kokil.

² *Miqna* – xotinlar yuzini o'rab yuradigan parda; sarandoz.

³ *Barq* – chaqmoq, yashin, chaqin.

⁴ *Dofe* – qaytaruvchi, daf' qiluvchi.

⁵ *Roje* – qaytuvchi.

⁶ *Hirmon* – mahrumlik, benasiblik.

⁷ *Hayvon suyi* (*Obi hayvon*) – obi hayot, mangulik suvi.

⁸ *Hidoyat* – to'g'ri yo'l topish, to'g'ri yo'lga kirish.

⁹ *Bedarig* – ayovsiz, shafqatsiz.

Tig‘i zulmi zaxmidin har shom andoqkim shafaq
Qon-u tufrog‘ ichradur xurshidorazlar¹, darig‘.

* * *

Jismdin jonsiz ne hosil, ey musulmonlarkim, ul
Bir qora tufrog‘dekdurkim, gul-u rayhoni yo‘q.

Bir qora tufrog'kim, yo'qtur gul-u rayhon anga,
Ul qorong'u kechadekdurkim, mahi toboni yo'q.

* * *

Qo‘ydi bir o‘tlug‘ fatila² dog‘ uchun har g‘unchadin,
Charx to gulshanni ko‘rdi sabz-u³ xurram,
ey rafiq!

* * *

Ich dag'i tutqil Navoiyg'a qadahkim, arzimas
Bir nafas hushyor bo'lmog'lig'qa olam, ey rafiq!

* * *

O'z erki birla ne mumkin kishi o'z
ko'nglin oldurmoq.

* * *

Bo‘lmish mast-u oshiq shevasi⁴ bevahm-u
bok⁵ o‘lmoq.

¹ *Xurshidoraz* – quyosh yuzli, go'zal.

² *Fatila* – pilik, pilta.

³ *Sabz* – yashil; yashnagan.

⁴ Sheva – odat; hunar.

⁵ Bok – xavf, vahm, qo‘rquv.

* * *

Shomi g‘amdin ayru yo‘qtur subhi vasl.

* * *

Kimga bir majlisda ohu dard ila so‘ze¹ kerak,
Mundog‘ o‘t yoqmoqqa avval majlisafro‘ze² kerak.

* * *

Vafo aylab, vafo ko‘z tutma olam
dunlaridinkim³,

Vafosiz keldi olam dunlari ham olami dundek.

* * *

Vafog‘a garchi falak davri ojiz ersa, hanuz
Bu sheva ichra emas erkin ahli davrondek.

* * *

Ey falak, qaysi quyosh yuzlukni bir kun
charx uza

Jilvagar qildingki, oqshom yerga
pinhon qilmading??

* * *

Rizq chun maqsum erur, bir qurs uchun har
kun nedur

Charxdek sargashtalik ko‘yida novardim⁴ mening.

¹ So‘z – 1) olov, alanga; 2) kuydirish, o‘rtash.

² Majlisafro‘z – majlisga zeb beruvchi, bazmni qizituvchi.

³ Dun – pastkash, razil, yaramas.

⁴ Novard (Navard) – urush, jang, janjal.

Ne sud bo'lsa amal nomasi qora gar xud
Oting nishon uza Jamshid yo Qubod¹ etting.

Kular, ey bog'bon, har g'uncha go'yo -
Ki, g'ofildur xazondin gulsitoning.

Umr davrining baqosin bilmaganlar har taraf,
Suda yomg'ur nuqtasining davri pargorin² ko'rung.

Qafas qaydidadur bulbul, bukim vayrona
tutmish chug‘z,
Vafosi yo‘q ekanni bildi go‘yo ahli dunyoning.

Dahr bog‘ining gulida yo‘qturur bo‘yi vafo,
O‘zni, ey bulbul, agar parkand-parkand aylading.

Rostlar ma'mnidur³ dayr, tuz ur ul sari gom⁴,
Kimki ul egri qadam urdi, ishi kelmadi o'ng.

Jism uyi chunkim erur foni, tafovut yo'q ani
Gar fano selobidin⁵ vayron-u gar obod bil.

¹ Qubod – qadimiy Eron shohlaridan biri.

² *Pargor – sirkul.*

³ *Ma'man* – 1) tinchlik, omonlik yeri; 2) makon, vatan.

⁴ Gom – qadam, odim, oyoq.

⁵ *Selob - ko'z yoshi.*

* * *

Sabodin g‘unchaning hargiz bo‘lurmu
humrati¹ zoyil.

* * *

Fig‘oni o‘qidin bulbulning, ey gulbun², hazar
qilkim,
Tikan paykonig‘a gul javshani³ hargiz emas
hoyil⁴.

* * *

Ne mehr isi, ne vafo rangi topqung, ey bulbul,
Bu bog‘ gullariga berma zinhor ko‘ngul.

* * *

Xazon sipohig‘a, ey bog‘bon, emas mone’,
Bu bog‘ tomida gar ignadin tikan qilg‘il.

* * *

G‘ayrdin safhangni⁵ qilg‘il pok, ya’ni aylama
Xotiring lavhini⁶ har xat birla ma’yub⁷, ey ko‘ngul.

* * *

Kuch bila chiqmoq ne imkon resha⁸ berkitgan
nihol.

¹ *Humrat* – qizillik.

² *Gulbun* – gul, gul butasi.

³ *Javshan* – sovut.

⁴ *Hoyil* – g‘ov, to‘sinq, mone’lik qiluvchi.

⁵ *Safsha* – sahifa; bu yerda: ko‘ngil lavhi.

⁶ *Lavh* – bu yerda: yuz.

⁷ *Ma’yub* – aybli, nuqsonli.

⁸ *Resha* – ildiz, tomir.

* * *

Lu'bati¹ dahr fireb bila boziy² yemakim,
Bermadi kimsaga bu shohidi³ makkora ko'ngul.

* * *

Sarsabz⁴, erur hamisha bu gulshanda sarvdek,
Ozodayeki, bo'lsa mizojida e'tidol⁵.

* * *

Husn sotma shafaqing rangidin, ey zoli

sipehr⁶ —

Kim, ani qo‘ymag‘usi gardishi ayyom⁷ qizil.

* * *

Bir nasihat qilg'um, ey ishq ahli, aylang

istimo'8,

Solmangiz har sori ko'z, to bo'lmasun har

yon ko'ngul.

* * *

Qo'y dur-u feruza bahsinkim, nujumu charxni⁹,
Nilufar bargi uza shabnamcha ko'rmas himmatim.

¹ *Lu'bat - o'yinchoq, qo'g'irchoq.*

² *Bozi* (*y*) – o‘yin, firib, hiyla.

³ *Shohid* – bu yerda: go'zal, mahbuba.

⁴ *Sarsabz* – ko‘kargan, yashnagan.

⁵ *E'tidol* – bu yerda: kelishgan, mo'tadil, o'rtachalik.

⁶ Zoli sipehr – keksa falak.

⁷ Gardishi qyvom – zamona o‘tishi, kunlar o‘tishi.

⁸ *Istimo* - eshitish, tinglash.

⁹ *Nijumu charx* – osmon yıldızları.

* * *

Gar malak tasbehi dona, hur zulfi dom erur –
Kim, bu dom-u donag‘a ziyrak qush ersang,
bo‘lma rom.

* * *

May o‘ti birla dimog‘ingni qizitmakim, bu o‘t
El dimog‘ida pishirmaydur bajuz¹ savdoi xom.

* * *

Nilufar naqsh aylab ayvoningg‘a mag‘rur
o‘lmag‘il,
Yo‘q vafo naqshi chu bu nilufariy ayvong‘a ham.

* * *

Chiqmayin bu dayrdin mumkin emas bo‘lmoq xalos
Har kecha yuz ming buti siyminbadan yag‘mosidin.

* * *

Ey Navoiy, dahr bog‘idin qutulmoq istakim,
Bulbul uchqan yaxshiroq zog‘-u zag‘an² ma‘vosidin.

* * *

Birovkim, dahr bog‘ining firebin bildi, nargisdek
Qadahdin bosh ko‘tarmay surdi ishrat birla
davronin.

* * *

Yuzung ko‘p ochma, gohe so‘z degilkim,
aql dehqoni
Ne gul isrofini yaxshi demish, ne g‘uncha
imsokin³.

¹ *Bajuz* – ...dan boshqa, ...dan tashqari.

² *Zog‘-u zag‘an* – qarg‘a-yu quzg‘un.

³ *Imsok* – 1) saqlash, parhez; 2) qo‘ldan chiqarmaslik, baxillik.

* * *

Ishq komil bo'lsa, mehnat o'qlaridin bok emas,
Ne zarar bulbulg'akim, bo'lg'ay tikandin oshyon.

* * *

Sham'ni parvona kuydurmakdin, ey gul, qilma ayb,
Bulbul ermasturmu kul, yo sen emassen otashin.

* * *

Baloni ko'z ketirur jong'a yo ko'ngul.

* * *

Olam ahli, ishq aro rasvolig'im ta'n etmangiz,
Kimdurur oshiq bo'lub, rasvoyi olam bo'lmag'an?

* * *

Har xazon bargi erur zoreki dahr ozoridin.

* * *

Kim kafanni yod etar, andin o'luk ogohroq.

* * *

Har nechuk dog' o'lsa o'lsun, dog'i hijron bo'lmusun.

* * *

Voqif o'l, ey bog'bonkim, har taraf gul

shaklidin

Sendek elning qabridurkim, zohir etmish

bu chaman.

* * *

Tojir¹ tengiz² ranjin chekar savdo uchun.

¹ Tojir – savdogar.

² Tengiz – dengiz.

* * *

Har ne yozmish ollingga kilki qazo¹ ko‘rmak
kerak,
Ey Navoiy, qochmoq o‘lmas Tengrining taqdiridin.

* * *

Azal naqqoshi² tarh aylarda gul bargi namudorin³,
Magar pargor qildi bulbuli sargashta minqorin⁴.

* * *

Bo‘lmas sham’siz parvona-vu gul birladur bulbul.

* * *

Ev⁵ shikast topar har qachonki, sindi sutun.

* * *

Jahon zabunung erur, bo‘lmasang jahonga zabun.

* * *

Dahr bog‘ida gul-u bulbulg‘a yo‘q barg-u navo,
Solmadi bu g‘ussadin nargis iligdin sog‘arin.

* * *

Vafo ahlig‘a davrondin yetar javr-u jafo asru,
Jafosidin aning ozurdadur ahli vafo asru.

¹ *Kilki qazo* – taqdir qalami.

² *Azal naqqoshi* – Xudo.

³ *Namudor* – zohir, namoyon.

⁴ *Minqor* – tumshuq.

⁵ *Ev* – uy, xona.

Bukim, ahli vafo noyob erurlar andin erkinkim,
Bu eski toq alarg'a yog'durur gardi balo asru.

* * *

Tabiat chohidin ruhungni qutqarkim, xush ermastur
Qafas qaydi aro bulbulg'a bo'lmoq mubtalo asru.

* * *

Kim ko'rgan bor chug'zni vayronadin ayru.

* * *

Ey Navoiy, xush erur xilvat, agar bo'lsa kishi Dilbari birla ikov, bo'lmasa lek anda birov.

* * *

Otashin gul garchi ziynatdur jahon bo'stonig'a,
Barq erur har el uchurg'an bargi bulbul jonig'a.

* * *

Garchi sham' o'ldi shabiston¹ zebi, ko'rkim,
shu'ladin
Til chiqarmishtur susab parvonalarining qonig'a.

* * *

Demishturlarki, qozg'on do'st moling borida!

* * *

Zulm ahli xalq qoni uchun til uzatmog'i
Bor, o'ylakim, sibo² ichar suni til bila.

¹ *Shabiston* – tungi yotoq, yotoqxona.

² *Sibo'* – yirtqich hayvonlar.

* * *

Barg evurmay¹ lavn², gul so‘lmay, to‘kar ermish
 xazon,
 Bog‘lama ko‘nglungni, ey bulbul, jahon
 gulzorig‘a.

* * *

Ko‘kardi chun ekin, gum³ bo‘ldi dona.

* * *

Ey Navoiy, qildilar dunyoni rad ahli qabul,
 Gar desang maqbul o‘lay, yor o‘lma bu mardud⁴ ila.

* * *

Hojatingni elga arz etmakka hojat bo‘lmasun.

* * *

Ushatsa shishani butmas yana payvand ila.

* * *

Ko‘hi⁵ dard-u teshai hijronni so‘r Farhoddin,
 Anglamas Xusravki, Shirin birladur doim bila.

* * *

Bemahal gulbong ila yolqitma⁶, bulbul, elnikim,
 Dahr bog‘i gullari xushtur, vale chog‘i bila.

¹ *Evurish* – o‘girish, burish; aylantirish.

² *Lavn* – rang, bo‘yoq, naqsh.

³ *Gum* – yo‘qolish, yo‘qotish.

⁴ *Mardud* – rad qilingan, haydalgan, nomaqbul.

⁵ *Ko‘h* – tog‘.

⁶ *Yolqitma* – bezor qilmoq.

* * *

Qalam¹ yozg'an balodin muhtariz² bo'lg'on, zihi³
nodon,
Muqarrar bo'lmag'an ro'zi talab qilg'on, zihi
ablah.

* * *

Zamona ahlidin ko'z tutmasun mehr-u vafo
podosh⁴,
Kishi yuz yil alarg'a gar vafo aylab, jafo cheksa.

* * *

Ishq aro, eykim, deding, har lahza faryod
etma, voy,
O't tutashqan chog' bo'lurmu kimsa faryod etmasa?!

* * *

Vujudi zarraning mumkin emas to sobit o'lmas
mehr,
Ne hojat zarra xaylidin quyosh zotig'a isbote.

* * *

Erur gul bargidin bulbul evining ziynati.

* * *

Gulzor dahr sho'badasin⁵ go'yo anglamish,
Ichinda za'farondin⁶ emas g'uncha kulgusi.

¹ *Qalam* – 1) aqli avval; 2) mufassal ilm.

² *Muhtariz* – bu yerda: e'tiroz qiluvchi.

³ *Zihi* – 1) go'zal, yoqimli, ko'ngilga matlub; 2) yaxshi, qanday yaxshi, ofarin.

⁴ *Podosh* – javob.

⁵ *Sho'bada* – o'yin, nayrang.

⁶ *Za'faron* – sarg'ish tus beruvchi xushbo'y o'simlik; majozan: sariq rang.

* * *

Tilar yuz laxt¹ qon etkay nasibin dahr dehqoni
Qayu bulbulnikim, gul xoni uzra mehmon etkay.

* * *

Yuz g‘arib ahvol bekaslikda har dam bor emish.

* * *

Yaxshiroq bedorlig‘idin bo‘yla² g‘ammox³ uyqusi.

* * *

Shukufa⁴ siym chiqarg‘ach bu gulshan ichra xazon
Havog‘a bargini sochmoq bila sitam qildi.

* * *

Qaydakim la’l⁵ o‘lsa, atrofida bo‘lur xorasi⁶.

* * *

Sovurub tifli xazon tufrog‘ ila teng qilmag‘an
Qaysi bir gulasta bu bog‘ ichra dehqon bog‘ladi?

* * *

Har gul ushbu bog‘ aro ko‘rsang tikan osebidin⁷,
G‘arqai xunob o‘lub, yuz chok erur pirohani⁸.

¹ *Laxt* – bo‘lak, parcha.

² *Bo‘yla* – bunday, bu xil, bunaqa.

³ *G‘ammox* – chaqimchi.

⁴ *Shukufa* – gul, chechak, g‘uncha.

⁵ *La’l* – qizil rangli yaltiroq qimmatbaho tosh.

⁶ *Xora (Xoro)* – tosh, qattiq tosh.

⁷ *Osib* – ziyon, zarar, kulfat.

⁸ *Pirohan* – ko‘ylak.

* * *

Chog‘irni¹ oqil esang la’l deb qizitma dimog‘ –
Ki, o’tni islamadi gul debon xiradmande².

* * *

Pashsha qaydig‘a yo‘q ehtiyoji zanjire.

* * *

Chun ne taqdir o‘lsa, tag‘yir o‘lmas ermiss
sa’y ila.

* * *

Navarusi³ dahr aqdin istama, ko‘pkim arus
Oxiri ifrit⁴ o‘lur, garchi paridur avvali.

* * *

Xotirni jam’ istar esang avval xavotir daf’in et,
Kimda xavotir bo‘lmasa, osudaxotir bo‘lg‘usi.

* * *

Sarvu gul maftuni bo‘lmakim, nigor-u zeb uchun,
Sindurub har dam uzar ani falak makkorasi.

* * *

Ishqkim, har bir ishida yozdi yuz ming
turfa xalq,
Turfaroq budurki, yuz mingdin biri yozilmadi.

¹ Chog‘ir – may, sharob, mast qiluvchi ichimlik.

² Xiradmand – oqil, donishmand.

³ Navarus – yangi kelin.

⁴ Ifrit – dev, shayton.

* * *

Kom topmas kimsa qilmay tark xob-u xo'rdini¹.

* * *

Jahon tarkini qilmay, chunki tinmoq mumkin
ermastur.

* * *

Chu moziy² o'tti-yu mustaqbal³ o'rtada ermas,
Sengaki hol emas mug'tanam⁴ ne hol o'lg'ay?

* * *

Bu damni, orif esang yaxshi tutki, johil ishi –
Yetishmagangavu o'tganga qiylyu qol⁵ o'lg'ay.

* * *

Jahon makkorasi sho'xedurur, bas delfirib⁶
oxir,
Ne erkim, boshidin kechgay aning mardonae
bo'lg'ay.

* * *

Bulutlug⁷ kechaning albatta bo'lmas shabnami.

* * *

Dahr bo'stoni aro sarkash nihole ko'rmaduk,
Soya yanglig⁸ bo'lmag'an yer birla yakson oqibat.

¹ *Xob-u xo 'rd* – uyqu va yeb-ichish.

² *Moziy* – o'tmish.

³ *Mustaqbal* – kelajak.

⁴ *Mug'tanam* – g'animat.

⁵ *Qiylyu qol (Qil-u qol)* – so'zlash, gap-so'z, mubohasa.

⁶ *Delfirib* – ko'ngilni aldovchi, yo'ldan ozdiruvchi.

* * *

Hech kim mulki baqo sultoni bo‘lg‘onmu ekin?!

* * *

Ko‘ngul durji¹ ichra guhar so‘zdurur,
Bashar gulshanida samar so‘zdurur.

Erur so‘z falak jismining joni ham,
Bu zulumotning obi hayvoni ham.

Agar jon emas, bas nedurkim, Masih
O‘luk turguzur, deb kalomi fasih?²

Agar obi hayvon emas, bas nechuk,
Topar jon zulolidin³ aning o‘luk.

* * *

Javohir necha xubu dilkashdurur,
Vale nazm silki⁴ aro xushdurur.

* * *

So‘z ichraki, yolg‘on erur napisand,
Chu nazm ettilar, qildi dono pisand.

* * *

Kunji qanoat archi erur saltanat, valek
Eldin tama’ni uzgali mardonaliq kerak...

¹ Durj – sadaf, qimmatbaho toshlar saqlanadigan quticha.

² Fasih – chiroyli va ravshan gapiruvchi, so‘z ustasi.

³ Zulol – 1) tiniq, toza, shirin suv; 2) sharob.

⁴ Silk – 1) ip, tizim; 2) saf, qator.

Lazzoti nafs tarki samari ofiyat¹ berur,
Lek ul shajarni ekkali farzonaliq kerak.

* * *

Biravkim, bo‘lur bir ayoq² osh uchun qul,
Yuziga keraktur qazonning qarosi.

* * *

Kimki maxluq³ xizmatig‘a kamar –
Chust etar⁴, yaxshiroq ushalsa beli.

Qo‘l qovushtirg‘uncha bu avlodur –
Ki, aning chiqsa egni, sinsa eli.

Chun xushomad demakni boshlasa kosh –
Kim, tutulsa dami, kesilsa tili.

* * *

Agarchi fannida⁵ sohibkamol erur sayyod⁶,
Qachon balig‘ tuta olg‘ay suv mavji domi bila.

* * *

Quloqda asra garonmoya⁷ so‘zni-yu fikr et –
Ki, dursiz o‘lsa, ne bo‘lg‘usidur sadaf holi?

So‘zungni dag‘i ko‘ngul ichra asrag‘ilkim, hayf –
Kim, uyla durjni guhardin etkasen xoli.

¹ *Ofiyat* – sog‘lik, tinchlik.

² *Ayoq (Ayog ‘)* – kosa, qadah.

³ *Maxluq* – yaratilgan, odam, inson.

⁴ *Chust etmoq* – bog‘lamoq.

⁵ *Fan* – ilm, hunar, san’at.

⁶ *Sayyod* – ovchi.

⁷ *Garonmoya* – qimmatbaho.

Bu durju ikki sadafni to‘la dur etkanga,
Zihi uluvvi¹ guhar, balki gavhari oliv.

* * *

Yuziga asli yomonning ko‘p ochma gulshani xulq,
Siyahgilemga² albatta mehr aylama fosh –

Ki, qilmadi gul isi birla toza ruh jual³,
Quyosh charog‘ig‘a parvona bo‘lmadi xuffosh.

* * *

Chu dushman o‘ldi qadimiy, ziyonidin hazar et,
Agarchi nutqi ravonbaxshi jong‘a rohat erur.

Su birla o‘t aro ziddiyat o‘ldi chun azaliy,
Agar hayot suyidurki, o‘tqa ofat erur.

* * *

Viqor gavhari-yu hilm⁴ ma’dani⁵ bo‘lako‘r,
Desangki, qilg‘ay itoat sanga gado bila shoh.

Bu sheva tog‘da zohirdururki, davrondin
Qachonki tafriqa⁶ yetti, ulusqa⁷ bo‘ldi panoh.

* * *

Rostlar ko‘nglini aylar tiyra⁸ nodon yovadin⁹,
Sham’ni ul nav’kim, johil o‘churgay dam bila.

¹ *Ulув* (*v*) – balandlik, yuqorilik; oliv.

² *Siyahgilem* – badbaxt.

³ *Jual* – qoraqo‘ng‘iz.

⁴ *Hilm* – muloyimlik, yumshoqlik.

⁵ *Ma’dan* – kon, manba.

⁶ *Tafriqa* – bo‘lish, ayirish, o‘rtaga nizo solish.

⁷ *Ulus* – el, xalq, omma.

⁸ *Tiyra* – 1) qora, qorong‘i, xira, nursiz; 2) qayg‘uli, g‘am-g‘ussali.

⁹ *Yova* – yolg‘on, behuda so‘z.

* * *

Navoiy, tiling asrag‘il zinhor,
Desangkim, yemay dahr ishidin fusus¹.

Nazar qilki, o‘q og‘zi tilisiz uchun,
Qilur tojvarlar² bila dastbo‘s³.

Necha tojvardur, kesarlar boshin,
Chu hangomsiz⁴ nag‘ma tortar xurus⁵.

* * *

Ko‘mirni o‘tqa solib, la‘li otashin etsang,
Natija bo‘lg‘ay anga qayda tushsa kuydurmak.

* * *

Debon bergen kishi erdur valekin
Demay berganga erlik bil musallam.
Ne deb, ne bersa bilgil ani xotun,
Debon bermasni xotundin dag‘i kam.

* * *

Qarilar xotiri nozukdur, ey tifl,
Shikastidin qilib vahm, o‘lma gustox:
Unuttungmuki, atfol o‘ynag‘anda,
Sinar oz mayl ko‘rgandin quruq shox.

¹ *Fusus* – bu yerda: afsus.

² *Tojvar* – tojdar, toj kiygan.

³ *Dastbo‘s* – qo‘l o‘pish.

⁴ *Hangom* – payt, fursat, vaqt.

⁵ *Xurus (Xuro‘s)* – xo‘roz.

* * *

Ne ro‘za bo‘lg‘ay angakim, ochuq bo‘lub og‘zi,
Dame kam o‘lmaq‘ay andin kalom-u harzakalom¹.

* * *

Lekin gar inju sochsa kishi dona o‘rnig‘a,
Tovusni qachon qilur o‘rgamchi² domi sayd.

* * *

Hikmat ahli ollida sovuq sifat yo‘q kimsada
Subhi kozibdek³ mahalsiz aylagon kulgu kibi.

Lek mundin ko‘p sovuqdir ashk to‘kmak zo‘r ila
Day⁴ yelida qatra-qatra muz tomizg‘an su kibi.

* * *

Qanoat go‘shasin tutqilki, chun anqo⁵ bu
da‘b etti,
Anga qushlar ichinda qurb⁶ Qofida⁷
nishimandur⁸.

Chu parvoriy⁹ tovug‘ning og‘zi tinmas
tu‘madin¹⁰ garchi,
O‘lar oxir anga avval katak zindoni maskandur.

¹ *Harzakalom* – behuda so‘z.

² *O‘rgamchi* – o‘rgimchak.

³ *Subhi kozib* – yolg‘onchi tong.

⁴ *Day* – qish.

⁵ *Anqo* – Qof tog‘ida yashaydigan afsonaviy qushning nomi;
majozan: topilmas, nodir, yagona.

⁶ *Qurb* – yaqinlik.

⁷ *Qof* – ajdodlar tasavvuriga ko‘ra butun dunyoni o‘rab olgan
tog‘.

⁸ *Nishiman* – in, uya, oshiyon.

⁹ *Parvoriy* – boqilgan, xonaki.

¹⁰ *Tu‘ma* (*To‘ma*) – oziq, luqma, ovqat.

— TAFAKKUR TU'HEALARI —

* * *

Bo'lmas kishi farzandi kishiga farzand.

* * *

Erur el tilagan yerda aziz.

* * *

Davron elining jismida ham jon bo'lg'il,
Ham jonlarig'a moyai¹ darmon bo'lg'il.

* * *

Johilki, hasad bo'lg'ay aning jahlig'a zam²,
Nur el ko'zidin anglasa o'z ko'zida kam,
Ko'zlarni olishmoqqa chekib tig'i sitam,
El ko'zini ham o'yg'a-yu o'z ko'zini ham.

* * *

Gar qilsa kishi qilib gunohe tavba,
Ul jurmg'a bo'lsa uzrxohi³ tavba,
Qilmoq necha goh jurmu gohi tavba,
Bu jurm ila tavbadin, ilohi, tavba.

* * *

Istasang dushmaning o'lg'ay sanga do'st,
Kirmgil do'st bila dushman aro.

* * *

Faqr ila shod o'lki, har kim bo'lsa ahli
ma'rifat,
Dahr tufrog' birla teng bo'lmoq ne imkon
ollida?!

¹ *Moya* – 1) asl, mohiyat, asos; 2) sabab, bois.

² *Zam* – qo'shish, jamlash.

³ *Uzrxoh* – uzr so'rovchi, afv tilovchi.

* * *

Nechaki bo'lsa yigitlikda sho'xliq matlub,
Vale adab bila xushtur hayo yigitlarga.

* * *

Ishq aro ko'rduk nihoyatsiz baliyat¹, ey ko'ngul,
Hajrdin dushvor² lekin ko'rmamish erduk balo.

* * *

Kimga umr etti vafokim, ul mango qilg'ay vafo?!

* * *

Dahr bog'i aro ko'p istamagil aysh-u tarab³ –
Kim, guli shu'lai g'am, g'unchasi dur xori⁴ taab⁵.

* * *

Bu chamanda su masalliq⁶ pokro'ni⁷ charxdin
Ko'rmadikkim, ko'ngli sinmay qoldi andoqkim
hubob⁸.

* * *

Ey ko'ngul, hur-u pari vasfin eshittim, go'yiyo
Hech qaysi odamiyliq'da emas insoncha xub.

* * *

Bo'lmasa tolib sanga matlub, sud etmas talab.

¹ *Baliyyat* – balo, ranj, azob.

² *Dushvor* – qiyin, mushkul, og'ir.

³ *Tarab* – shodlik, xursandlik, aysh, ishrat.

⁴ *Xor* – tikan.

⁵ *Taab* – qiyinchilik, mashaqqat.

⁶ *Masalliq (k)* – o'xshash, kabi.

⁷ *Pokro'* – pokiza yuzli, to'g'ri, halol.

⁸ *Hubob* – ko'pik, pufak.

* * *

Chun raqibimg‘a raqib erdi habib¹, erdim tirik,
Naylay o‘lmaykim, habibimg‘a habib o‘lmish
raqib.

* * *

Ey Navoiy, umr o‘tar yeldek, o‘zungni shod tut,
Elga yetmak mumkin ermastur chu sur’at ko‘rguzub.

* * *

Mayli dunyoki, solur kimsani tinmaslikka,
Tinibon ko‘ngli aning kimki, ko‘nguldin
chiqarib.

* * *

Qutulg‘aymu o‘lumdin umrig‘a el e’timod² aylab?

* * *

Qo‘yg‘il o‘zlukni³ gar odam esang, inak⁴ shayton
Kibr ila nayladi ko‘r, oncha ibodot aylab.

* * *

Ganj ummidi bila tufroqqa el kirdi base,
Umr zoye’ qilibon fikri maholot⁵ aylab.

* * *

Chekma ko‘p ranj, Navoiyki, kishi topmaydur,
O‘zidin xalqni xushnud muroot⁶ aylab.

¹ *Habib* – 1) do‘st; 2) mahbuba.

² *E’timod* – ishonch, suyanch, tayanch.

³ *O‘zluk* (*O’zlik*) – insonning nafs va dunyo bilan bog‘liqligi. Ular har lahma kishiga o‘zligini eslatib, uni Xudo yo‘lidan chalg‘itadi.

⁴ *Inak* – bu yerda: endi.

⁵ *Maholot* – mahol ishlari.

⁶ *Muroot* – lutf-u marhamat, hurmat-ehtirom.

* * *

Navoiy, desangkim zamone tinay,
Zamon ahlidin aylagil ijtinob¹.

* * *

Jahonni bir kesak angla, havosi – gardi balo,
Bu garddin qutulub har kishi ani yiroqib.

* * *

Ishqning shiddati ko‘p, husnning ar iffati ko‘p.

* * *

Ey Navoiy, chu o'tar yaxshi-yomon, g'am yemadik, Ulki davronda erur ishrati – kam, mehnati – ko'p.

* * *

Kimsani qo'ymas hamisha chun bu dahri
dun yigit.

* * *

Chun qariding, chiq yigitlar bazmidinkim,
qarining
Kelmagidin yo‘q, boruridindurur mammun yigit.

* * *

Shom tufroqqa kirardin chora yo'qtur,
garchi subh
Kimki sekritkay quyoshdek bu biyik² ayvong'a ot.

¹ *Ijtinob* – uzoqlashish, chetlashish.

² *Biyik* – yuksak, baland.

* * *

Charxning mehriga mag‘rur o‘lmasaga ilkim,
g‘adri¹ bor,
Hargiz o‘lmas kimsaga ul dushmani g‘addor do‘st.

* * *

Chiqarg‘a bu vayronadin chora yo‘qtur,
Gar Odam² vagar Nuh-u gar Som-u³ Yofas⁴.

* * *

Jahon shug‘li⁵ sari talab qilma mujib⁶,
Aning tarkini tutqali ista bois.

* * *

Muhlik⁷ marazg‘a qilmadi el pand ila iloj.

* * *

Ko‘nglunga yetmas riyozatsiz⁸ safo⁹.

¹ *G‘adr* – makr, hiyla, aldov.

² *Odam* – Odam alayhissalom.

³ *Som* – Zolning otasi, Rustamning bobosi. «Shohnoma» qahramonlaridan biri.

⁴ *Yofas* – Nuh payg‘ambarning o‘g‘li – Abutturk nomi bilan mashhur bo‘lgan.

⁵ *Shug‘l* – ish, mashg‘ullik.

⁶ *Mujib* – sabab, bois.

⁷ *Muhlik* – o‘ldiruvchi, halok qiluvchi.

⁸ *Riyozat* – tariqatga kirgan solikning kamolot kasb etish va Haqqa yetish yo‘lida chekadigan mashaqqatlari, ranj-u iztiroblari.

⁹ *Safo* – riyozat chekish natijasida dilning nafs xohishlari, yomon illatlar, g‘addor dunyo va Xudo yodidan bo‘lak narsalardan qutulib, poklanishi.

* * *

Bu chamankim, to‘kilur shom gul, ochilsa saboh.

* * *

Zarrag‘a yuz ming quyosh mohiyatin bilmak ne had?!

* * *

Mo‘r qatlin ajdahokushlar¹ qachon aylar pisand?!

* * *

Bulutqa dud yetmas nechakim chiqsun baland.

* * *

Bulbulni g‘aming qo‘zg‘asa shod o‘limg‘il, ey gul –
Kim, o‘t ham o‘char, kulni falak aylasa barbod.

* * *

Yo‘q ajab, har kimgakim yetgach kushode²
bo‘lsa shod.

* * *

Yordin gar istasangkim, ko‘rmagaysen g‘ayri vasl,
G‘ayr vaslin mutlaqo yod aylamakni qilma yod.

* * *

Chun azalda sarnavisht³ o‘lg‘anni ko‘rmay
chora yo‘q,
Har zamon aylab shikoyat qilma dahri dunni yod.

¹ *Ajdahokush* – ajdahoni o‘ldiruvchi, pahlavon.

² *Kushod* – 1) ochiq, yechilish; 2) omad, muvaffaqiyat;
3) imkoniyat, osonlik.

³ *Sarnavisht* – peshonaga yozilgan, taqdir.

* * *

Taxayyul¹ birla qilg'an ishga hojat yo'q madad.

* * *

Ishq lol etgan kishida qaysi hush-u ne xirad?!

* * *

Elga ilm kasbidin bo'lur afzun xirad².

* * *

Ey xiradmand, anglamassen holatin ushshoqning³,
Ne uchunkim ishq tavrida erur majnun xirad.

* * *

Shirin hadisdin⁴ yetar insong'a iltizoz⁵.

* * *

Quyoshni ko'rmasa xuffosh bordurur ma'zur.

* * *

Jahon ichra hamdard kam bo'lsa tong yo'q –
Ki, bedard ko'p, lek dard ahli kamdur.

* * *

O't o'char, lekin asar yong'an makon ichra qolur.

* * *

Gar zabun bo'lsam ajab ermaski, tushsa ishq aro,
Ajdaholar xoksor o'lmoq tariqin o'rganur.

¹ *Taxayyul* – o'y, xayol, tasavvur.

² *Xirad* – aql, idrok, hush.

³ *Ushshoq* – oshiqlar.

⁴ *Hadis* – bu yerda: so'z, kalom.

⁵ *Iltizoz* – lazzat, lazzatlanish.

* * *

Iqomat istama bu manzil ichrakim, har kun
Musofir anda nechakim kelur, yuz oncha borur.

* * *

Ne kelsa ollinga ko'p qilma daf'ig'a ko'shish! –
Ki, jidd-u jahd ila tag'yir topmadı taqdir.

* * *

Azal qismatin el komi bila qilmadilar.

* * *

Bir nafas umrg'a bo'lma mutaahhid² bo'lmoq,
Ey Navoiy, ne balo g'ofil erur ahli g'urur.

* * *

Ne tong ketursa manga ishq har dam

o'zgacha hol -

Ki, shu'la vaz'i aro dam-badam erur tag'yir.

* * *

Navbahori husndin topma fireb, ey sho'xkim,
Charx davri navbahor o'tmay xazonin yetkurur.

* * *

Shararlar shu'laning farzandidur.

* * *

Charx mehr-u kinasidin ne aziz o'1, ne zalil³,
Nechakim gohi seni izlol-u⁴ gah e'zoz etar.

¹ Ko 'shish - sa'y-harakat, jidd-u jahd.

² Mutaahhid – va'da beruvchi, biror ishni o'z zimmasiga oluvchi.

³ Zalil – xor, tuban, past.

⁴ *Izlol* – xorlash, tahqirlash.

* * *

Ishqning savdosi jonimg'a ziyondir, demakim,
Har kishi mundoq ziyon ishq ichra qilsa sudidur.

* * *

Bu gulshanda, ey dehqon, necha ozmun¹ ettim,
Vafo naxli ekkanga bajuz g'ussa bar² yo'qtur.

* * *

Da'voyi himmat qilib, ulkim tilar olamda joh,
Qilmoq oluda najosatqa o'zin himmatmudur?

* * *

Derlar: talx daryoda chuchuk su ham bo'lur.

* * *

Ajdaho gar bo'lsa vayron ichra, maxzan³
ham bo'lur.

* * *

Dardi yo'qlar dard ahlig'a qachon mahram bo'lur?!

* * *

Dud ravzandin⁴ kirar uyning binosi nam bo'lur?!

* * *

Quyunni kimsa anglarmuki, qay sori shitob
aylar?

¹ *Ozmun* – sinash, imtihon.

² *Bar* – meva, hosil, samar.

³ *Maxzan* – xazina, ganj.

⁴ *Ravzan* – tuyruk, darcha, teshik.

* * *

Qachon zarrot¹ xayli man'i nuri oftob aylar?!

* * *

Tog' kibi tort qanoat etagi ichra ayog',
Davri falakdin senga bir qurs agar shom yetar.

* * *

Xizr umri-yu Skandar² mulki topqan yorsiz,
Obi hayvon ichsa, zahri begumondurkim, ichar.

* * *

Kim mayi vasl ichtikim, hijron xumorin
chekmadi?!
Xorsiz gul dahr bog'i ichra ne imkon erur?!

* * *

Kimki oning bir malaksiymo parivash yori bor,
Odamiy ersa, pari birla malakdin ori bor.

* * *

Kecha ulkim chirmanur bir gul bila, ne tong,
agar
G'unchadek har subh o'lub xandon nashot³
izhori bor.

¹ Zarrot – zarralar.

² Skandar – Iskandar. Vazn talabi bilan shunday yozilgan.

³ Nashot (Nishot) – shodlik, xursandchilik.

* * *

Bahor ayyomini besh kun g‘animat angla,
ey bulbul –
Kim, muncha so‘z-u tobining¹ otashin gul
mijmaridindur.

* * *

Dahrning begonavash zolig‘a bo‘lma oshno –
Kim, seni to oshno etti, o‘zi begonadur.

* * *

Hiyla ojizlig‘din aylar oshiq, angla,
ey ko‘ngul –
Kim, zabunroq ishq aro Farhoddin Parvez²
erur.

* * *

Gar salomat istasang, nekim yetar taslim bo‘l –
Kim, sitez ahlig‘a³ davrondin yetar ko‘proq sitez.

* * *

Ey Navoiy, chun zaruratdur bu maskandin
rahil⁴,
Xoh tutqil go‘shaye, xohi jahon mulkini kez.

* * *

Erur mazlum-u zolim qatli ishq ollida ko‘p oson,
Agar Farhod o‘ldi, qatl topmay qoldim-u Parvez?!

¹ So ‘z-u tob – yonish-o‘rtanish va harorat-u isitma.

² Xisravi Parvez (Xisrav II) – sosoniyalar sulolasiga hukmdori (vafot – 628).

³ Sitez ahli – xusumatchilar, dushmanlar.

⁴ Rahil – ketish, o‘lish.

* * *

Harif¹ bo‘lmasa, zinhor mayg‘a sunma ilik –
Ki, zahrdur, kishikim bodani ichar yolg‘uz.

* * *

Yuz tuman² dardg‘a davodur vasl.

* * *

Bu ko‘hna dayr ichra desang, ranja³ bo‘lmayin,
Bo‘lg‘il rizo maqomida-vu qilmag‘il sitez.

* * *

Ishq daryosig‘a, eykim, kirding,
Bilki, bu bahr erur poyonsiz.

* * *

Jud⁴ emas ko‘p bazl⁵ uchun ko‘p mol qilmog‘lig‘
havas,
Kim berur ko‘ptin ko‘p, ozdin oz, ani bil
judu bas.

* * *

Ey Navoiy, ishq sirrin kim havas qilsa,
dema –
Kim, eshitmakka bu so‘z loyiq emas har bulhavas⁶.

¹ *Harif* – o‘rtoq, ulfat, sherik.

² *Tuman* – o‘n ming; ko‘p, behisob.

³ *Ranja* – ranjigan, qiynalgan.

⁴ *Jud* – saxiylik, in’om, ehson.

⁵ *Bazl* – 1) sarf, xarj; 2) in’om, ehson.

⁶ *Bulhavas* – beqaror, yengiltak.

* * *

Daqoyiq¹ ishq ilmi ichra ko‘ptur
Ki, tafhimida² ojizdur mudarris.

* * *

Yor uldurkim, tili-yu ko‘ngli aning bo‘lsa bir –
Kim, tili o‘zga-yu ko‘ngli o‘zga, ul yor emas.

* * *

Kimki ko‘nglin istamas g‘amgin, tilini asradik –
Kim, tilin tiyg‘an kishining ko‘nglida ozor emas.

* * *

Ajdahodin tong emastur mo‘rg‘a bo‘lmoq haros³.

* * *

Yordin har necha bedod o‘lsa aylarmen qabul,
Lek bo‘lsa g‘ayr birla multafit⁴ maqbul emas.

* * *

Ey Navoiy, ishq atvorida budur zulmkim,
Gul maqomi bog‘ o‘lub, bulbul yeri bo‘lg‘ay qafas.

* * *

Dard aro o‘lsang, davo ahli zamondin istama –
Kim, topilmas dahr aro bechoralarg‘a choraras⁵.

¹ *Daqoyiq* – 1) chuqr va nozik ma’nolar; 2) chigalliliklar, mushkulliklar.

² *Tafhim* – anglatish, tushuntirish.

³ *Haros* – qo‘rquv.

⁴ *Multafit* – iltifot qiluvchi, e’tibor beruvchi.

⁵ *Choraras* – chora topuvchi, iloj qiluvchi.

* * *

Erur bir nukta ishq-u olam ichra,
Deb o'lmas hargiz andin mojaro bas.

* * *

Ishq bozorida savdo ahlig‘a juz naqdi vasl,
Har nafas bir ganj agar uchrar ziyondur,

sud emas.

* * *

Dahrin mehr-u vafo qilma havas,
Elidin g‘ayri jafo qilma havas.

* * *

Ne yersen dahr zolining firebin,
Vafo chun elga ul makkora qilmas.

* * *

Xasni qavmoqqa nasime bas, emas hojat urush.

* * *

Ranja bo'lma tilab ortuqliki, erur osuda,
Ulki, Haq har ne nasib ayladi, xursand o'lmish.

* * *

Bo'lma kun qursin tilab aflokdek¹ sargashtakim,
Bir fatiri xom ila oson o'tar har kun maosh.

* * *

¹ Aflok – falaklar.

² *G'arra - g'urur, mag'rurlik.*

Birovkim soldi ko'z, uzmak ko'ngul dushvor emish.

* * *

Gul chog'i bog'ingg'akim yo'l bermading, ey
Chinmudur day bo'lg'ali, derlar, safosi qolmamish?
bog'bon,

* * *

Visol istar esang qochma baliyatdinki, ko'rguzmisht Niyoz ahli vafo, har necha noz ahli jafo qilmish.

* * *

Kulgu boisidur qilsa fil o'zin raqqos.

* * *

Har ne olling¹ a kelur Haqdin erur chun oriz¹,
Bas tahammul² qilibon, aylama har dam e'roz³.

* * *

Jahl aybini Navoiy netibon yoshurg‘ay,
El ko‘zi ochiq erur, gar o‘zi etkay ig‘moz⁴.

* * *

Kishiki zohiri oshuftadur⁵ zamirig'a⁶ boq,
Basoki ma'ni erur pok-u lafz nomarbut⁷.

¹ *Oriz – voqea bo'lgan.*

² *Tahammul* – sabr, bardosh, chidam.

³ E'roz – qochish, uzoqlashish, o‘zini uzoq tutish.

⁴ Ig 'moz - yashirish, bekitish.

⁵ *Oshufta* – giriftor, mubtalo, oshiq.

⁶ *Zamir* – ko‘ngil, qalb.

⁷ *Nomarbut – bog'lanmagan, aloqasi yo'q.*

* * *

Izzat tama' kim aylasa, tark etmayin tama',
Ul xorliqqa mujib erur Azza man qana'¹.

* * *

Tuxmi tama'ki, xorliq o'l mish aning bari,
Sen bo'yla xor tuxmin ekib, qilma gul tama'.

* * *

Ruhungg'a sihat o'lsa, maloyik² bo'lur sipah³,
Nafsingg'a quvvat o'lsa, shayotin⁴ bo'lur taba'⁵.

* * *

Tut g'animatkim, yigitlik faslidur fasli rabe'⁶.

* * *

Gumon qilma ishq ahlini xoksor –
Ki, himmatlaridur falakdin rafe'⁷.

* * *

Qadam qo'yma adabsiz bu xazon ko'rgan chaman
ichra –
Ki, bir gulrang yuzning safhasidur har sarig'
yafrog'.

¹ *Azza man qana'* – kimki qanoat qilsa, albatta, aziz bo'ladi.

² *Maloyik* – malaklar, farishtalar.

³ *Sipoh (Sipah)* – askar, qo'shin, lashkar.

⁴ *Shayotin* – shaytonlar, iblislar.

⁵ *Taba'* – tobeler, bo'ysunuvchilar.

⁶ *Rabe'* – bahor.

⁷ *Rafe'* – yuksak, baland.

* * *

Keldi chug‘zg‘a vayrona kunji go‘shai bog‘.

* * *

Jahon zoli ham makr etar, ham nifoq,
Ani to‘rt mazhabda qil uch taloq.

* * *

Ulki kofur¹ bo‘lub mushki, qilur ra’noliq,
Oq saqolig‘a kular xalq, zihi rasvoliq.

Kim yigitlikda qilur tovba, yigitlik uldur
Qari bulg‘or saqolin qilsa qadahpaymoliq²...

Tengridin qo‘rqmay ulkim, qaribon boda ichar,
Yaxshiroqdur bu musulmonlig‘din tarsoliq³...

Qila olmas qori⁴ debo⁵ kiyib o‘zni zebo,
Shol⁶ ham kiysa yigitka yarashur zeboliq.

Qariliqda iki ishtin kishi bor elga aziz,
Biri zuhd-u birisi xalq aro nopaydoliq.

* * *

Agar husn o‘lsa qotil zor ne darvesh-u ne sulton,
Vagar ishq o‘lsa komil, yor ne hindu-vu ne o‘zbak.

¹ *Kofur* – oq xushbo‘y modda; oq, oqlik.

² *Qadahpaymo* – mayxo‘rlik, mayga berilish.

³ *Tarso* – xristian, nasroniy.

⁴ *Qori* – qari.

⁵ *Debo* – nafis ipak mato, harir.

⁶ *Shol* – jundan to‘qilgan mato; shunday matodan tikilgan kiyim.

* * *

Jamol-u noz to ko‘prak, niyoz-u¹ shavq ham ko‘prak.

* * *

Odamiliq tufrog‘in bersa fano eliga charx,
Ohkim, yo‘qtur kishi ahli vafodin xokrok.

* * *

Kishiga hech maqsude muyassar chekmayin emgak.

* * *

Rasm bo‘lmas qushni olib, oshiyonni o‘rtamak.

* * *

Tikanda gul ochilur, andalib yanglig‘ anga –
Ki, ishqil o‘lsa tabiat xiyonatidin pok.

* * *

Soya ko‘p zuhur² etmas, quyosh bo‘lg‘ach biyik.

* * *

Olam ahlig‘a o‘lumdin chora chun imkoni yo‘q,
O‘lma olam fikridin bu lahzakim borsen tirik.

* * *

Ehtiroyz³ etkay balodin gar kishiga jon kerak.

* * *

Kimki insondur, aning mahbubi ham inson kerak.

¹ Niyoz – 1) ehtiyoj, muhtojlik; 2) yalinish, yolvorish, iltijo;
3) atash, nazir qilish.

² Zuhur – ko‘rinish, paydo bo‘lish.

³ Ehtiroyz – saqlanish.

* * *

Sipehr¹ kom ila evrulmasa, hazin bo'lma,
 Kishiga bermadi chunkim Haq ixtiyorin aning.

* * *

Navoiy, ul kishi topti farog² olamdin –
 Ki, himmati ko'zi teng ko'rdi yo'q-u borin aning.

* * *

Bu bog' gullarini yerga sochmayin qo'ymas,
 Xazon yelini ko'rung, charxi bevafog'a boqing.

* * *

Tongla jannat huridin kech, ey ko'ngul,
 nokom³ ila,
 Gar bu kun dunyo arusi vaslini kom aylading.

* * *

Qismdin ortug' tilab xor etma o'zni, ey aziz –
 Kim, qanoatdindurur izzat, tama'din barcha zul⁴.

* * *

Ne tafovut sifla⁵ eldin xorlig' yo ehtirom –
 Kim, bahoyimdin⁶ erur teng xohi izzat,
 xohi zul.

¹ *Sipehr* – osmon, falak.

² *Farog'* – 1) tinchlik, xotirjamlik; 2) rohat, xursandchilik.

³ *Nokom* – maqsadiga yetmagan, ma'yus.

⁴ *Zul* – xorlik, pastlik.

⁵ *Sifla* – past, tuban.

⁶ *Bahoyim* – to'rt oyoqli hayvonlar.

* * *

Qachon gul bargining rangin qilur yomg‘ir suyi
zoyil?!

* * *

Derlar: ilm bahs aylar zamon rahmat bo‘lur
nozil.

* * *

Ajal gar so‘ngg‘i dam bo‘lsa, bu dam koming
Xizr umri,
Bu noma’lum mav‘udqa¹ bino qo‘yg‘on zihi g‘ofl.

* * *

Darddin bemorg‘a parhez erur ko‘proq malol.

* * *

Ka’ba istarsen, mug‘ilon² cheksa til qayg‘urmag‘il,
Bemalomat topmadi kimsa salomat, ey ko‘ngul.

* * *

Xurdai³ rozingni asra g‘uncha yanglig‘ qon yutub.

* * *

Turg‘oni birla qulqolqol, lek eshitmas pand gul.

* * *

Bulbulg‘a guldin ayru bo‘stondin malol.

¹ Mav‘ud – va‘da.

² Mug‘ilon – tikanli daraxt.

³ Xurda – sir, yashirin sir.

* * *

Qiblai maqsad tilarsen, dard o'qidin g'am yema,
Istagan tavfi Haram, ko'rmas mug'ilondin malol.

* * *

Ne yerkim pastroq, su ul yon o'lg'ay begumon
moyil.

* * *

Bu chamanda ne vafo bo'lg'ayki, har yon g'unchasi
Zohir etmis bulbul ahvolig'a kulgu sori mayl.

* * *

O'zga qilmoq yaxshiroqkim, o'zgaga qilmoq sitam.

* * *

Dog'i hirmon jonda xushroqkim, arozildin¹
diram.

* * *

Bir qadam nafs uzra qo'yg'il, birni maqsadg'a,
dedim,
Yo'l uzun deb yema g'amkim, asl erur avval qadam.

* * *

Gar oqibat ahvolig'a men voqif emasmen,
Kimdurkim anga qolmadı bu mas'ala mubham?!

* * *

Ne qazodin kelsa taslim o'lmoq avlo, chunki yo'q
Sudi gar qilsam sitez, ar o'zni ko'p zor aylasam.

¹ Arozil – nokaslar.

* * *

Qilma zohir davlati-yu mehnatig‘a e’tibor –
 Kim, aning dog‘i vafosi yo‘q, munung bunyodi
 ham.

* * *

Kim vafo ahlin sinuqtursa¹ bilurmen onchakim,
 Ko‘p ziyon qilmasa, bore qilmag‘ay ko‘p sud ham.

* * *

Erur har zarraning mohiyati xurshiddin mubham.

* * *

Su urg‘och o‘tqa ortar dud, topsa shu’la taskin ham.

* * *

Necha nasrinbar-u² gulrux³ esang, qilg‘il vafo
 mayli –
 Ki, gul ham bevafolig‘ ko‘rdi bu gulshanda,
 nasrin ham.

* * *

Navoiy jahondin ne naf’ olsa bo‘lg‘oy –
 Ki, zindone erur marg aylab kamin⁴ ham.

* * *

Bu chamanda ko‘nglakin gul chok aylardin ishi
 Bulbul ahvolig‘a har kun shevan⁵ ermish,
 angladim.

¹ *Siniqturmoq* – ranjitmoq, ozor bermoq.

² *Nasrinbar* – oqbadan.

³ *Gulrux* – gul yuzli.

⁴ *Kamin* – pistirma.

⁵ *Shevan* – nola, zori.

* * *

Bo'ldi o'z nodonlig'imni anglamoq donolig'im.

* * *

Ey ko'ngul, aylama dahr eski rabotin maskan –
Kim, rabot o'ljadi hargiz safar ahlig'a vatan.

* * *

Ishq vodiysi ajab vodiy erurkim, har mo'r
Anda sherafkan-u¹ har pashsha erur pilafkan².

* * *

Husn ayyomida xush tut zarralarni, ey quyosh –
Kim, bu kunlarni bag'oyat qisqa aylar charxi dun.

* * *

Qo'rqtutub elni tamug³, lekin meni qismi azal⁴,
Elga vahm anjomdim⁵, ammo manga og'ozdin⁶.

* * *

Ey Navoiy, bilki bo'lmas chehrai maqsudni
Pardadin ko'rmak, xususan pardai pindordin⁷.

* * *

Dud qilmay naylagay axgar uza tushgan samon.

¹ *Sherafkan* – sherni yiqituvchi.

² *Pilafkan* – filni yiqituvchi.

³ *Tamug* ('Tomug') – do'zax, jahannam.

⁴ *Qismi azal* – taqdir, qismat.

⁵ *Anjom* – oqibat, oxir, intiho.

⁶ *Og'oz* – boshlanish.

⁷ *Pindor* – kibr, g'urur, takabburlik.

* * *

Zamong'a mumkin ermas hech kim bo'lmoq zimon¹.

* * *

Otashin gul bila bulbul day o'lub ketsa, ne tong,
Bo'yla ko'p o't bila kul yod bilur bu bo'ston.

* * *

Dahr elidin zinhorkim vafo qilmon tama',
Kim, tama'din kimsaga yuzlanur doim havon².

* * *

Yilda bir oy vasl ila gul xushdil aylar bulbulin.

* * *

Husnung avroqig'a³. ey gulshan, quvonma asrukim,
To xabar topqung sovurmish tong yeli gul
daftarin.

* * *

Kecha tong otqucha ravshan bo'lur oy o'lsa to'lun.

* * *

Ko'ngul uzmaklik ishi sa'bdurur o'rganibon.

* * *

Har ne Haq amridurur shukr ila qilkim,
qilmoq
Bandadin yaxshi emas xoja ishi ko'ngranibon⁴.

¹ *Zimon* – kafil.

² *Havon* – xorlik, tubanlik.

³ *Avroq* – varaqlar; barglar.

⁴ *Ko'ngranmoq* – qo'pormoq, ag'darmoq.

* * *

Murodi gar emas dilbar murodi,
Ilohiy, bermagil oshiq murodin.

* * *

Dahri fonyi, ey Navoiy, tushturur yoxud xayol,
Davlati boqiy umiding bo‘lsa kechgil boridin.

* * *

Qush qutulmas dardlig[‘] afg[‘]on chekib sayyodidin.

* * *

Kelmasa ravshan zulol, albatta, bo‘lur chashma ko‘r.

* * *

Oshiqi sodiq vafo birla jafoni tolg[‘]amas¹,
Xush kelur ko‘ngliga har nekim kelur dildordin.

* * *

Charx davrin o‘yla² pargor urdi me’mori qazo³ –
Kim, qadam chiqmoq emas mumkin xati pargordin.

* * *

Ulki ma’nidin xabar topti, yana dam urmadi,
Anglamon ahli jadal ichra ne qil-u qol ekin?

* * *

Dahr ishi oludalig[‘]dur⁴, ey xusho, ul pokrav⁵ –
Kim, o‘tar bu jifag[‘]a⁶ ko‘nglini moyil qilmayin.

¹ *Tolg‘amoq* – ajratmoq, farq qilmoq.

² *O‘yla* – shunday, o‘shanday; juda ham.

³ *Me’mori qazo* – Xudo.

⁴ *Oludalig‘* – ifloslik, nopoklik.

⁵ *Pokrav* – o‘zini to‘g‘ri olib yuruvchi.

⁶ *Jifa* – o‘limtik.

* * *

Tong yo‘q o‘ldum esa ishq ichra jahon rasvosi,
Kimdurur oshiq o‘lub oqili davron bo‘lg‘an?!

* * *

Sarnavishting har ne bo‘lsa, ko‘rmakiga
chora yo‘q,
Kimsa bosh chekmak ne mumkin ollig‘a masturdin¹?!

* * *

Yorkim yori uchun cheksa jafo, bil oni yor,
O‘lsa ozdur kimsa andoq yori mehrosor² uchun.

* * *

Bag‘ir pargolasin³ aylab g‘izo, qonin qilib sharbat,
Tavaqqu⁴ qilma olam ahlidin, o‘tsa maosh andin.

* * *

Navoiyo, sanga bastur xayoli oshiq esang,
Kishi visol tama’ qilmas obi hayvondin.

* * *

Ko‘runur sham’ ravshanroq zuhur etkach
qorong‘udin.

* * *

O‘larda tengdurur shoh aylasun gulshan gulin
mafrash⁵,
Vagar gulxan kuli uzra gado sohibfirosh⁶ o‘lsun.

¹ *Mastur* – bu yerda: yashirin, pinhon, maxfiy.

² *Mehrosor* – mehribon, g‘amxo‘r.

³ *Pargola* – parcha-parcha.

⁴ *Tavaqqu’* – kutish, ko‘z tutish; umid, orzu.

⁵ *Mafrash* – yumshoq to‘shak.

⁶ *Sohibfirosh* – to‘shak egasi, bemor, kasal.

* * *

Falakdin gar manga har lahza yuz qayg‘u kelur
o‘tru¹,
Agar har qayg‘udin so‘ng bir sevinmak bor,
emas qayg‘u.
Va gar har tiyralikka bir yorug‘luqni
inonmassen,
Yig‘i ko‘r charxdin har shom, dog‘i subhdin kulgu.

* * *

Qachon gul aksi tushmaklik bila gulrang
bo‘lg‘ay su?[!]

* * *

Baqo naqdi hayotingg‘a chu ermas bir zamon
ma’lum,
Diram naqdig‘a umrung har zamon sarf etmagil
asru.

* * *

Yoruq gar o‘lmadi sham‘i muroding, aytma
ko‘p so‘z,
Kishi qazo bila bo‘lmas urishmoq, aylama yorg‘u².

* * *

Tilab yo‘jni topmoq ne imkon erur bu?!

* * *

Ko‘rguzur egri emas bo‘lsa mudavvar³ ko‘zgu.

¹ *O‘tru* – qarshi, ro‘para.

² *Yorg‘u* – bu yerda: himoya.

³ *Mudavvar* – doira, aylana.

* * *

Sug'a, yo'qsa ko'zguga solg'il nazar,
Gar etsang o'zungga misol orzu.

* * *

Quyoshdek manozil¹ tay etmak² kerak,
Ne rahravki³, qilg‘ay kamol orzu.

* * *

Bor-u yo‘qning mehnatin chekmas, bu davlat
basdurur,
Har kishi olamda qone’ bo‘lsa yo‘q-u bor ila.

* * *

Razzoq Haqni angla har vaqt-u har makonda,
Har kimga ro'zi o'lsa har xonda bir navola.

* * *

Qachon yog'inda qilibtur kishi bulutni panoh?!

* * *

O'lumdin hajr dushvor o'lmasa dard ahlig'a,
nevchun
Ajal Majnunni asrab, aylagay Laylini ovora?

* * *

Malak taslimi shayton kibridekdur buki, aql o‘zin Qilib ma’muri amr istar amorat⁴ nafsi ammora⁵.

¹ Manozil – manzillar.

² *Tay etmak* –bosib o‘tmoq.

³ *Rahrav* – yo'lovchi.

⁴ Amorat – amirlik, hokimlik.

⁵ *Nafsi ammora* – yomonlikka undovchi nafs.

* * *

Zamoni husng'a chun bo'lmadi rasmi vafo hargiz,
 Vafo rasmin g'animat anglag'il husnung
 zamoninda.

* * *

Muruvvat rangi-yu insof isi ko'z tutmag'il eldin,
 Bu rang-u bo'yluq gul yo'q chu olam gulsitoninda.

* * *

Bud¹ ila nobud² chun huznu³ tarabqa arzimas,
 Shod bo'lma bud ila, g'am ham yema nobud ila.

* * *

Ummideki, Haq etkay aning sa'yini botil⁴,
 Har kimki nihon ayladi botilni haq ichra.

* * *

Ishq o'tida gar aqlni xas dedi Navoiy,
 Yo'q kimsaga so'z mas'alai muttafaq⁵ ichra.

* * *

Davron falakka cheksa seni emin o'lmag'il –
 Kim, yetkurur zavol quyoshning kamolida.

* * *

Dahr bo'stoni aro barq-u bulutdin angladim,
 Yig'lamoq yuz qatladur bir qatla kulgu o'rnilida.

¹ *Bud* – borliq, mavjudlik.

² *Nobud* – yo'qlik, yo'q bo'lish.

³ *Huzn* – g'am, qayg'u, xafalik.

⁴ *Botil* – 1) buzuq, bo'sh; 2) behuda, nohaq, asossiz, noto'g'ri.

⁵ *Muttafaq* – ittifoqlashgan, kelishilgan.

* * *

Yordin yaxshi emas aylamagi yor gila.

* * *

Kimsa yuz yil komronliq¹ qilsa, bilkim,
arzimas,
Dahr aro bir lahza bo‘lmog‘liq birov komi bila.

Zahrni o‘z komi birla ichsa andin yaxshikim,
Ichsa hayvon sharbatin nokomlig‘ jomi bila.

Yuz dilorom aylagandin ravza habsi², yaxshiroq
Bo‘lmoq o‘z vayroni ichra ko‘ngli oromi bila.

Ey ko‘ngul, el subhi ayshi sari boqma, xo‘y³ qil
Fardliq vayronida mehnat qora shomi bila.

Qushqa yung maskan aro xushroqdurur ozodlig‘,
Bo‘lg‘anidan band aro sayyod ipak domi bila.

Bo‘lmoq itlar mun’imi tan to‘ma aylab yaxshiroq,
Tanni qilg‘uncha samin⁴ nokaslar in’omi bila.

* * *

Husn bog‘ining bo‘lur ermish niholi o‘zgacha.

* * *

Ikki dunyodin kechib yor istagan topmish visol.

¹ *Komronlik* – baxtiyorlik, maqsadga erishganlik.

² *Ravza habsi* – gulshan asiri.

³ *Xo‘y* – odat, fe‘l, tabiat, xarakter.

⁴ *Samin* – qimmatbaho.

* * *

Dedimki, umri vafo qilsa, dahr ham qilg‘ay,
Valek bahsdur ul ikkining vafosinda.

* * *

Bevafolig‘ tong emas eldinki, dehqoni azal,
Ekmadi aslo vafo naxli jahon bo‘stonida.

* * *

Chun falak davronig‘a yo‘q e’timode, ey quyosh,
Mehr ko‘rguzmakni xo‘y et xubliq davronida.

* * *

Bazl ilgin yuqori, soyil qo‘lin ko‘rgil quyi,
Teng bo‘lurmu termak-u sochmak xirad mezonida¹.

* * *

Gul sochib, yuz yil agar gulrang may no‘sh²
aylasang,
Arzimas bir kun tikon neshig‘a davron gulshani.

* * *

Dahr bo‘stonig‘a ziyrak qush ne qilsun maylkim,
G‘uncha juz qonlig‘ ko‘ngul ochmas bu gulshan
gulbuni.

* * *

Kimki istar jonig‘a davron jafosi yetmagay,
Ko‘nglini davrondin uzsin, ahli davrondin
dog‘i.

¹ Mezon – o‘lchov, tarozi.

² No ‘sh – 1) ichish; 2) asal.

* * *

Bog‘boni dahr har naxlki payvand ayladi,
Xub edi gar bo‘lmasa erdi yana sindurmag‘i.

* * *

Chu husn davri vafosizdur, ey guli ra’no,
Qil iltifot gahi andaliblar¹ sari.

* * *

Ey Navoiy, dahrdin ko‘z tutma juz nokomliq,
Kom kim topmishki, sen topqaysen andin komni?!

* * *

Ey ko‘ngul, bir lahza hijron shiddatig‘a arzimas,
Gar visol ichra kishi yuz yil tana’um aylagay.

* * *

Ey Navoiy, ishq sirrin hech mahramg‘a dema –
Kim, buning ham mahrami bo‘lg‘ay, aning ham
mahrami.

* * *

Ul kishi umri bahoridin terar gulbargi aysh –
Kim, kafida lolagun² may birla bo‘lg‘ay sog‘ari.

Do‘sstar birla tutub ishrat bahorin mug‘tanam,
Bir nafas osuda bo‘lg‘ay joni mehnatparvari³.

¹ *Andalib* – bulbul.

² *Lolagun* – loladek qizil.

³ *Mehnatparvar* – zuvalasi g‘am bilan qorilgan, qayg‘u bilan
parvarish topgan.

Kimgakim bir dam bu kom o'lsa muyassar
yaxshiroq,
Bo'lg'ucha yuz qarn¹ aning hukmida olam kishvari².

Ey Navoiy, faqr mulkin tut g‘animat zinhor –
Kim, g‘ino-vu³ saltanatning ko‘pturur dardi sari⁴.

* * *

Husn bog‘idin vafo vardi^s tavaqqu’ qilmangiz –
Kim, bu gulshan gulbunida bo‘yla gul ochilmadi.

* * *

Og‘u ichkondin ne voqif obi hayvon ichkuchi?!?

* * *

Mezbon zohid xush ermas, bo'lsa mehmon ichkuchi.

* * *

Hajr o'lumdin talk emish, mundin so'ng, ey
davron, meni
Aylagil jondin judo, qilg'uncha jonondin judo.

* * *

Oshiqekim bo‘lg‘ay ul bir sho‘xi gulruxsorsiz,
O‘yla bulbuldurki qolmishdur gul-u gulzorsiz.

* * *

Jahon qasrig‘adur su uzra bunyod
Chu yo‘q bunyodi, andin bo‘lmog‘il shod.

Qarn – asr, davr.

² Kishvar – o‘lka, viloyat, iqlim, shahar.

³ *G'ino* – boylik.

⁴ *Dardi sar* – boshog‘riq, g‘am-tashvish.

⁵ Vard – atirgul, qizil gul.

Ne shod o‘lg‘ay kishi bir qasrdinkim,
Ani Tengri yaratmish mehnatobod¹.

* * *

Haq taqdiridindur olam ichra,
Yomon-u yaxshining yaxshi yomoni.

* * *

Jahon foniydurur, ey xoja, zinhor –
Ki, sen boqiy tasavvur qilma oni.

* * *

Nachukkim, bo‘stonning yo‘q vafosi,
Xususankim, xazon yeli esar chog‘.

Aning ham nisbatin gar istar ersang,
Aningdekkim, xazon ayyomida bog‘.

* * *

Jahon no‘shi aro qilmish nihon zahr,
Sen ani no‘sh etarsen, o‘ylakim qand.

Topib lazzatkim aylarsen tabassum,
Erur ul zahrxand², ermas shakarxand³.

* * *

Bu gulshan ichraki, yo‘qtur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur chiqsa yaxshiliq bila ot.

¹ *Mehnatobod* – kulfat uyi, g‘amxona.

² *Zahrxand* – zaharxanda, achchiq kulgi.

³ *Shakarxand* – chiroqli tabassum qiluvchi.

* * *

Jahon jomi to‘ladur zahri qotil,
Anga mayl aylamas kim bo‘lsa oqil.

Ajab ishdurki, mundoq zahr icharga,
Jahon ahli erur jon birla moyil.

Ajabroq buki, ichgan soyi bo‘lmas,
Bu zahr ichganga ichmak hirsi zoyil.

* * *

Jihatsiz, ey ko‘ngul, sevdung jahonni,
Mening pandimdin aylab o‘zni otil¹.

Chu berding barcha sarmoyangni barbod,
Pushaymon bo‘lmog‘ing emdi ne hosil?!

* * *

Dahr bog‘iki, jafo shori² idur² har chamani,
Juz vafo ahlig‘a sonchilmadi oning tikani.

* * *

Har kishi komil erur, bas anga Haq bandalig‘i,
Mundin o‘zga tama‘i kasbi kamol aylamangiz.

* * *

Olami fony uchun ranj-u mashaqqat chekmang,
Mol uchun g‘am yemangiz, fikri manol³
aylamangiz.

¹ Otil – yalqov, bo‘shang.

² Shori’ – katta ko‘cha, to‘g‘ri yo‘l.

³ Manol – mulk, xazina, uy-joy.

* * *

Tengri xonin ochuq aqida qilib,
Xalqdin ro'zi istagan gumroh.

O'yladurkim, tengiz qirog'inda,
Ro'za ochmoqqa kimsa qozg'oy choh.

* * *

Ko'p oltun, kumush sari qo'l sunmog'il¹ –
Ki, tut sang kafingni qora zang etar.

Ko'ngulda dog'i maylini asrama –
Ki, ko'nglungni dog'i hamul² rang etar.

* * *

Ahli ma'ni³ guruhida zinhor,
Hech or aylama gadolig'din –

Kim, bularg'a gadolig' ortug'dur,
Ahli suvratqa⁴ podsholig'din.

* * *

Yuz tuman nopol erdin yaxshiroq
Pok xotunlar ayog'ining izi.

* * *

Yuqori o'ltururni kim tilasa,
Kishilikdin ani yiroq bilgil.

¹ Sunmoq – quymoq, uzatmoq, cho'zmoq.

² Hamul – o'sha-o'sha.

³ Ahli ma'ni – ma'no egalari, so'fiylar, oriflar.

⁴ Ahli suvrat – surat egalari, ya'ni narsa-hodisalarining mohiyatiga emas, zohiriga qarab baho beruvchilar.

* * *

Siyumni sochquchi mingdin birdur,
O'zgalarning ishi keldi termak.

Ul jihatdin budurur odatkim,
Olmoq osondur-u mushkil bermak.

* * *

Safih¹ zolim ila bo'lma xon uza hamdast²,
Munosib o'ljadi it chunki hamtabaqliqqa.

O'zunga ablahi nodonni aylama hamroz –
Ki, yaxshi ermas eshak dog'i hamsabaqliqqa.

* * *

Agar oqil esang, uzgil jahon ahlidin ulfatkim,
Alardin juz jafo kelmas, agar yuz yil vafo qilsang.

Biriga yuz Xito mulki xirojin aylasang isor³,
Xatosiz qasdi joning qilg'usidur, gar xato
qilsang.

* * *

Nokas-u nojins avlordin kishi bo'lsun debon,
Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat olami –

Kim, kuchuk birla xo'dukka necha qilsang tarbiyat,
It bo'lur, dog'i eshak, bo'lmaslar aslo odami.

¹ *Safih* – past, tuban.

² *Hamdast* – qo'lidosh, yordam beruvchi.

³ *Isor* – sochish, bag'ishlash, in'om.

* * *

Tavozu' yaxshi, ammo yaxshiroqdur
Agar da'b etsa oni ahli davlat.

Erur ham afv xubu xubroq ul –
Ki, zohir bo'lg'ay el topqanda qudrat.

Ato¹ ham turfa ishdur turfaroq bil,
Agar yo'qtur aning yonida minnat.

Hakim insoni komil debtur ani –
Ki, bo'lg'ay zotida bu necha xislat.

* * *

Dahr aro tushkan havodis o'tidin mone' emas.

* * *

Dema ko'p, ey nafskim, dunyo arusin aqd qil,
Uyda ba'zidek sog'in² makkoraye bordur manga?!

* * *

Bu fano dayrin baqosiz erkanin to angladim,
El surudi³ ishrati motam fig'onidur manga.

* * *

Zamona tarkini kom aylabon xalos o'lg'il,
Desangki, solmasa nokomlig' zamona sanga.

* * *

Bulbul o'lsa, zog' ham bo'lur gulistonlar aro.

¹ Ato – ota.

² Sog'inmoq – bu yerda: hisoblamoq, o'yalamoq, guman qilmoq.

³ Surud – kuy, ohang; qo'shiq, ashula.

* * *

Ista yirtuq janda kiyganlarda ma'ni maxzanin –
Kim, bu yanglig‘ ganj o'lur ul nav’ vayronlar
aro.

* * *

Do‘zaxni agar ishq o‘ti birla qiziturlar,
Dard ahlig‘a uchmoqdin¹ erur bas tamug‘ avlo.

* * *

Hajr jonin olg‘on elga vasli jonondur davo.

* * *

Zulmati kufr ichra elga nuri iymondur davo.

* * *

Shox uzra bo‘lur doim gul ketsa, samar paydo.

* * *

Ko‘p achchig‘lanma, agar bo‘lsang ulustin talxkom²,
Ulcha qismingdur qazodin, kimga aylarsen g‘azab?!

* * *

Dema bu olamda ul oy xub yo jannatda hur,
Ko‘rmamishmen andag‘in, bori erur mundog‘i xub.

* * *

Tut yigitlikni g‘animatkim, qarig‘ach angladim –
Kim, yigitlar ishqil bor ermish, yigitlik
chog‘i xub.

¹ *Uchmoq (Uchmog')* – jannah.

² *Talxkom* – achchiq nasibali, alamzada, qayg‘uli.

TAFAKKUR TUHIFALARI

* * *

Quyoshni qamar yopmoq ermas munosib.

* * *

Demon davron aro yo‘qtur vafo aylab vafo ko‘rgan –
Ki, yo‘qtur ming jafo tortib, qutulg‘an bir
vafo aylab.

* * *

Manga yo‘q, o‘zgaga bori vafo qilg‘anni gar
topsam,
Boshig‘a evrulay, ollida jonimni fido aylab.

* * *

Gadolarg‘a gahe lutf et, shaho, bu shukr
uchunkim, Haq –
Seni lutf aylabon shoh ayladi, bizni gado aylab.

* * *

Xoshok ichinda shu’lani bo‘lg‘aymu yoshurub?!

* * *

Umr qasrin necha kun tutqil g‘animatkim, darig‘
Xush binodur, poydor ermas vale bunyodi ko‘p.

* * *

Kufr ahlining avlodи ko‘p.

* * *

Hech ish o‘lmas ayr-u Xoliq amridin,
Iltijo maxluqqa kelturma ko‘p.

* * *

Qaribon qilma yigitlar suhbatin har dam havas –
Kim, qarini istamas bazm ahlig‘a doxil yigit.

* * *

Bo‘lma dunyodo‘st, gar istar esang osudaliq,
Lek har ne qilsalar, bo‘l ahli dunyo birla do‘st.

* * *

Ey Navoiy, necha dushman bo‘lsa, yonma¹ do‘stdin,
Chun sanga bo‘lmishtur ul yuz ming tamanno
birla do‘st.

* * *

Navoiy, to jahon ahlig‘a sen vobasta, ko‘ngronma,
Alar javridin o‘lsa xotiring afgor² har soat.

* * *

Mehr nurin ne bilur shapparaki tiyramizoj³.

* * *

Jahon ra’nosig‘a berma ko‘ngulkim,
Anga oldurmamish ko‘nglin xiradmand.

* * *

Umr-u davlatdin vafo tutmaydurur dono umid.

* * *

Sham’ agar parvonani o‘rtar, o‘zi ham o‘rtanur.

¹ Yonmoq – qaytmoq.

² Afgor (Figor) – 1) jarohatlangan, majruh; 2) ezilgan, o‘rtangan.

³ Tiyramizoj – nodon, johil.

* * *

* * *

Tushar chun har kishining qaddi tuzdur,
soyasi ham tuz.

六〇

Qachon ravshan ko'ngulni nafs o'ti dudi
qilur tiyra?
Nubuvvat¹ sham'ini ne nav' o'churgay Bulahab²
hargiz.

光 源

Ishq asrorig'a til mahram emastur zinhor –
Kim, ko'nguldin tilga ani oshkor qilmangiz.

* * *

Ne rost qad bila mag'rursiz, yigitlarkim,
Sipehr aylar ul o'qlarni misli yolar ko'j³.

* * *

Davron guli-yu gulshani xorig'a arzimas.

* * *

Ming yil kishi jahon eliga qilsa shohliq,
Bir dam alar ihonat-u⁴ orig'a arzimas.

¹ *Nubuvvat – payg‘ambarlik.*

² *Bulahab* – Abu Lahab. Muhammad alayhissalomning amakisi va yovuz dushmani Abd al-Uzzo ibn Abdulmutallibning laqabi: o'tda kuyuvchi. U Qur'onning 111-surasida la'natlangan.

³ Ko 'j – egilgan, bukilgan.

⁴ *Ihonat* – tahqirlash, xo‘rlash.

* * *

Ofoq¹ mulki fathi² uchun tortmoq sipoh Bilkim, sipoh gard-u g‘uborig³ a arzimas.

Yuz qarn olam ahli aro aylamak nashot,
Bir dam alar nifoq-u niqorig^{a3} arzimas.

* * *

Chun falak javfin qazo qilmish havodis huqqasi⁴,
Bo‘yla yerda fitnadin qochmoq zihi nodon ulus.

* * *

Dahr bog'i gullarida yo'q vafo, ey andalib,
Ziyrak ersang, tutmag'il bu turfa bo'ston birla
uns⁵.

* * *

Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand⁶ etmas,
Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pisand
etmas.

Ofoq – dunyo, olam.

² *Fath* – egallash, zabit etish.

³ *Niqor – ixtilof, kek, gina.*

⁴ *Huqqa* – quticha.

⁵ *Uns – ulfat, yaqin do'st.*

⁶ Arjumand – aziz, qadrli, sharaflı, loyiq.

* * *

Ko'ngul uz charx zolidin, firebin yemakim,
oxir
Ajal sarrishtasidin¹ o'zga bo'ynungg'a kamand
etmas.

* * *

Gar desang qattiq balog'a qolmag'aysen charxdin,
Olam ahli birla yumshog'lig' bila qilg'il maosh.

* * *

Husn chun jilva qilur, oq-u qorada yo'q farq,
Kishiga kelsa balo – xohi xito, xohi habash².

* * *

Rizo berkim, qazog'a yo'q tafovut,
kimsa yuz qatla
Ne kelsa ollig'a xursand yoxud badpisand etmis.

* * *

G'ayri sihhat ne havas bo'lg'usi bemorg'a ish.

* * *

Olam ahlida chu yo'q yorki, mehr o'lg'ay ishi,
Sen qiyos aylaki, ne bo'lg'usi ag'yorg'a ish.

* * *

Ey Navoiy, o'zungga olam ishin oson tut,
Gar desang tortmasun el bo'yla dushvorg'a ish.

¹ *Sarrishta* – kalavaning uchi, ishning asosi.

² *Habash* – qora tanli, zanji.

* * *

Zamon ahli zamona rangi birla bevafodurlar,
Zamona ahlig'a go'yo zamon o'z fe'lin o'rgatmish.

* * *

Chekar gul ollida bulbul fig'on, magar bildi –
Ki, o'tsa vasl bahori, xazoni furqat emish.

* * *

Biravkim, jannat-u do'zax so'zin sharh aylamish,
go'yo,
Kinoyat vajhi birla vasl-u hijronni ado qilmish.

* * *

Oyini qanoat tut, izzat tilar ersangkim,
Ermish tama' ahlidin har kimki zalil ermish.

* * *

Dahr aro mast ila hushyor tama' zoridurur,
Negakim, g'olib erur usruk¹ ila sog'ig'a hirs.

* * *

Botin-u zohiring ahvolini ko'rkim, qilmish
Zoye' ul birni xavotir, bu birisin ag'roz².

* * *

Qирг'овул qorda yoshung'an kibidur ayblaring,
Elga bas zohir, agarchi sen etarsen ig'moz.

* * *

Ishq zo'r etkach vale botil bo'lur bisyor shart.

¹ *Usruk (Asruk)* – mast, sarxush.

² *Ag'roz* – moddalar.

* * *

Tavba qilmoq istar ersang, qilma da'vo oshkor,
Tengriga topshur o'zungni, qilmag'il izhor shart.

* * *

Bo'limg'il ozurda-vu ozurda qilma kimsani,
Faqr oyinida nevchunkim emas ozor shart.

* * *

Bog'lama ko'nglungni bu manzilg'a, nevchunkim,
erur

Bir yangi mehmon yeri har lahza bu eski rabot.

* * *

Ey Navoiy, dahr aro ne kelsa, bo'lg'il munbasit¹,
Garchi lazzatsiz bo'lur kuch birla qilmoq
inbisot².

* * *

Haqdin azizliq tilasang, eldin uz tama'.

* * *

Mazmumdur qanoatidin qone³ etsa faxr,
Tome⁴ xisolidin⁵ kishi ne aylagay tama'.

* * *

Bir dardmand ko'nglida ko'rsang vaja'⁶, anga
Gar ko'ngling og'rimas, ul emas, budurur vaja'.

¹ *Munbasit* – ochiq chehrali, shod, xursand.

² *Inbisot* – shodlik, xursandchilik.

³ *Qone'* – qanoat qiluvchi.

⁴ *Tome'* – tamagir.

⁵ *Xisol* – xususiyatlar, odatlar.

⁶ *Vaja'* – dard, og'riq, g'azab.

Nafs o'lsa tobe'ing kishisen, yo'qsa bo'lmaq'ung Hargiz kishi, bo'lub sanga yuz ming kishi taba'.

Dahr bo'stonig'a mag'rur o'lma ko'p, ey bog'bon,
Oxir etkung, chun gul-u sarvi ravon' birlan vido'.

Biravki jon berib, eldin vafo tama' tutti,
Pishurdi ko'nglida savdoi xom men yanglig'.

Qo‘yma bu manzil-u maskanga ko‘ngulkim zinhor, Angla yo‘l o‘tkuchidek o‘zni-yu mehmon yanglig‘.

Qayda topqay ahli ma'ni holdin nodon yuquf²¹!

Istasang besh kun farog'at, garchi kobil³ umr erur,
Dahr zolin to'rt mazhab birla qilg'il uch taloq.

¹ Sarvi ravon – yuruvchi, xirom etuvchi sarv, ya’ni go‘zal yurishli mahbuba.

² *Vuquf* – voqif, xabardor, ogoh.

³ *Kobin – mahr, mol, mablag’.*

⁴ *Munjar* – borib yetmoq, borib taqalmoq.

Bori dushvorliqlarni o‘zungga aylasang oson,
Bori dushvorliqlar dog‘i bo‘lg‘ay shoyad osonliq.

Ham dahr baqosizdur, ham umr vafosizdur,
Xushtur nafase o'zni ahbob¹ ila xush tutmoq.

Yo'q ajabkim, past o'lur soya, quyosh bo'lg'ach
biyik.

Bir eshik bog‘lansa ishq ichra, ochilg‘ay yuz eshik.

Tutay jahonda Sulaymon seni va yo Jamshid,
Ne munga jom vafo ayladi, ne anga uzuk.


Ahbob - do'stlar.

² *Kund* – o'tmas.

³ *Itik* – o'tkir.

⁴ *Beka – bek naslidan.*

⁵ Mirak – amirzoda.

TAFAKKUR TUHFALARI

* * *

Quvonma davlati husnungg'a, ey parivashkim,
Zamona davlatidek yo'qtur e'tibori aning.

* * *

Qolding korvondin, gar tinarg'a bir nafas turdung.

* * *

Sotma, ey gul, noz ko'p, boqqil xazon bog'ig'akim,
Bor emish gulrang bir kun chehrai zardi¹ aning.

* * *

Dahr bo'stonida bukim chok erur gul ko'nglaki,
Bulbul ahvolig'a go'yokim azosidur aning.

* * *

Ayta olmon, asray olmon ishq sirrin, ohkim,
Sa'b² erur ifxosi-yu³ mushkildur izhori aning.

* * *

Istasang maqsad, qadam qo'y, ta'n toshidin
ne bok,
Ka'ba topti bo'limg'on xori mug'ilondin malul.

* * *

Davr elida gar vafo yo'q, sen vafo qilg'il,
valek
Kimni xushhol etsang, andin tut o'zungga yuz
malol.

¹ Zard – sariq.

² Sa'b – qiyin, og'ir.

³ Ixfo – yashirish, sir tutish.

* * *

Hasud¹ el molig'a bo'lg'ay baxil.

* * *

Mumkin ermas qismat o'lg'an rizqning afzunlig'i,
Bas xaloyiq minnatin, to bo'lg'ay imkon,
chekmagil.

* * *

Umrg'a hech e'timode yo'qtur, ey g'ofil ko'ngul,
Oy-u yilni necha mast o'tkargasen, bir ham oyil².

* * *

Har ne davrondin kelur, taslim xushtur, ey rafiq,
Naf' chun yo'q, o'zni gar yuz qatla tavsan
aylagil.

* * *

Rev-u rang³ ahli muridi bo'limg'ilkim, Xizr
emas,
Xirqasin⁴ har ahmaq etsa baqli hamqodek⁵
yashil.

* * *

Subh nevchun umrdin may birla kome topmag'ay –
Kimsakim, umrig'a yo'qtur e'timod o'lg'uncha shom.

¹ Hasud – hasadgo'y.

² Oyilmog – o'ziga kelmoq, hushyor bo'lmoq.

³ Rev-u rang – makr-u nayrang.

⁴ Xirqa – janda. Shayx-u muridlar kiyadigan maxsus kiyim.

⁵ Baqli hamqo – semizo't.

* * *

Yoshurdi Odam agar Tengri sIRRINI, ko'runguz –
Ki, xalq sIRRINI tutmas nihon bani Odam.

* * *

Ey Navoiy, dahr yo'q-u bori tinmaslig'durur,
Ting'asen, gar qilmasang parvo yo'q-u borig'a ham.

* * *

Dahr bog'idin, ko'ngul, naxli vafo ko'z tutmakim,
Besamardur sarvi ham, sarkashdurur shamshodi
ham.

* * *

Men vafo kimdin topay, bu shevani chun topmadi
Ofarinishda¹ pari jinsi, bashar avlodi ham.

* * *

Qil zuloli vasl ila bulbulni, ey gul, shodkim,
Bu chamanda doimo shodobliq² yo'qtur gumon.

* * *

Bir-ikki kunki, bu dayri fanoda sen mehmon.

* * *

Navoiyo, neki olam ishida mushkildur,
Desangki qilg'asen oson, o'zungga tut oson.

* * *

Jahon osoyishin ollingda mushkil qilmakim, bordur
Tutay mushkil desang – mushkil va gar oson
desang – oson.

¹ Ofarinish – yaratilish.

² Shodob – shod, xurram.

* * *

Ko‘p, ey gul, urma bulbul jonig‘a bedod
xorinkim,
Sen-u mendek gul-u bulbulni ko‘p o‘tkardi
bu bo‘ston.

* * *

Umr torin chun kesar davron jafo tig‘i bila,
Jazm bilgilkim, anga bo‘lmas ko‘ngulni bog‘labon.

* * *

Dahr aro yo‘q no‘sh-u yuz ming nish har dam,
ey rafiq,
Yemagay yo‘q no‘sh uchun yuz nish oqil har zamon.

* * *

Amal sarrishtasin qilma mutavval¹, kelganin
xush ko‘r.

* * *

Boda bo‘lmas rang qilg‘on birla su.

* * *

Bo‘lmas xorsiz gul, dudsiz o‘t, dog‘siz lola.

* * *

Quyosh husnig‘a ne mashshota hojatdur,
ne dallola².

* * *

Qatarotini³ yog‘inning kim etibdurur shumora⁴?

¹ *Mutavval* – uzun.

² *Dallola* – dallol xotin, vositachi xotin.

³ *Qatarot* – tomchilar, qatralar.

⁴ *Shumor(a)* – sanoq, hisob.

* * *

Oqibat qabr eshiksiz uyiga chun kirgung,
Emdi girya¹ senga ne sud, ochuq darvoza.

* * *

Ko'ngul olam uyiga bog'lama ko'p –
Ki, baytedur² sanga ul istiora³.

* * *

Olam ahli ichra odam demak o'lmas anikim,
Joh ila bo'lg'ay anga qonuni atvor o'zgacha.

* * *

Siflag'a jon o'ynasang, mehnat zamoni tonimas,
Dahr eli bu nav' erur, sen ham alarni tonima.

* * *

Ko'ngulni gar desang oldurmay, avval ko'zni
oldurma.

* * *

Kimsa chun o'tganga yetmas, holni tut mug'tanam,
Umrni o'tkarma, o'tgan hayf ila afsusida.

* * *


Balo chohi giriftori halokin, vah,
qachon bilsun,
Siyosatgohida⁴ tutqunlarig'a ulki qozg'ay chah.

¹ *Girya* – yig'i.

² *Bayt* – uy, manzil.

³ *Istiora* – omonat.

⁴ *Siyosatgoh* – jazo maydoni.

**TAFAKKUR TUHFALARI**

* * *

Gar kamol istarsen, o‘zni tortqil komilg‘acha.

* * *

Kimki yomonlar bila bo‘ldi, yomon bo‘ldilo.

* * *

Har necha javr qilsa noz ahli,
Tortmay naylagay niyoz ahli.

* * *

Qaysi gul bedodi bir bulbul parin sovurdikim,
Charx zulmi ham aning yafrog‘larin sovurmadi?!

* * *

Agarchi kelmadi bemehr yor javri yomon,
Chu yaxshi boqsang, erur yori mehribon yaxshi.

* * *

Ey Navoiy, gar desang ko‘p injimay davr
ahlidin,
Har ne derlar yo qilurlar, qilmag‘il parvo
base.

* * *

Zamona ahlig‘a garchi o‘yunchiliqdur ish,
Yengar ham oxir alarni zamonaning o‘yuni.

* * *

Dahr gulzorig‘a, ey ko‘nglum qushi, mayl
etmakim,
Anda bulbul qonidin rangin erur gul yafrog‘i.

* * *

Dahr bog'inda necha kunkim tiriksen, aysh qil – Kim, yana topmoq emas ma'lum bu bo'ston kibi.

* * *

Davronda kamol ichra quyoshtin biyik o'ldi,
Har zarraki, bir komili davrong'a yo'luqtı.

* * *

Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay.

* * *

Tushta su ichkan bila labtashna hargiz qonmadı.

* * *

* * *

Barqi rahmat choqilurda tog‘ emas xoshokcha,
Tavba vaqtı g‘am yo‘q, ar jurmum nechukkim
tog‘ edi.

* * *

¹ *Jonkoh – jonni qiynovchi.*

² Jonfizoy – jonga rohat beruvchi.

* * *

Haq taolo maxzanin anglabki xoli bo‘lmamish,
Xalqdin har kimki jam’iyatqa asbob istagay.

Mehr olamni munavvar aylabon ul kulbasin
Yoriturg‘a tiyra tundin kirmi shabtob¹ istagay.

* * *

So‘zchi holin boqma, boq so‘z holini
Ko‘rma kim der ani, ko‘rgilkim ne der.

* * *

Tuzlukka moyil o‘lki, ishing borg‘ay ilgari.

* * *

Tirik chu oxir o‘lar, bas, o‘kush g‘ami muhlik –
Chekib, ajal madadig‘a bu iztirob nedur?

Chu har kishiki tug‘ar, o‘lmayin yo‘q imkoni,
Ne ishki bo‘lmayin imkoni yo‘q, shitob nedur?

* * *

Ajal chun muqarrardur, bas tama’din
Nedur yuz g‘am o‘tig‘a kuydurmak o‘zni?

Chu tug‘moqdur o‘lmak uchun, bas ne ya’ni
O‘lardin burun har dam o‘lturmak o‘zni.

* * *

Ano o‘rnin ato tutmas o‘g‘ulg‘a.

¹ Kirmi shabtob – yonar qurt.

* * *

Uch kishidin uch ish yomon ko'rinur,
Sanga arz aylay ahli dunyodin:

Shohdin tundlug¹, g'anidin buxl²,
Molg'a mayl-u hirs donodin.

* * *

Rozni asra, chunki fosh etting,
Yana pinhon bo'lurni qilma havas.

Ko'nglung ichra nafas kibidur roz,
Qaytmas, kimsadin chu chiqtı nafas.

* * *

Biravkim xiradmandning nuktasin
Qulog'ig'a olmas, ne nuqson munga.

Javohirni termak anga sa'b esa,
Erur sochmamag'lig' xud oson munga.

* * *

Garchi quyoshtin parvarish olam yuziga omdir³,
Sahroda qomg'og'-u tikan, bo'stonda sarv-u gul butar.

* * *

Ulki, iflosdin ayog'inda
Kafsh yo'li azmi chog'i yo'qtur aning,

Shukr qildik boqib birav sari –
Ki, yururg'a ayog'i yo'qtur aning.

¹ *Tund* – o'tkir, g'azabli.

² *Buxl* – baxillik, xasislik.

³ *Om* – omma, xalq; bu yerda: umumiyl, barobar.

* * *

Ey Navoiy, olam ahlida tama'siz yo'q kishi,
Har kishida bu sifat yo'qtur, anga bo'lg'ay

sharaf.

Sen agar tarki tama' qilsang, ulug' ishdur

bukim,

Olam ahli barcha bo'lg'ay bir taraf, sen bir

taraf.

* * *

Ilmi din kasb qilki, sud ermas,
Charx mushkillarini hal qilmoq.

Lekin ul ilm dog'i naf' etmas,
Bilibon bo'lmasa amal qilmoq.

* * *

Umr bazmida nashot asbobi dilkashdur base,
Gar havodis shahnasidin¹ anda yag'mo bo'lmasa.

* * *

Yaxshiroq tog' ostida qolmoqki, qayg'u ostida.

* * *

Shox-u bargekim, qurub sarg'arsa, kim ko'rmish
davo!

* * *

Qayda ko'rmish kimsa hargiz umr ila jondin

vafo!

¹ Shahna – posbon.

* * *

Hayfdur buki, o‘tar uyqu bila subhi shabob¹.

* * *

Hoy-u huy aylabon o‘zni nafase xush tutkim,
«Hay» degancha ne sen o‘lg‘ung orada, ne ahbob.

* * *

Yor ko‘p qilsa jafo, kam qil, Navoiy, nolakim,
Gulga bulbul o‘rgata olmas vafo, afg‘on qilib.

* * *

Kimga davron bir ayog‘ may berdikim,
bo‘ldi xalos,
So‘ngra aning yuz qadah bedodi zahrin sipqorib.

* * *

Xalqdin har yaramas kelsa, xush o‘lkim, Haqq‘a
Desa bo‘lmas, mening uchun yana bir xalq yarot.

* * *

Istasang, qilmag‘asen joninka mehnatni ziyoda,
Bo‘lg‘il o‘z qisminga xursand-u tama’ qilma
ziyodat.

* * *

Ulug‘lardin nasib istar esang, kasbi kamol
etgil,
Nedinkim, anbiyog‘a² ilmliq inson erur voris.

¹ *Subhi shabob* – yoshlik tongi.

² *Anbiyo* – payg‘ambarlar.

* * *

Namoz adosiga qilg‘il ko‘ngulni Tengriga tuz:
Ko‘ngul tuz o‘lsa, emas bok, bo‘lsa qiblang kaj.

* * *

Quyoshni ulki yorug‘ der, ne hojat anga hujaj!¹

* * *

Olam ahlidin vafo muhtoji bo‘lmakim, alar –
Ham chekarlar bu mato‘i bebahog‘a ehtiyoj.

* * *

Qushni kim ozod etibtur bastai dom² aylagach.

* * *

Kamoł kasbi qilur bo‘lsang, ozmundin o‘t,
Gar istifoda³ g‘araz bo‘lsa, imtihondin kech.

* * *

Sen e’tirozni qo‘yg‘ilki, barcha Haqdindur.

* * *

Navoiy, ollinga yozg‘anni ko‘rmayin bo‘lmas,
Erur Haq ollidin ar solih⁴ o‘l va gar tolih⁵.

* * *

Malohatlig‘ eldin hikoyat malih⁶.

¹ *Hujaj* – hujjalalar, dalillar.

² *Bastai dom* – tuzoqqa tushgan, giriftor.

³ *Istifoda* – foydalanish.

⁴ *Solih* – to‘g‘ri, yaxshi ish qiluvchi kishi.

⁵ *Tolih* – yomon ish qiluvchi kishi.

⁶ *Malih* – go‘zal, malohatli.

* * *

Yor vasli xushturur, gar zulf, agar yuz ko'rguzar,
Vasl davri ayshdur, gar shom bo'lsun, gar saboh.

* * *

Ikki kun bir nav' bo'lmaydur guli bo'stong'a
narx.

* * *

Shoxning farzandi guldur, naxlg'a farzand shox.

* * *

Azalda chun ne nasib o'ldi, o'zga bo'lmedi ul.

* * *

Charxdin ne kelsa, juz taslim yo'qtur choraye –
Kim, qaviy¹ ollida xub ermas zabunlardin inod.

* * *

Shak emaskim, bo'lg'usidur yorlar bee'timod,
Har qachan yor ollida ag'yor bo'lsa mu'tamad².

* * *

Birdurur asli adad, kimki haqiqatbindur³.

* * *

Dardmand el holin ul bilgayki, bo'lg'ay
dardmand.

¹ *Qaviy* – kuchli, qudratli.

² *Mu'tamad* – ishonchli, ishonarli.

³ *Haqiqatbin* – haqiqatni ko'ruchchi.

* * *

Chun falak toqidek oxir bo‘lg‘usidur sarnigun¹,
Rif’ating² toqin, ne sud, etmak falakcha sarbaland³.

* * *

Istasang olam eli maqsudi o‘lmoq, zinhor
Yema yuz olamcha elga Tengri bergandin hasad.

* * *

Ishq amrig‘a erur kavnu makon⁴ ichra nafoz⁵,
Shohning hukmig‘a andoqki jahon ichra nafoz.

* * *

Qarida garchi sabukruhlug⁶ farovondur,
Vale yigitlar aro chun kirar, garonjondur⁷.

* * *

Shabobning⁸ havasidin saqolni rang etma,
Oqorsa sabza⁹, ko‘karmak yana ne imkondur?

* * *

Qari yigitlar ishin chun qilur, erur mabhut¹⁰,
Yigit qarilar ishin pesha¹¹ qilsa, nodondur.

¹ *Sarnigun* – to‘ntarilgan, ostin-ustun.

² *Rif’at* – balandlik, yuksaklik.

³ *Sarbaland* – boshi baland, yuksak.

⁴ *Kavnu makon* – borliq, koinot.

⁵ *Nafoz* – nufuz, ta’sir.

⁶ *Sabukruh* – xushhol.

⁷ *Garonjon* – bosiq, vazmin.

⁸ *Shabob* – yoshlik, yigitlik.

⁹ *Sabza* – ko‘kat, maysa, yashillik.

¹⁰ *Mabhut* – hayron qolgan.

¹¹ *Pesha* – kasb, hunar.

* * *

Aso yururga madaddur, vale aso ahli
Chu nayza tutti, hamul yo'l yururga nuqsondur.

* * *

Chun bu gulshan bevafodur, jom davrig'a to'kar,
Necha pora siymkim, umrida nargis qozg'anur.

* * *

Bu dasht sathida jomi Jam ichra ko'p boqtim,
Qadah keturki, ne Bahrom zohir o'ldi, ne go'r.

* * *

Dardqadur chora sabr.

* * *

Bu guliston aro bulbulg'a rahm qil, ey gul –
Ki, hay deguncha xazon yuzlanib, bahor borur.

* * *

Ne nav' bulbuli zor etmasun fig'onki, sipehr –
Bu gulshan ichra, bahor o'lmayin, xazon soladur.

* * *

Dahr bog'ining gulida yo'q vafo, bu turfakim,
Sarzanishqa xori yuz ming til bilan tannozdur.

* * *

Dahr gulzori aro hasrat yelidin har taraf
Tomdi bulbul ko'ngli qoni, dema gul yafrog'idur.

* * *

O'z qasdi joni qilg'an el nodon erur.

* * *

Ermas ul farzonakim, tark etti dunyo hosilin,
Balki hosil qilg‘ali mayl etmagan farzonadur.

* * *

Garchi ishq ichra base mushkil bor,
Vasl ummididin oson ko‘rinur.

* * *

Bu bog' aro qolmaydur ajal yelidin ozod,
Har gulgaki, savsan kibi qomat yetilibtur.

* * *

Podshohekim qanoat maxzanin istar, erur
Bir gadodekkim, xayoli ganji Qorun soridur.

* * *

Ey Navoiy, ista ma'ni olamikim, keldi dun
Har kishikim, mayli ushbu dunyoi dun soridur.

* * *

Yo'ldin oxir surma sultonmen debon darveshni,
Yod et: ul yo'ldinki ham darvesh-u ham sulton
borur.

* * *

Afg'onki, xazon mehnatidin qolmadi solim¹,
Har sarvi gulandomki, bu gulshan arodur.

* * *

May ichsa tez o'lur el, sog'da gar yovosh ko'runur.

¹ *Solim* – sog^c, omon.

* * *

Kesak qanoti sinuq qush ko‘ziga tosh ko‘runur.

* * *

Hullai¹ toat etar do‘zax o‘tin daf’, yo‘q ersa,
Ul haroratqa ne daf’, kafaning garchi katondur²?

* * *

Voizekim o'zi qilmas amal-u elga berur pand,
Gar emas uyquda, bas, munchaki der ne hazayondur³.

* * *

Byki ko'nglung sirrin istarsenki, pinhon
asrasang,
Dahr bog'i ichra ochma g'unchadek zinhor og'iz.

* * *

Ko'zgu egri bo'lsa, solur aksini ruxsor ko'j.

* * *

Egridin juz egrilik hargiz asar bo'lmash ayon,
Kim solur albatta soya naxli nohamvor⁴ ko'j.

* * *

Chu umr o'tar, bu kun o'zni nishot ila xush tut —
Ki, tongla naf' yeturmas darig' ila afsus.

Hulla – nafis matodan tikilgan kiyim.

² Katon – kanopdan to‘qilgan mato, kiyimlik.

³ Hazayon – behuda, bema’ni so’z aytish.

⁴ *Nohamvor – note kis.*

* * *

Lolaruxlar¹ vaslida yuz yil kishi qilsa nishot,
Bir zamonlig², bilki, dog'i furqatig'a arzimas.

Bahr-u kon naqdin agar yig'ding, vale yetkach ajal
Barchani solib ketarning shiddatig'a arzimas.

Har necha tersang yigitlikning bahori gullarin,
Bir xazoni shayb-u³ ohi hasratig'a arzimas.

Taxti izzat uzra nasb³ etsa birovni davri charx,
Azl⁴ ko'yining g'ubori zillatig'a⁵ arzimas.

Har necha davlat sahobi⁶ sochsa gavhar boshinga,
Anglakim, bir qatla barqi ofatig'a arzimas.

* * *

Tanurdin kishi qushqa bo'lurmu, qilsa qafas?

* * *

Qorig'anda tavba xushroqdur yigitlar ishqidin,
Beadablig'larki ko'rguzdung yigitlik chog'i – bas.

* * *

Basdurur bulbulg'a gul bargi tari⁷ yanglig' anis⁸.

¹ *Lolarux* – lola yuzli, qizil yuzli, go'zal mahbuba.

² *Shayb* – soch-soqol oqarishi, qarilik.

³ *Nasb* – qo'ygan, bunyod qilgan.

⁴ *Azl* – bo'shatish, chetlatish.

⁵ *Zillat* – xorlik, tubanlik, pastlik.

⁶ *Sahob* – bulut.

⁷ *Tar* – yangi, yashnab turgan, tarovatlil.

⁸ *Anis* – do'st, sirdosh, hamdard.

* * *

Topilmas kimsaga o'z dilbari yanglig¹ anis.

* * *

Charxdin ne kelsa, xush bo'lkim, sening ko'nglung
uchun,
Aylamas davrini hargiz gunbadi davvor¹ bas.

* * *

Yigitligim boribon, keldi boshima qarilig²,
Fano yo'lida bu yanglig² emish borish-u kelish.

* * *

Erur hayotning o'q yanglig² o'tmakiga dalil,
Kishiki, yoy kibi qadg'a asodin etti kerish².

* * *

Yigitlik o'ldi bahor-u kuhulat³ o'ldi xazon,
Degan bu so'zni – qarilig²ni qishqa o'xshatmish.

* * *

Ne turfa ishki, birav chun toriqti⁴ umridin,
Desa uzun yasha, qarg'ishdur anga bu alqish.

* * *

Xurda⁵ sochqandin chaman mulkida sulton
bo'ldi gul,
G'uncha qonlig² ko'ngliga solg'an girih imsoc
emish.

¹ *Gunbadi davvor* – aylanuvchi falak.

² *Kerish* – yoy ipi, kamon tori.

³ *Kuhulat* – o'rta yosh.

⁴ *Toriqmoq* – zerikmoq, siqilmoq.

⁵ *Xurda* – bu yerda: nozik, latif.

* * *

Mulk-u kishvar buzmayin ne bo‘lg‘usi to‘fong‘a ish.

* * *

Biravkim, sarvdek ozodavash¹ bo‘ldi bu bog‘ ichra,
Qazo dehqoni ham sarsabz ani, ham sarbaland
et mish.

* * *

Ruh ul nurdururkim, Haq anga bermish avj,
Nafs zulmatqa qolib, qilmish anga poya hubut².

Ruh rahmoni³ erur, nafs erur shaytoni,
Ikkisin bir-biriga qo‘shmaq emastur mashrut⁴.

* * *

Charxdin ne kelsa, xush tut o‘znikim,
qilmas qazo,
Bir sening ra‘ying uchun bu gunbadi gardonni
zabt.

* * *

Eski olamg‘a ko‘ngul ko‘p bog‘lama –
Kim, musofirg‘a vatan bo‘lmas rabot.

* * *

So‘zda ma’ni bila ko‘p lafzg‘a mayl aylamakim,
Zohir oroyishini ayladi odat laffoz⁵.

¹ *Ozodavash* – qaddi baland, sarvqomat.

² *Hubut* – tushish, joylashish.

³ *Rahmoni(y)* – ilohiy.

⁴ *Mashrut* – shart qilingan.

⁵ *Laffoz* – so‘zamol.

* * *

Ishq o'tin tark etmasam nosih so'zi birla, ne tong,
Pand ila parvona kuymaktin bo'lurmu
mumtane¹?

* * *

Tengdur bahor o'tsa, bulbul bila zog'.

* * *

Olg'ali dunyo arusin, eyki, sotting naqdi din,
Umr sotib, marg olmoq angla, bu sotig'-olig'.

* * *

Mamlakat bo'lg'ay xarob, o'lg'an zamon sultong'a
za'f.

* * *

Betariqqa yetmas hidoyati tavfiq.

* * *

Hay deguncha chun o'tar ham aysh-u ham g'am,
bas nedur,
Gar falakdin elga ayshi begarondur², bizga yo'q.

* * *

Olam ahlidin tavaqqu' aylamak ahd-u vafo,
Zahrdin hayvon suyi bo'lg'ay tavallo aylamak.

* * *

Menki o'z sirrimni pinhon asray olmon,
turfadur
El aning tutmog'ini maxfiy tamanno aylamak.

¹ Mumtane' – man etilgan, mahol.

² Begaron – cheksiz, chegarasiz.

* * *

Ne ajab, ey gul, iching qon etsa gardun
laxt-laxt,
Baski, bulbul ko'nglini g'unchang kibi qon
aylading.

* * *

Chunki navmid¹ emas rahmatidin gabr-u² juhud,
Jurm-u isyon bila bizga bu umid o'lsa, ne tong.

* * *

Bu chamandin yel uchurub gulni, bulbul qolg'ani,
Rost andoqturki, qolgay chunki shu'la o'chsa kul.

* * *

Yor hajri xohi bir kun, xoh yuz yil, ey ko'ngul,
Zahrdin bir qatra-yu daryoni teng bil, ey ko'ngul.

* * *

Chu topmog'ung bu chaman g'uncha-yu gulida vafo,
To'kulma g'uncha kibi, lek gul masallik ochil.

* * *

Oqibat yerga kirarsen gar xud,
Bo'lsa ko'k atlasi raxshing³ uza jul⁴.

* * *

To yigit erdim, qarilarg'a ko'p erdi xidmatim,
Qarig'an chog'da yigitlarga og'irdur suhbatim.

¹ Navmid – umidsiz, mahrum.

² Gabr – otashparast.

³ Raxsh – chopqir ot.

⁴ Jul – yopinchiq.

* * *

Bu manzildin manga yo'l azmig'a boisdurur
bukim,
Yetar bir korvon har dam, o'tar bir korvon
har dam.

* * *

Kerakmas g'arra bo'lmoq shohidi davlat¹ bosh
indursa –
Ki, bir xamliq erur aning salomi, xayrbodi ham.

* * *

Ozdi har kishikim, chiqtı yo'ldin.

* * *

Istamas bo'lsang ishing uzra girih, tuzluk qil –
Kim, yog'in rishtasig'a qatrasи xud keldi tugun.

* * *

Kuymasligi xasning choqin yetkanda ne imkon?

* * *

Bu chaman gulzorig'a berma ko'ngul, ey andalib –
Kim, erur har gulki ko'rsang, tegrasida yuz
tikan.

* * *

Jahon ichra kishining chun yo'qi-yu bori
yaksondur,
Ne farrux² kimsadur ko'rgan jahon bor-u yo'qin
yakson.

¹ Shohidi davlat – davlat go'zali.

² Farrux – baxtiyor.

* * *

Navoiy, o'zni xush tutkim, kishiga dahr ishi
bordur,
Agar mushkul tatar, mushkul va gar oson
tatar – oson.

* * *

Qani ra'y¹ mundin savob, ey ko'ngulkim,
Kishi qoyil² o'lsa, bilib o'z xatosin.

* * *

Jahon makrin biravkim bildi, bermas
Jahon mulkiga bir damlig‘ farog‘in.

* * *

Ne mozidur, ne mustaqbal orada, sensen-u
bu dam,
Ne shod o'lmoqdadur har dam uzun umrung
shitobidin.

* * *

Xalos o'ldum ishim Tengriga solib, toki
bildimkim,
Ochilmas ish mening behuda sa'y-u ehtimomimdin.

* * *

Chu gulda yo'q vafo rangi, xazon yetkuncha,
ey bulbul,
Sabodin bargi gul yanglig‘ uchub chiq bu
gulistondin.

¹ Ra'yⁱ – tadbir.

² Qoyil – bu yerda: iqror.

* * *

Taayunot¹ ichida ishq bir haqiqat erur.

* * *

Xurdadon² bo'lmas kishi, nozuk taxayyul
qilmayin.

* * *

Qushni kim biryon³ etibtur bismil⁴ etmastin
burun?!?

* * *

Bu ko'han⁵ dayr ichra tinmasliqqa qolg'ay
tun-u kun,
Xotirin yaxshi-yomon savdosidin tindurmag'an.

* * *

Dam urma bu chamanda, Navoiyki, bir gule
Bilmas zag'an fig'onini bulbul navosidin.

* * *

Dahr aro andoq maosh etgilki, sendin qolmasa
Toat andoqkim, keraktur bori isyon qolmasun.

¹ *Taayunot* – aniqlik, ma'lumlik.

² *Xurdadon* – nozikfahm, zakovatli.

³ *Biryon* – qovurish.

⁴ *Bismil* – so'yish.

⁵ *Ko'han* – ko'hna, eski.

* * *

Tiyralar lutf aylabon tutmas safo ahli¹ yerin,
Yorig'an birla uchi, sham' o'rnini tutmas ko'sov².

* * *

Ishq maxfiy qolmas oxir, ey ko'ngul, ko'p
chechma jon,
Men ham avval ko'p yoshurdum, ko'rki, pinhon
qoldimu?

* * *

Ey ko'ngul, bu gulshan atrofig'a boqkim,
g'unchaye –
Kim, ko'ngul jam' ayladi, bo'lmay parishon
qoldimu?

* * *

Xushroq ko'runur anjum, chun tun bo'lur qorong'u.

* * *

Sabzai xat birla bu gulshan vafosiz erkanin,
Kilki qudrat³ yozdi, rayhoni bahoridin o'qu.

* * *

Zamona ahlig'a gar yuz quyoshcha ko'rguzubsen
mehr,
Vafo zinhorkim, bir zarra chog'lig' e'timod
etma.

¹ *Ahli safo* – ko'ngli sof, pokiza kishilar, ilohiy olamdan baha
oluvchilar.

² *Ko'sov* – kosov.

³ *Kilki qudrat* – qudrat qalami.

* * *

Qilib solih amal kasbi, shioringni saloh¹

etgil,

Vale fosid xayoling birla har dam bir fasod

etma.

* * *

Kishi devona bo‘lsa yaxshiroq yuz qatlakim,

ablah.

* * *

Nash'a yetmas boda gulgun², bazmgah gulzor esa,

Gar ko‘ngul ichra birovning xorxori³ bor esa.

* * *

Dema farzona biravdurki, ulustin chiqmish,

Teng ko‘rar chunki ulus bor-u yo‘qin farzona.

* * *

Erur boisi g‘aflat ko‘p so‘z.

* * *

Toriqmasin, necha gardundin egrilik yetsa,

Biravki tuzlugi yo‘q xalq ila maoshida.

* * *

Umrdin bir subh olg‘il bahrakim, fasli bahor

Lola ham jomin tutubtur nargisi jodu bila.

¹ Saloh – 1) parhezkorlik, zuhd-u taqvo; 2) yomon ishlardan o‘zini saqlash, to‘g‘rilik, axloqlilik.

² Gulgun – gulrang, pushtirang, qizil.

³ Xorxor – ishtiyoq.

* * *

Gar desang sargashtalik ko‘rmay, yo‘lungni
tuz yuru,
Gar inonmaysen, nazar qil charxi kajraftorg‘a¹.

* * *

Yor yo‘q olamdakim, bir yor sirrin asrag‘ay,
Bas ajab sirredururkim, el degay ag‘yorg‘a.

* * *

Uyladurkim, sotibon Yusufni² olg‘ay siymi qalb³,
Kimki matlubni qo‘yub, mayl etsa dunyo johig‘a.

* * *

Mo‘r sayri emas charxi zarnigorg‘acha⁴.

* * *

Erur bahor g‘animat, may ichki, bilmassen –
Ki, dahr bog‘ida bo‘lg‘ung yana bahorg‘acha.

* * *

Birav jon-u jahondin istagay do‘st –
Ki, ham ozoda, ham farzona bo‘lg‘ay.

* * *

Malohat avji birla husn bo‘stonida yo‘q ravnaq,
Qani bu bog‘ aro sarve, qani ul avj uza mohe?

¹ *Charxi kajraftor* – teskari aylanuvchi falak.

² Bu yerda misrlik savdogarlarga o‘gay akalari tomonidan arzimas pulga qul qilib sotilgan Yusuf alayhissalomga ishora qilinmoqda.

³ *Siymi qalb* – soxta pul.

⁴ *Zarnigor* – oltin bilan bezalgan.

* * *

Ochilmog‘liq uzulgan g‘unchag‘a ne ehtimol o‘lg‘ay?

* * *

Navoiy, hosil et himmat qanotikim, uchar qushqa
Havo qilganda maqsadg‘a ne mone’ dasht bo‘rtog‘i?

* * *

Bo‘lsa mavzun¹, boqmag‘ay tab’ ahli nomavzun
sari.

* * *

Qilmag‘an shogirdlig‘ hech ishta ustod o‘lmadi.

* * *

G‘uncha kulgusiga, ey bulbul, ko‘ngul gar
bermasang,
Bag‘ringa har gul soyi² yuz xor bo‘lg‘aymu edi?

* * *

G‘urur husn ila johingga qilmakim, qolmas
Jamoli olami-yu olam ahlining johi.

* * *

Ulki qahr etsa, qilichidin damodam qon tomar,
Bag‘ridin qon tomg‘uchilar birla ne jinsiyati³?!

Vasl no‘shi birla jon topqong‘a, vah, andin ne
g‘am –
Kim, to‘ladur zahri qotil birla jomi furqati.

¹ *Mavzun* – go‘zal, chiroyli, kelishgan.

² *Soy (So)* – qo‘shma so‘z tarkibida kelib, o‘xshash, monand kabi
ma’nolarni ifodalaydi.

³ *Jinsiyat* – hamjinslik.

Dahr qilg‘andin yalang boshini teng tufrog‘ ila,
Ne xabar ulkim, yetar gardung‘a toji rif‘ati.

Mo‘r ayog‘ ostida o‘lgandin qachon topqay vuquf,
Arslonkim, ko‘kka chirmashg‘ay g‘irevi¹ shavkati.

* * *

Kim, sanga bu kelish-u ketmakdin
Aysh-u ishrat xud emas erdi murod.

* * *

Bevafodur falaki buqalamun,
Soz-u ohangiga yo‘q bir qonun.

Yo‘q baqo joh ila shavkatqa dog‘i,
Yo‘q vafo umr ila davlatqa dog‘i.

* * *

To falak bildi taaddi² fanini,
Qaysidin olmadi o‘z berganini?!

Kimga berdi quyosh avjida nishast³,
Kim yana qilmadi tufroqqa past?!

Kimga bir no‘s hila yetkurdi bahr,
Kim yana tutmadi yuz sog‘ari zahr?!


* * *

Chun bir ish mumkin emas olamda,
Yo‘q emish jinsi bani Odamda.

¹ G‘irev – shovqin-suron, to‘polon, g‘avg‘o.

² Taaddi – adovat, dushmanlik, zulm.

³ Nishast – o‘tirish.

 TAFAKKUR TUHFALARI

* * *

Har kishikim topsa davron ichra joh-u
e'tibor –
Kim, aning zotida bedod-u sitam bo'lg'ay qilig'.

Yaxshilig' gar qilmasa, bori yomonlig' qilmasa –
Kim, yomonlig' qilmasa, qilg'ancha bordur
yaxshilig'.

* * *

Erur ahli hunar qoshinda hunar:
Ayb yopmoq, dog'i hunar topmoq.

Hunarin elning oshkor etmak,
Yo'q esa bari aybini yopmoq.

* * *

Ulki, Haq borinda maqsud istagay har zotdin,
Mehr borinda yorug'lug' ko'z tutar zarrotdin.

* * *

Tama' etma, ko'p o'lsa el moli,
Ko'rmayin Haq xazinasin xoli.

* * *

Yetar chu rizqing, agar xoradur va gar yoqut,
O'zungga yuklama anduh tog'in, istab qut.

* * *

Elni xor aylagan tama' bilgil,
Doimo azza man qana' bilgil.

* * *

G‘ofil o‘lma, nazardin itsa adu¹,
Sham’ o‘churganda, yel ko‘rinarmu.

* * *

Yuqar yomonlig‘ angakim, kirar yomon el aro,
Ko‘mur aro ilik urg‘an qilur ilgini qaro.

* * *

Dunyo-vu uqbo² ikkisi jam’ o‘lmas, ey rafiq,
Kimki ikki kema uchini tutsa, bo‘lur g‘ariq.

* * *

Ablah ani bilki, olamdin baqo qilg‘ay tama’,
Ahmoq ulkim, olam ahlidin vafo qilg‘ay tama’.

* * *

Ulki, sanga eldin erur aybgo³,
Elga dog‘i sendin o‘lur aybjo⁴.

* * *

Kishi aybing desa, dam urmag‘ilkim, ul erur
ko‘zgu,
Chu ko‘zgu tiyra bo‘ldi, o‘zga aybing zohir
aylarmu?

* * *

Kishi aybin yuziga qilma izhor,
Taammul⁵ ayla o‘z aybingg‘a zinhor.

¹ *Adu (v)* – yov, dushman.

² *Uqbo* – u dunyo, oxirat.

³ *Aybgo* ‘ – aybingni aytuvchi.

⁴ *Aybjo* ‘ – ayb izlovchi, fisq-u fujur yurituvchi, qora niyatli.

⁵ *Taammul* – mulohaza qilmoq.

* * *

Yo‘l yomon-u yaxshisidin yema g‘am,
Bismilloh, degil-u qo‘yg‘il qadam.

* * *

Sarv-u gul-u lola xaridori bor,
Lek o‘tunning dog‘i bozori bor.

* * *

Donai dur so‘zini afsona bil,
So‘zni jahon bahridda durdona bil.

* * *

So‘z aro yolg‘on kibi yo‘q napisand,
Aylar aning nazmini dono pisand.

* * *

Nazmda ham asl anga ma’nidurur,
Bo‘lsun aning surati har nedurur.

Nazmki ma’ni anga marg‘ub emas,
Ahli maoniy¹ qoshida xub emas.

Nazmki ham surat erur xush anga,
Zimnida ma’ni dog‘i dilkash anga.

* * *

Ul kishi so‘z bahridda g‘avvos erur –
Kim, guhari ma’ni anga xos erur.

¹ Ahli maoniy – ma’no egalari, donishmandlar.

* * *

Ka'baki, olamning o'lub qiblasi,
Qadri yo'q andoqki, ko'ngul ka'basi.

* * *

Bas ani inson atag'il beriyo,
Kim ishidur sabr ila shukr-u hayo.

* * *

Har kishiga xush ko'rinur o'z ishi.

* * *

Bo'lmasa iyomon bila ketmak ishi,
Anglaki, oni desa bo'lmas kishi.

* * *

Olam aro xalqni Yazdoni¹ pok
Ahli najot etti-yu ahli halok.

* * *

Boshtin-oyoq borcha musulmon emas,
Kimki musulmon, muni yolg'on demas.

* * *

Kimsaki, shukr aylasa ko'prak berur.

* * *

Qo'yni shubon asramasa oy-u yil,
Och bo'rilar to'masidur bori bil.

¹ *Yazdon* – Xudo, Tangri.

* * *

Boqmasa dehqon chamanin tun-u kun,
Naxli tarin¹ angla qurug‘on o‘tun.

* * *

Kimgaki bir rishta yeturding ziyon,
Qatlinga ul rishtani bilgil yilon.

* * *

Zulm o‘zunga fisqdur, ey hushyor,
Gum qil ani, bo‘lsa sanga hush yor.

* * *

Ro‘zi uchun muncha fusunsozliq²,
Mansab uchun muncha dag‘obozliq³!?

* * *

Sochmoq ovuch birla guhar ot uchun,
Naqd etak birla mubohot⁴ uchun,

Aql hisobidin erur bas yiroq,
Buxl bu judungdin erur yaxshiroq.

* * *

Oni dog‘i dema saxiykim, kishi
To tilamas bermak emasdur ishi.

* * *

O‘z yerida yuz tuman, ar bir diram,
Bazl ishida teng ko‘rar ahli karam.

¹ *Naxli tar* – yashnab turgan daraxt.

² *Fusunsoz* – nayrangboz.

³ *Dag‘oboz* – hiylagar.

⁴ *Mubohot* – faxr, iftixor.

* * *

Oni saxiy anglag¹il, ey hushmand¹,
Kim ani davlat qilibon sarbaland.

Holi agar yaxshidurur, gar taboh²,
Kimsadin etmas tama'i mol-u joh.

Ham neki Haq bersa qanoat qilur,
Ham neki amr etmish itoat qilur.

* * *

G'uncha kibi xurdani qilma tugun,
Tongla chu sochqung neki tugdung bugun.

Buxl ila chun yutti sadaf durri sof,
Qildilar olmog'ida ko'ksin shikof³.

* * *

Munda ekib, anda o'rarsen yaqin,
Jahd etkim, bo'l mag'asen xo'shachin⁴.

Munda ekinlarga tafovutdurur,
Yaxshirog'i jud-u saxovatdurur,

Tarki tama' qilki, saxo ul emish,
Bazlda sarf etki, ato ul emish.

Bergali olmoq ishidin bo'l yiroq,
Bermak uchun olmog'aning yaxshiroq.

¹ *Hushmand* – hushyor, aqli, ziyrak.

² *Taboh* – buzuq, xarob, vayron.

³ *Shikof* – darz, choc, teshik, yoriq; jarohat, xastalik.

⁴ *Xo'shachin* – boshoq teruvchi.

* * *

Bir diram olmoq chekibon dastranj¹,
Yaxshiroq andinki, birov bersa ganj.

* * *

Himmat agar bo'lsa Navoiy sanga,
Bandadurur Hotami Toyi sanga.

* * *

Elga sharaf bo'lindi joh-u nasab,
Lek sharaf keldi hayo-vu adab.

* * *

Bo'lmas adabsiz kishilar arjmand,
Past etar ul xaylni charxi baland.

* * *

Tarki adabdin biri kulgudurur,
Kulgu adab tarkiga belgudurur.

* * *

Kulguki o'z haddidin o'ldi yiroq,
Yig'lamoq andin ko'p erur yaxshiroq.

* * *

Qatrag'a chun tarbiyat etti sadaf,
El boshig'a chiqqucha topti sharaf.

* * *

Kimki ulug'roq – anga xizmat kerak,
Ulki kichikroq – anga shafqat kerak.

¹ *Dastranj* – kasb-u kor, mehnat.

* * *

Boshni fido ayla, ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano¹ boshig‘a.

Ikki jahoningg‘a tilarsen fizo²,
Hosil et ushbu ikisidin rizo.

Tun-kunungga aylagali nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.

So‘zlaridin chekma qalam tashqari,
Xatlaridin qo‘yma qadam tashqari.

* * *

Tifl yilon naqshig‘a moyildurur,
Zahrini bilmaski, halohildurur³.

* * *

Aysh, Navoiy, necha dilkashdurur,
Lek adab birla hayo xushdurur.

* * *

Chunki tama’ bo‘ldi gadolar ishi,
Bilki gadodur tama’ etgan kishi.

* * *

Gavhar-u durni quloq ozori bil,
So‘zni quloqning duri shahvori⁴ bil.

¹ *Ano* – ona, volida.

² *Fizo* – saodat, yorug‘lik.

³ *Halohil* – halokatli, o‘ldiruvchi.

⁴ *Shahvor* – shohona, qimmatbaho.

* * *

Ikki qaro pul chekibon dastranj,
Yaxshiroq andinki, shah in'omi ganj.

* * *

Tinch ko'ngul birla qatiqsiz umoch¹
Behki², birov minnati birla kuloch³.

* * *

Ulki etib tarki qanoat shior,
Aylab ani ul tama' el ichra xor.

* * *

Sabr-u qanoat boridin yaxshiroq.

* * *

Xomtama' dahrda ranjur erur.

* * *

Qilma, Navoiy, tama' eldin diram,
Bor esa bersang xud erur ul karam.

* * *

Necha samar sochmoq esa shox ishi,
Ko'prak otar tosh anga tergan kishi.

* * *

Kon necha bazli guhari pok etar
Olg'uchi ko'prak yuragin chok etar.

¹ *Unoch* – taom nomi.

² *Beh* – yaxshi, afzal.

³ *Kuloch* – shirin kulcha.

* * *

Sham' yorutub ev ich-u toshini,
Ev iyasi ko'prak uzub boshini.

* * *

Bas kishiga umr xushi yor emish,
Yor degan yori vafodor emish.

Yorki, oyini vafo yo'q anga,
Sham' kibidurki, ziyo yo'q anga...

Yorki, bor anda vafo – yor bil,
Umr degan yori vafodor bil.

* * *

Har kishi olamda erur yorsiz,
Bir sadafedur duri shahvorsiz.

* * *

Yo'q hunari yolg'uz esa, yuz kishi,
Qayda kishi sonida yolg'uz kishi?!

* * *

Bo'lmasa ishq, ikki jahon bo'lmasun,
Ikki jahon demaki, jon bo'lmasun.

Ishqsiz ul tanki, aning joni yo'q,
Husnni netsun kishikim, oni yo'q.

* * *

Ishq erur durr-u ko'ngul durj anga.

* * *

Ishq ayon qilmoq erur husn ishi,
O'ylakim o't sham' ila yoqqay kishi.

Har nechakim husn dilovezroq¹,
Ishq o'ti el ko'ngli aro tezroq.

Lutf-u tarovat nechakim gulda ko'p,
Hasratidin g'ulg'ula bulbulda ko'p.

* * *

Mushkil emas ishqqa jon o'rtamak,
O'tg'a ne dushvor jahon o'rtamak.

* * *

Oshiq o'zin kim desa, oshiq emas,
Borcha kishi ishqda sodiq emas.

* * *

Har kishikim, tuzluk erur peshasi,
Kajrav² esa charx ne andeshasi?!

* * *

Yo'l necha tuz, yo'lchig'a maqsad qarib³,
Xamlig'idin tushsa yiroq yo'q ajib.

* * *

Sham' bo'yi tuz kelib ayvon aro,
Shohidi bazm⁴ o'ldi shabiston aro.

¹ *Dilovez* – ko'ngilni oluvchi.

² *Kajrav* – egri yuruvchi.

³ *Qarib* – yaqin.

⁴ *Shohidi bazm* – bazm go'zali.

* * *

Rostdur ul kim, nazari to‘g‘ridur,
Kim iligi egridur, ul o‘g‘ridur.

Bo‘lsa ilik egrilik ichra samar,
El ani kesmakda tuz etgay magar.

Ko‘zki erur egri aning xilqati,
Birni iki ko‘rmak erur san’ati.

* * *

Kimki bu davronda qilur rostliq,
Yo‘qtur ishi g‘ayri kam-u kostliq.

* * *

Sham’ki, tuzluk bila masrur o‘lur,
Garchi erir, boshtin-ayoq nur o‘lur.

* * *

To reja chekmas yeriga bog‘bon,
Bog‘ hamon zebda, jangal hamon.

* * *

Molasiz ul tuxmki, dehqon sochar,
Suvni teng ichmas necha yakson sochar.

* * *

Ulki shior ayladi yolg‘on demak,
Bo‘lmas ani er-u musulmon demak.

Nechaki jahd aylasa kozib kishi,
Bir-ikki dast ilgari borg‘ay ishi.

* * *

Kimsaga har shevada qallobliq,
Andin erur yaxshiki, kazzobliq¹.

* * *

Kimki o'zi ayladi yolg'on so'zin,
Kizb², der el, chin desa, qolg'on so'zin.

* * *

Kimsaga yolg'onchi debon qolsa ot,
Bu ot ila chorlasalar o'z-u yot.

Sidq xitobi yana yonmas anga,
Chin desa ham, xalq inonmas anga.

Kimki chini el aro yolg'ondurur,
Yolg'oni chinlikka ne imkondurur?

* * *

Necha zarurat aro qolg'on chog'i,
Chin demas ersang, dema yolg'on dog'i.

* * *

Der edi: yolg'on demakim, shum erur,
Kizb tuz el ollida mazmum erur.

* * *

Har kishikim rostni bexost³ der,
Aytsa yolg'on dog'i el rost der.

¹ Kazzobliq – yolg'onchilik, makkorlik.

² Kizb – yolg'on, nayrang.

³ Bexost – beixtiyor, kutilmaganda.

* * *

So‘zda, Navoiy, ne desang, chin degil,
Rost navo nag‘mag‘a tahsin degil.

* * *

Dahr ishi to xalq ila bo‘lmish sitez,
Xordurur olim-u johil – aziz.

* * *

Toki jahon zulmni qilmish pisand,
Yerga tushar meva, yig‘och – sarbaland.

* * *

Razlg‘a – rif’at, bilik¹ ahlig‘a – ranj,
Tog‘ uza xoro-vu yer ostida – ganj.

* * *

Yaxshig‘a andin g‘am-u ozor erur,
Bog‘da gul hamnafasi xor erur.

* * *

Ko‘r, ne malakovashni qilib nafsi dun
Devi lain ollida xor-u zabun.

* * *

Ilmni kim vositai joh etar,
O‘zini-yu xalqni gumroh etar.

* * *

Olim agar joh uchun o‘lsa zalil,
Ilmi aning jahlig‘a bo‘lg‘ay dalil.

¹ *Bilik* – bilim.

* * *

Olim agar qat'i amal aylasa,
Ilmig'a shoyista¹ amal aylasa;

Solmasa ko'z jifai dunyo sari,
Boqmasa tuz dunyoyi foni sari;

Oni sharaf gavharining koni bil,
Gavhar-u kon, har ne desang oni bil.

* * *

Gulga to'ni yirtug'i ne bok erur?

* * *

Qaysi chibin kisvati² zarkordur³,
Yeridurur qaydaki murdordur.

* * *

Ilm, Navoiy, sanga maqsud bil,
Emdiki ilm o'ldi, amal aylagil.

* * *

Naf' yeturmakka shior aylading,
O'zungga ul naf'ni yor aylading.

Naf'ing agar xalqqa beshakdurur,
Bilki bu naf' o'zungga ko'prakdurur.

* * *

Naxlg'a dehqon chu berur parvarish,
Bo'lur anga meva-u gul bermak ish.

¹ *Shoyista* – muvofiq, munosib.

² *Kisvat* – kiyim, libos.

³ *Zarkor* – zarrin.

* * *

Ulki zarar shevasini tavr¹ etar,
Elga demakim, o'ziga javr etar.

Ulki ushatur bosibon shishani,
Qilmas ayoq zaxmidin andeshani.

Shu'la tushub xasg'aki tortar alam,
Chun oni kuydurdi, o'char o'zi ham.

* * *

Kimki falak sori otar toshini,
Tosh ila ozurda qilur boshini.

* * *

Haqki birov xilqatini qildi pok,
Sevmasa nopol el oni ne bok?

* * *

Mevag'a mag'z o'lsa, bo'lur po'st ham,
Kimsaga ham dushman o'lur, do'st ham.

* * *

Yaxshi-yomondin bari ermas jahon,
Lek yomon zohir-u yaxshi nihon.

Chunki yomon ko'prak emish, yaxshi oz,
Jazmki, oz o'lg'usidur yaxshi roz.

Haq so'zi dun xalqdin imkon emas,
Dev tili loyiqi Qur'on emas.

¹ Tavr – odat, shior.

Chunki erur asli yomon napisand,
Aylamas ul yaxshini aslo pisand.

* * *

Dunki yomon fe'li ango xushdurur,
Jazmki, el yaxshisi noxushdurur.

Bo'ldi chu el qilg'onig'a aybjo'y,
Mumkin emas bo'lmomog'i aybgo'y.

Ayb ko'zi chunki bo'lur tezbin¹,
Zahr ko'rар garchi erur angubin².

Ulki, xayoli bori fosiddurur,
Borchal saloh ahlig'a hosiddurur.

* * *

Yaxshig'adur ahli hasad zaxmati,
Naqdning o'g'ridin erur ofati.

* * *

Mehrki, ravshanliq etar fosh ani,
Kimga gunah ko'rmasa xuffosh ani?!

* * *

Suvki berur elga o'lumdin amon,
Tiyra qilur o'tg'a yetishgan zamon.

* * *

Xayr muyassar gar emas il³ bila,
Naf' tegurmak ham o'lur til bila.

¹ *Tezbin* – tez ko'ruchchi.

² *Angubin* – asal.

³ *Il* – qo'l.

* * *

Ma'dani inson guhari so'zdurur,
Gulshani odam samari so'zdurur.

* * *

Odami ersang, demagil odami,
Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami.

* * *

Ulki kishi o'lmagidin shod erur,
Go'rkan-u¹ g'osil-u² jallod erur.

* * *

Mo'r terar har neki, sochqay kishi,
Bo'ldi tirik go'rga kirmak ishi.

* * *

Kimniki taxt uzra qilur arjmand,
Taxta uza oqibat aylar najand³.

* * *

May ne ajab tanni yabob⁴ aylasa,
Sel ne tong uyni xarob aylasa.

* * *

Bodag'a ko'rguzsa kishi xiraliq⁵,
Aql charog'ig'a berur tiraliq.

¹ Go'rkan – go'rkov.

² G'osil – o'likni yuvuvchi.

³ Najand – 1) xor, past; 2) parishon, g'amli.

⁴ Yabob – xarob.

⁵ Xiraliq – bu yerda: mayl ko'rsatish, berilish.

* * *

Kimgaki jonondin erur jon aziz,
Hayfki, qilg‘ay ani jonon aziz.

* * *

Sahni gulistonki, samar yo‘q anga,
Bir sadafedekki, guhar yo‘q anga.

* * *

Gulshani umr ichra xazon-u bahor.

* * *

Umr erur taqvi-yu toat uchun,
Tengri buyurg‘ong‘a itoat uchun.

Toat-u taqvi nechakim xushdurur,
Lek yigitlik chog‘i dilkashdurur.

* * *

Bo‘lsa g‘aming, joninga solma alam,
Bir g‘am erur bas, yemagil ikki g‘am.

* * *

Shod ani bil dahrda – kim g‘am yemas,
Dahr ishi chun g‘am yegali arzimas.

Chunki jahon bog‘i vafosizdurur,
Umr guli anda baqosizdurur.

Bog‘ki, vardig‘a baqo bo‘lmaq‘ay,
Vardki, bog‘ig‘a vafo bo‘lmaq‘ay.

* * *

Umrki, xorijdurur o‘tgan ishi,
Har neki o‘tti – anga yetmas kishi.

Kelmaganidin dog‘i oqil demas,
Ne desun ul ishniki, ma’lum emas.

* * *

Yaxshilik ar aylamasang ish chog‘i,
Aylamagil bori yomonliq dog‘i.

* * *

Borchadin ahbob yuzi xushdurur.

* * *

Asra o‘zungni birov ozoridin,
Kimsaga ozurdaliq izhordin!

* * *

Adl ila olam yuzin obod qil,
Xulq ila olam elini shod qil.

* * *

Bil munikim, umr vafosizdurur,
Davlat ila joh baqosizdurur.

* * *

Dahr binosini xarob anglag‘il,
Ne ko‘runur anda, sarob anglag‘il.

* * *

Jumla jahon fonyi mutlaqdurur,
Boqiyi mutlaq tilasang Haqdurur.

* * *

Shohki, ish adl ila bunyod etar,
Adl buzuq mulkni obod etar.

* * *

Nafskim, ul ayshi mudom istagay,
Sanga gunah, o'ziga kom istagay.

* * *

Necha ulug' ersa gunah xirmani,
Elga berur oh-u nadomat ani.

* * *

Jurm o'tikim, shu'lasi payvast erur,
Uzr sirishki suyidin past erur.

* * *

Lutf-u karam garchi erur dilpazir¹,
Qahr-u siyosat ham erur noguzir².

* * *

Necha marazg'a gar erur sud qand,
Nechaga ham zahr erur sudmand.

* * *

Bormoq uchi birla chu chiqmas tikan,
Ignal bila qutular andin badan.

* * *

Poyadin ortuq kishi ursa qadam,
Biymi yiqilmoqdur-u ranj-u alam.

¹ Dilpazir – yoqimli, dilga xush keluvchi.

² Noguzir – nochor, noiloj.

* * *

Kimniki, inson desang, inson emas,
Shaklda bir, fe'lda yakson¹ emas.

* * *

Kimniki, aylay der esang mahraming,
Ko'p sinamay aylamgil hamdaming.

G'aflat aro xush ko'rubon xush dema,
Voqif o'lub, so'ngra pushaymon yema.

* * *

Gulga sahar vaqtি berur jilva bog‘,
Kechga yetushsa terar o‘g‘lon-ushog‘.

* * *

Nosihi sodiqki, erur beg‘araz,
Bil anga olamda topilmas evaz.

* * *

Bilki kishi o‘lmadi taqdirisz.

* * *

Shomi ajal uyida yotmas kishi,
Umr kuni go‘rga botmas kishi.

* * *

Ikki qadam yong‘ucha yetgach alam,
Sa'y qil-u ilgari qo‘y bir qadam.

* * *

Ani nazm etki, tarhing toza bo‘lg‘ay,
Ulusqa mayli beandoza bo‘lg‘ay.

¹ *Yakson* – teng, barobar, bir xil.

* * *

Har kishi ko‘zinki tama’ ochti keng,
Qatra-u daryo erur ollida teng.

Olib-u izhori shikoyat qilib,
Ko‘pni oz o‘rnida hikoyat qilib.

* * *

Bor esa Rustamcha birov quvvati,
Hotami Toyicha aning himmati.

Ilgida Qoruncha bo‘lub ganj-u mol,
Topmoq erur xalq rizosin mahol.

* * *

Biyiklik keldi himmatdin nishona –
Ki, himmatsizni past etti zamona.

* * *

Xush ermas el so‘ngincha raxsh surmak,
Yo‘likim, el yugurmishtur yugurmak.

* * *

Bu bo‘ston sahnida gul ko‘p, chaman ko‘p.

* * *

Ne so‘zkim, bilmagaylar ibtidosin¹,
Xush ermas necha xub etsang adosin.

* * *

Birovga qismat oz bo‘ldi bag‘oyat,
Birovg‘a baxshish o‘ldi benihoyat.

¹ Ibtido – boshlash, boshlanish.

* * *

Baquo ayvoni ko‘p oliv emastur,
Havodisdin jahon xoli emastur.

* * *

Chamanda sarv bas ra’no shajardur,
Yo‘q andin naf”, chunkim besamardur.

Shajarkim, juz latofat shevasi yo‘q,
O‘tun o‘rnidadur gar mevasi yo‘q.

Yog‘indin gar bulut yetkurmasa sud,
Havoda ul hamon-u bir qalin dud.

* * *

Agar o‘t o‘chsa, bo‘lmas g‘ussa yutmoq,
Chu axgar qoldi, osondur yorutmoq.

* * *

Ki, gardun yetti qasridur vafosiz,
Jahonning to‘rt fasli ham baqosiz.

* * *

Nechakim aql piri zufunundir¹,
Havas atfoli ilgida zabundir.

* * *

Itikrak² esdi chun gulshan shamoli,
Chamanni borcha guldin qildi xoli.

¹ Zufunun – donishmand, ilm-u fazilat sohibi.

² Itikrak – tezroq, o‘tkirroq.

* * *

Birovkim topsa shahlig‘din rayosat¹,
Tuzuk bo‘lmas ishi qilmay siyosat.

* * *

Shah ar tig‘i siyosat qilmasa tez,
Chekilgay xalq aro yuz tig‘i xunrez².

* * *

Agar zolimg‘a yo‘qtur shohdin bok,
Erur ul xushdil-u mazlum – g‘amnok.

* * *

Qariliq aybini yoshursa bo‘lmas.

* * *

Havas bo‘lsa qarig‘a navjavonliq³,
Xijolat zohir aylar sargaronliq⁴.

* * *

Saqol oqi o‘lumga peshravdур⁵,
Tiriklik sabzasi uzra qiravdур.

Ani uzmak yigit bo‘lmoq g‘amida,
Saqol yulmoqdurur o‘z motamida.

Iki-uchni yulub, yuz aylagan resh,
Topar besh-olti kundin so‘ng o‘n-o‘n besh.

¹ *Rayosat* – raislik, boshliqlik.

² *Xunrez* – 1) qon to‘kuvchi; 2) zolim, sitamgar.

³ *Navjavon* – yosh, yosh yigit.

⁴ *Sargaron* – gangigan, dovdiragan, boshi aylangan.

⁵ *Peshrav* – peshvo, rahnamo.

* * *

G‘arazkim makr-u hiylat birla qori,
Yonaolmas yigitlik ko‘yi sori.

* * *

Yigitlik ayshi bisyor o‘ldi, bisyor,
Qariliq ranji dushvor o‘ldi, dushvor.

* * *

Chu yo‘qtur e’timod umr ishiga,
Qachon o‘lmoq yaqin¹ ermas kishiga.

* * *

Yigit istar qariliqning navidi²,
Qarig‘a yo‘q yigit bo‘lmoq umidi.

* * *

Qariliq dardi bedarmondur oxir.

* * *

Biri ulkim, chu yo‘q umr e’timodi,
Yigit-qarig‘a tengdur zulm-u dodi.

* * *

Giyah yuz ming bo‘lur bo‘stonda barbod,
Vale yuz yil turar bir sarvi ozod³.

* * *

Kichiklarga kichikdur umr asosi,
Ulug‘larg‘a ulug‘roqdur qiyosi.

¹ *Yaqin* – aniq.

² *Navid* – xushxabar.

³ *Sarvi ozod* – tik va baland sarv.

* * *

Dedi: har ishki qilmish odamizod,
Tafakkur birla bilmish odamizod.

* * *

Ko‘ngul dardig‘a darmondur nasihat,
Qiloli ulcha imkondur nasihat.

* * *

Quyoshni zarra yoshurmoq bo‘lurmu?
Hubob uzra tengiz turmoq bo‘lurmu?

* * *

Hunarni asrabon netkumdur oxir,
Olib tufroqqamu ketkumdur oxir?!

* * *

Gar o‘lsa tarbiyat kam yo ziyoda,
Tabiat aylamas tag‘yiri zoda¹.

* * *

Xirad dehqoni mundog‘ nuktae der –
Ki: «Dona sochqoli yaxshi kerak yer».

* * *

Manga ne yor-u ne oshiq havasdur,
Agar men odam o‘lsam, ushbu basdur.

* * *

Yilon netgay urub nish ajdahoni,
It urmak birla yonmas korvone.

¹ Zoda – 1) tug‘ilgan; 2) farzand.

* * *

Xatodin xoli ermas odamizod,
Erur Haq ishda sahv¹ etmoqdin ozod.

* * *

Qamishliq ichra chun o't tushdi nogoh,
Qurug'-o'l kul bo'lur bo'lg'uncha ogoh.

* * *

Kishi gar ko'ksini yuz pora qilsun,
Falak bedodig'a ne chora qilsun?!

Aning bedodidin kim bo'lsa noshod²,
Qilur jonig'a bedod uzra bedod.

* * *

Chaqilsa barq olam ichra bebok³,
Tura olg'aymu o'trusida xoshok?

* * *

Oqil qazog'a aylamas kin.

* * *

Hayvon beh vafosiz odamidin.

* * *

Jahondin, rahrav ersang, bog'la mahmil⁴ –
Ki, osoyish yeri ermas bu manzil.

¹ *Sahv* – xato, yanglish.

² *Noshod* – g'amgin, xafa.

³ *Bebok* – 1) botir, qo'rqmas; 2) zolim, shafqatsiz.

⁴ *Mahmil* – bu yerda: tayyorgarlik ko'rmoq.

* * *

Uyekim, bir nafasdin bo'lsa barbod,
Ne qo'ysun oqil andog' uyga bunyod?!

* * *

Kishining necha ko'prak gavhari pok,
Aning bedodidan ko'prak alamnok¹.

Chu asli pok gavhar keldi yoqut,
Teshib bag'rini qon aylar anga qut.

Quyoshkim koinot andin olur nur,
Qilur har tun qaro tufroqqa mastur.

* * *

Fatila dog' uchun o't solsa hardam,
Agarchi kuydurur, lekin kuyar ham.

* * *

Yilondin kimga zaxmi bo'lsa hodis,
Hamul zaxm-o'q bo'lur qatlig'a bois.

* * *

Nechuk qilg'ay bir ish ahli maoni –
Ki, sudi oz-u ko'p bo'lg'ay ziyoni?

* * *

Harif ermasdurur xorog'a shisha,
Chu tushti o't, kuyar xirmon hamisha.

* * *

Baliq holi bu bo'lg'ay suvdin ayru –
Ki, tolpinmoqdin o'lg'ay istabon su.

¹ *Alamnok* – alamli.

* * *

Xirad har kimgakim, Haqdin atodur,
Bu ishda e'tiroz etmak xatodur.

* * *

Emas el royi birla hukmi taqdir,
Nekim taqdir, anga bo'lmish ne tadbir?!

* * *

Yangi oy badrliqdin¹ keldi mahjur²,
Quyoshdin har kecha kasb etmasa nur.

* * *

Quyoshliq istasang, kasbi kamol et,
Kamol ar kasb etarsen, bemalol et.

* * *

Kishi ta'limdin topsa malolat,
Topar ilm ahli ollinda xijolat.

* * *

Birovkim qilsa olimlarg'a ta'zim,
Qilur go'yoki payg'ambarg'a ta'zim.

Hadis o'lmish nabidin bo'yla hodis –
Ki, olim keldi payg'ambarg'a voris.

* * *

Erur sen shoh – agar ogohsensen,
Agar ogohsen sen – shohsensen.

¹ *Badr* – to'lin oy, o'n to'rt kunlik oy.

² *Mahjur* – ayrilib qolgan, mahrum, yiroq.

* * *

Shahekim, ilm nurin topti zoti,
Aning to hashr qoldi yaxshi oti.

Sikandar topti chun ilm-u hunarni,
Ne yanglig‘ oldi ko‘rgil bahr-u barni¹.

* * *

Vagar ilm ichra bo‘lmay birga qone’,
Baridin bahravar bo‘lsang, ne mone’?!

* * *

Qayu jismeki, oning sihhati yo‘q,
Qilurg‘a Tengri amrin quvvati yo‘q.

* * *

Qani Tahmuras-u² Jamshid-u Zahhok³ –
Ki, har bir oldi olam mulkini pok?

Nazar qilkim, olib nettilar oxir,
Nekim borin solib kettilar oxir.

* * *

Kishidin yaxshi ot qolg‘ay jahonda.

Qila olg‘oncha ul bo‘lsun shioring –
Ki, yaxshi ot qolg‘ay yodgoring.

¹ *Bahrubar* – quruqlik va suv, ya’ni butun dunyo.

² *Tahmuras* – qadimgi Eronning peshdodiyalar sulolasiga mansub ikkinchi hukmdor.

³ *Zahhok* – peshdodiyalar sulolasiga mansub beshinchchi hukmdor.
U ming yil hukmronlik qilgan emish.

* * *

Vagar hikmatqa bo'lsa iltifoting –
Ki, bo'lsun Nuh umricha hayoting.

* * *

Mufid¹ ashayog'a doim ishtig'ol² et,
Vale bor ishda mayli e'tidol et.

* * *

Nekim bo'lsa mizojingg'a guvoro³,
Anga ko'p mayl qilma oshkoro.

* * *

Bu so'zni ahli hikmat debdurur xub,
«Yamondin oz behkim, yaxshidin ko'p».

* * *

G'izo bo'lsa mufid-u tab' rog'ib⁴,
Bas et tab'ing hanuz o'lg'onda tolib.

Bu dog'i topmag'uncha hazmi komil,
Badanni qilma ortuq yukka homil⁵.

Agar hayvon suyidur g'ayri maqdur⁶,
Erur gar me'da qilmas hazm, ma'zur.

* * *

Ignat uchi birla jazb etib nam,
Kim bahr suyini aylagay kam?!

¹ *Mufid* – foydali.

² *Ishtig'ol* – mashg'ullik, shug'ullanish.

³ *Guvoro* – tez hazm bo'ladigan, yoqimli.

⁴ *Rog'ib* – xohlovchi, talab qiluvchi, moyil.

⁵ *Homil* – ko'taruvchi.

⁶ *Maqdur* – belgilab qo'yilgan, taqdir.

* * *

Quyoshkim, soldi olam ichra yog[‘]du,
Yetishti pashshadin Anqog[‘]a tegru¹.

Vale yuz muncha gar nur o[‘]lsa ma[’]lum,
Ne ma[’]lum aylagay xuffosh ila bum?²

* * *

Danilarg[‘]a³ birovkim zarfishondur⁴,
Eshak ollig[‘]a to[‘]kmak za[’]farondur.

* * *

Har tab[‘]ki, zoti o[‘]lsa mahrur⁵,
Oz hirqat⁶ etar tanini ranjur.

* * *

Za[’]f ichra tabiat o[‘]lsa mushfiq,
Behroqki⁷, tuman tabibi hoziq!⁸

* * *

Beishq ulusqa kom uyqu,
Ishq ahlig[‘]adur harom uyqu.

* * *

Davlat ishi sa[’]y birla ermas.

¹ *Tegru* – ...gacha, ...ga qadar.

² *Bum* – boyqush, boyo[‘]g[‘]li.

³ *Dani (y)* – tuban, pastkash, razil, yaramas.

⁴ *Zarfishon* – zar sochuvchi.

⁵ *Mahrur* – haroratli, isitmasi bor.

⁶ *Hirqat* – bu yerda: g[‘]am, qayg[‘]u.

⁷ *Behroq* – yaxshiroq, afzalroq.

⁸ *Hoziq* – mohir, bilimdon.

* * *

Ishq o‘ti ko‘ngulni kuydurur chog‘,
Man‘ig‘a su quysalar, bo‘lur yog‘.

* * *

Befoyda ish natija bermas.

* * *

Gar ursa tikan ayog‘inga nesh,
Ko‘nglung ayog‘ing uchun bo‘lur resh.

* * *

Odam bila vahsh keldi kam jins,
Odamg‘a ham odam o‘ldi hamjins.

* * *

O‘tgandin shikva¹ qilsa bo‘lmas,
Har negaki o‘tti, yetsa bo‘lmas.

* * *

Har uydaki, bo‘lsa itga manzil,
Bo‘lmas malak ul uy ichra nozil.

* * *

Pardasini g‘uncha aylasa chok,
Barbod etar oni charxi bebok.

* * *

Pashsha kim-u pillik xayoli?!

Yo mo‘rg‘a sherlik majoli?!

¹ *Shikva* – shikoyat, nolish.

* * *

Har dardki, Haq kishiga berdi,
Ham Haqdin aning davosi erdi.

* * *

Tadrij ila tifl o'lur xiradmand,
Sokinlik ila qamish bo'lur qand.

* * *

Yuz yil kishi umr agar tilar bil –
Kim, sabr kerakdur anga yuz yil.

* * *

Xirman sari tushsa bir sharora¹,
Kuymakdin emastur anga chora.

* * *

It kimsaga bevafolig‘ etmas,
Boshin olib o‘zga sori ketmas.

* * *

Oshiqki, erur ishida sodiq,
Ma’shuq bo'lur boshida oshiq.

* * *

Oshiqki, murodi kom bo‘lg‘ay,
Oshiqliq anga harom bo‘lg‘ay.

* * *

Xush davlat erur visol shomi,
Ochilmasa subhi hajr domi.

¹ Sharor – uchqun, alanga.

* * *

Parvonani ishq etmasa mast,
Urg‘aymu o‘zini o‘tqa payvast?

* * *

Kuygan kishi ko‘rguzur nishona.

* * *

Bo‘l banda ato-anog‘a yakson –
Kim, Haq dedi validayn ehson¹.

Qulluqlarin ayla rasm-u odat,
Kavnayn² aro bil muni saodat.

* * *

Cheksha gunah o‘ti shu’la payvast,
Qil oni nadomat ashkidin past.

* * *

Toatqa riyoni aylasang zam,
Sog‘inmag‘il oni fisqdin kam.

* * *

Jurmeki, yonidadur nadomat,
Ul keldi najotdin alomat.

Kim cheksa qadah niyoz birla,
Xushroqki, riyo namoz birla.

* * *

Zinhorki, zulm rishtasin uz,
Insof ila adl qasrini tuz.

¹ *Volidayn ehson* – ota-onal ehsondir.

² *Kavnayn* – ikki olam: bu dunyo va oxirat.

* * *

Mazlumg‘a zolim etsa bedod,
Dodin berib, ayla xotirin shod.

* * *

Ne zulm qilurg‘a elni qotqil¹,
Ne zulm qo‘lin o‘zung uzotqil.

* * *

El molin o‘zungga mol bilgil,
Xaylin o‘zunga iyol bilgil.

Ya’ni nechuk asralar iyoling²,
Mahfuz³ nechukki, tursa moling.

Andoq bori el iyolin asra,
O‘g‘ridin amonda molin asra.

* * *

Ko‘r bilmas yorug‘ ekanni quyosh,
Kunduz uchmog‘ g‘arib erur xuffosh.

* * *

Nimjon pashsha ko‘nglum ayla gumon,
Zo‘ri nafsim nechukki pili damon⁴.

* * *

Bo‘lmasa so‘z ajab balo bo‘lg‘ay,
Bulbuli nutq benavo bo‘lg‘ay.

¹ *Qotmoq* – bu yerda: qo‘shilmoq, aralashmoq.

² *Iyol* – ahli oila, bola-chaqa.

³ *Mahfuz* – saqlangan, yashirilgan.

⁴ *Damon* – dahshatli.

* * *

Barcha mazhabda fosiqi ranjur
Yaxshiroqdurkim, zohidi mag'rur.

* * *

Bir deganni iki demak xush emas,
So'z chu takror topti, dilkash emas.

* * *

Kimki, ishq ichra mubtalo bo'lg'ay,
Har ne juz vasl, anga balo bo'lg'ay.

* * *

Ishq ila kimki, oshno bo'lди,
Ofiyat mulkidin jalo bo'lди¹.

* * *

Bodakim, olsa ixtiyor eldin,
Ne ajab chiqsa, har ne bor eldin.

* * *

Keldi husn iqtizosi istig'no.

* * *

Shohkim, qahri o'lsa mustavli²,
Ul diyor ichra bo'lmamoq avli.

* * *

Kim o'zi ko'ksin o'zi chok etgay,
O'zi jonin o'zi halok etgay.

¹ *Jalo bo'lmoq* – ketmoq, tark etmoq.

² *Mustavli* – g'olib.

* * *

Ishq o'tdur, muolaja – xas.

* * *

Kim havodis yeridurur olam,
Ondin ozod emas bani Odam.

* * *

Kimsakim, topmag‘ay taom ila bahr,
No‘sh qilg‘ay taom o‘rnig‘a zahr.

* * *

Ne ajab yaxshi so‘zdur ul masalo¹ –
Ki: «balo yaxshiroqki bimi balo».

* * *

Yo‘l yururda tavaqquf² aylama hech.

* * *

Garchi kelmak erur irodat ila,
Lek ketmak erur ijozat ila.

* * *

Odami joiz ul-xato bo‘lmish,
Bu xato borchag‘a ravo bo‘lmish.

* * *

Xushdurur bog‘i koinot guli,
Barchadin yaxshiroq hayot guli.

¹ *Masalo* – maqolda.

² *Tavaqquf* – to‘xtash, mahtal bo‘lish.

* * *

Har kishikim birovga qozg‘oy choh,
Tushgay ul choh aro o‘zi nogoh.

* * *

Rostdin nukta yaxshiroq ermas.

* * *

Ishki tahqiqi bejihat bo‘lg‘ay,
So‘rmoq oni ne maslahat bo‘lg‘ay?

* * *

Kishi o‘lgonga tig‘i kin surmas,
Bir o‘lukni ikita o‘lturmas.

* * *

Kimgakim Nuh bo‘ldi kishtibon¹,
G‘am yo‘q ar ko‘kka mavj urar to‘fon.

* * *

Kimki taxtin aning samog‘a chekib,
Yerga urmoq uchun havog‘a chekib.

* * *

O‘g‘li zangiga² hurvash ko‘runur.

* * *

She‘r ham chun kishigadur farzand,
Ko‘ngliga qut-u bag‘rig‘a payvand.

¹ *Kishtibon* – kemachi.

² *Zangi* – qora tanli, habash.

* * *

Chun o‘g‘ul aybini ato ko‘rmas,
Ko‘rsa ham qilg‘onin xato ko‘rmas.

* * *

Ganj ummididin ulki, ko‘rgay ranj,
Ranji zoye’ emas chu topqay ganj.

* * *

Tog‘ ilakim kesak qilur navard,
Chiqorur urg‘och-o‘q o‘zidin gard.

* * *

Xas agar o‘t bila sitez aylar,
Ham o‘zidin ul o‘tni tez aylar.

* * *

Birovkim erur ganj vayronasi,
Ne g‘am ajdaho bo‘lsa hamxonasi?!

* * *

Yarim yo‘lda qolmoq erur mushkil ish.

* * *

Birovkim anga himmat o‘ldi baland,
Erur olam ahli aro arjmand.

Kishi naqdi gar bir qaro mis emas,
Agar himmati bo‘lsa, muflis emas.

Ani angla mufliski, yo‘q himmati,
Chu yo‘q himmati, yo‘q aning hurmati.

* * *

Bashar xayliga til tutulg'on zamon,
Tiriklik hamon keldi, o'lmak hamon.

* * *

Birovkim, aning himmati yo'qturur,
G'aniy bo'lsa ham hurmati yo'qturur.

* * *

Kishikim biyikrakdurur himmati,
Jahon ahlidin kamdurur mehnati.

* * *

Ne qushkim, baland o'lsa parvoz anga,
Halok istamas novakandoz¹ anga.

* * *

Necha zulmkim, elga zolim qilur,
O'z-o'ziga ko'prak qilur – Haq bilur.

* * *

Shahekim, anga adl bunyod o'lur,
Natija bukim, mulki obod o'lur.

* * *

Qachon qilsalar kin iki narra² sher,
Yaqinkim, bo'lur navjuvonroq daler.

* * *

Ishekim, zarar naf'idin bo'lsa ko'p,
Emas qilmog'i aql ollinda jo'b³.

¹ Novakandoz – o'q otuvchi, mergan.

² Narra – erkak.

³ Jo 'b – ma'qul, munosib, loyiq.

* * *

Rafiq iki darvesh beishtiboh,
Erur yaxshiroqkim, aduv iki shoh!

* * *

Karam aylasang, borchha xaylingdurur,
Qilurlar ne xizmatki, maylingdurur.

* * *

Ki, gar davr og‘u berdi Dorog‘a¹ bot,
Skandarga ham bermas obi hayot.

* * *

Erur it safolig‘a qo‘ymoq somon –
Hamon-u so‘ngak otqa solmoq hamon.

* * *

Bo‘riga kishi tu’ma qilsa qo‘zi,
O‘ziga balo hosil aylar o‘zi.

* * *

Eshak ollida za’faron xub emas –
Ki, nodong‘a zarbaft marg‘ub emas.

* * *

Yilonni kishi tutsa sarko‘fta²,
Balodin qilur o‘z yo‘lin ro‘fta³.

¹ *Doro* – kayoniylar sulolasining oxirgi hukmdori bo‘lgan Eron shohi (vafoti – 330).

² *Sarko ‘fta* – boshi yanchilgan.

³ *Ro ‘fta* – supurilgan, tozalangan.

* * *

Ushoq qand un, tuzga monand erur,
Va lekin biri tuz, biri qand erur.

* * *

Qurur chun gulsitondin ayrildi gul –
Ki, bir luqma etdur badansiz ko‘ngul.

* * *

Qachon nafs o‘z komin etti havo,
Qilur elni ko‘p naf’din benavo.

* * *

Agar ganj erur bahr-u kondin fuzun,
Va gar xud xizona jahondin fuzun,

Chu naf’e emastur alardin gumon,
Alardur hamon, tosh-u tufrog‘ hamon.

Agar naf’din bo‘lsa maxzan yiroq,
Aning la’lidin xora ko‘p yaxshiroq.

Kim, ul xora bir tosh erur bezasar,
Vale ganjdin elgadur yuz xatar.

Kishiningki benaf’ erur maxzani,
Jahon ahlidur sarbasar dushmani.

* * *

Birovkim tama’ rishtae qilg‘usi,
Aning birla bo‘g‘zidin osilg‘usi.

* * *

Tariqi adovat shior aylasang,
Zalolat yo'lin ixtiyor aylasang.

Ne ollingg'a keltursa charxi dani¹,
Ko'rар lahza, ko'rgil o'zungdin ani.

* * *

Masaldurki: «ming qarg'ag'a bir kesak».

* * *

Safar qilmag'on odami xomdur,
Sovuqda to'ngar kimga oromdur.

Falak sayrdin poya topti baland,
Sukun qildi tufrog'ni xor-u najand.

* * *

Talab yo'lida qil shitobandaliq² –
Ki, jo'yandag'a keldi yobandaliq.

* * *

Ne qilg'olikim kimga niyatdurur,
Burun shart anga qobiliyatdurur.

* * *

Ki, har ranjdin so'ng bo'lur rohate,
Taabsiz tuyassar emas ishrate.

* * *

Xusho ulki, umrin taboh etmadi,
Qilur ishlarin qilmayin ketmadi.

¹ Charxi dani – tuban falak.

² Shitobanda – tez yuruvchi.

* * *

Nekim o‘z qoshingda erur noravo,
Ulusqa ani ko‘rma aslo ravo.

* * *

Bo‘rigaki qo‘y bo‘g‘mog‘i peshadur,
Shubon mehnatidin ne andeshadur?

* * *

Ki, har kim ayon etsa yaxshi qilig‘,
Yetar yaxshiliqdin anga yaxshilig‘.

Va gar kimsadin zohir o‘lsa yomon,
Ko‘rar har nekim, zohir etti hamon.

* * *

Iyol-u vatan uzra to joni bor,
Kishi harb¹ etar toki imkoni bor.

* * *

Qayu kimsakim, so‘zni yolg‘on degay,
Inonmaslar ar nassi qur‘on² degay.

* * *

Necha bo‘lsa yolg‘onchi el arjmand,
So‘zi anjuman ichradur napisand.

* * *

Agar tuzluk o‘lsa kishining ishi,
Ne vasf aylay olg‘ay ishini kishi.

¹ *Harb* – urush, jang.

² *Nassi Qur‘on* – Qur‘ondan dalil.

* * *

Ki: «Yolg‘on angakim farovondurur,
Chini ham el ollinda yolg‘ondurur.

Agar qilmadi el himoyat sanga,
O‘zungdin keraktur shikoyat sanga».

* * *

Birovkim erur rostliqdin yiroq,
Aningdek kishi bo‘lmaq‘on yaxshiroq.

* * *

Taammul bila kom paydo bo‘lur,
Tahammul bila g‘o‘ra halvo bo‘lur.

* * *

Jahon chorbog‘iki dilkashdurur,
Yigitlik bahori bila xushdurur.

* * *

Ko‘ngulniki, qish g‘uncha yanglig‘ qilur,
Bahor o‘lsa, ul gul kibi ochilur.

* * *

Shak ermaksi, har kimsakim joni bor,
Hayotin tilar ulcha imkoni bor.

* * *

Ne xush debdur ul dardmandi firoq –
Ki: «Oz baxt – ko‘p husndin yaxshiroq».

* * *

Saxo shohdin elga matlub erur,
Siyosat ham o‘z o‘rnida xub erur.

* * *

Agar sher chog'lik ayon qilsa zo'r,
Erur sher – sher oxir-u mo'r – mo'r.

* * *

Necha kimsa hijronda cheksa alam,
Agar oqibat vasl topsa, ne g'am?

Nechakim, firoq ofati jon erur,
Anga so'ngra vasl o'lsa, oson erur.

* * *

Vatan tarkini bir nafas aylama,
Yana ranji g'urbat havas aylama.

* * *

O'zungizni mehnat kuni ovutung,
Ne g'am kelsa davrondin, oson tutung.

* * *

Agar g'am yetib, kimsa topsa alam,
Qilur bir g'amin kuch bila iki g'am.

* * *

Muni anglakim oshkor-u nihon,
Kiro aylamas¹ g'am yemakka jahon.

* * *

Musofir bo'l, ammo vatan ichra bo'l,
Tila xilvat-u anjuman ichra bo'l.

¹ Kiro aylamas – arzimas.



Erur qushqa xushroq chu boqsang ayon,
Murassa¹ qafasdin tikan oshyon.



Tabiatqa har neki odat bo'lur,
Chu eskirdi odat, tabiat bo'lur.



Kishi topsa hamdardini nogahon,
Ne imkon nihon dardi qolmoq nihon?



Nekim Tengrining g'ayri – yod etmagil,
Chu yod aylasang, e'timod etmagil.



Xaloyiqqa ko'rma qilib benavo,
O'zungga ravo ko'rmaganni ravo.



Sipah tutsa olamni andoqli dud,
Zafar bermasa Haq taolo ne sud?



Ulus ranjig'a ehtimom aylama,
O'zungga bu otni harom aylama.



Ne taqdirdur, daf'i oson emas,
Kishi ko'rmayin oni imkon emas.

Murassa' – qimmatbaho toshlar bilan bezalgan.

* * *

Qayu shahki, yo‘q adl ila dod anga,
Ulus birla mulk o‘lmas obod anga.

* * *

Agar shahg‘a ish lutf-u gar kin erur,
Eliga hamul sheva oyin erur.

* * *

Chu yoshlarg‘a bog‘lansa maktab yo‘li,
Bo‘lur gum ulug‘larg‘a mazhab yo‘li.

* * *

Saxo ul emasturki, har bulhavas,
Mubohot uchun sarf etar siym-u bas.

Ajab yo‘qli, yormoq sochar bexirad¹,
Kumush banddin ram qilur dom-u dad².

Tilab dog‘i bergen saxovat emas,
Saxo ahli oni saxovat demas.

* * *

Sanga bor esa so‘z bilurdin mazoq,
O‘zum sori boqma, so‘zum sori boq!

* * *

Taxayyul aro borchha bir nav’ emas,
Hadisin iki kimsa birdek demas.

¹ *Bexirad* – aqlsiz, nodon.

² *Dom-u dad* – yirtqich va uy hayvonlari.

* * *

So‘z oningdururkim, talabgoridur,
Aningdur guharkim, xaridoridur.

* * *

Navosiz ulusning navobaxshi bo‘l,
Navoiy yomon bo‘lsa, sen yaxshi bo‘l.

* * *

Chu davrong‘a yo‘qtur baqo-u sabot,
Ham andin erur bevaforoq hayot.

* * *

So‘zungniki, yaxshi ko‘rarsen o‘zung,
Ko‘runmas yomon, chun erur o‘z so‘zung.

Qoshingda sening garchi ko‘p vazni bor,
Chu bor o‘z so‘zung, yo‘q anga e’tibor –

Ki, so‘z zodai tab’-u farzand erur,
Chu farzand erur, jong‘a payvand erur,

Necha zodai tab’ erur napisand,
Kishining o‘z ollida bor arjmand.

Necha bum farzandi manhusdur¹
O‘z ollida xushjilva tovusdur.

* * *

So‘z bila el vasl ganjin topmamish.

¹ *Manhus* – bexosiyat, shum, badbaxt.

* * *

Notavonlarg'a ko'p ofat qo'ydi yuz.

* * *

Dargahekim, pashshadur anda uqob¹,
Pashshadin ojizroq elga ne hisob?

* * *

Ko'zgu ul bo'lg'ayki, tortib yuz balo,
Bergosen lavhi zamiringga jilo.

* * *

Har kishini qildi Haq bir ish uchun,
No'sh uchun birni-yu birni nish uchun.

* * *

Odam o'lg'on zebi zohirdin demas,
Kimki ondin faxr etar, odam emas.

* * *

Noz ila husn o'ldi shohidlar ishi,
Dard-u mehnat birla xushtur er kishi.

* * *

Zebi zohir juz tamasxur² kelmadi,
Kimsaga ondin tafoxur³ kelmadi.

* * *

O'zni bir hosilliq ish birla ovut.

¹ *Uqob* – burgut.

² *Tamasxur* – masxara bo'lish.

³ *Tafoxur* – faxrlanish, g'ururlanish.

* * *

Haq nasib etkondin etmak ijtinob,
Aql qonunida bo‘lg‘aymu hisob?

* * *

Er kirar er sonig‘a himmat bila,
Er emas faxr aylag‘on ziynat bila.

* * *

Erga xulq-u fe'l erur zeb-u kamol.

* * *

Xub emas bir shah qo‘yub boshig‘a toj,
O‘zga shahga zohir etmak ehtiyoj.

* * *

Har kishi ermen debon ermu bo‘lur,
Kelmas ishni ilkidin dermu bo‘lur.

* * *

Chun saromad¹ keldi erlikda xuro‘s,
Haq anga berdi necha zebo aro‘s.

* * *

Jahlimiz ko‘ptin-ko‘p-u ilm ozdin-oz.

* * *

Qatraning daryog‘a nedur nisbati?

* * *

Ishq ahlidin yiroqdur maslahat.

¹ Saromad – oldingi, ilg‘or, birinchi.

* * *

Kimki oshiqdur – anga jondin ne bok?!

* * *

Gar kerak oshiqqa o‘z jononidin,
Sahl erur kechmak jahon-u jonidin.

* * *

Kimki bo‘lsa ahli ishq, ey peshvo,
Bil ani mahzi adab, koni hayo.

* * *

Ishqni maxfiy tutarlar ahli roz,
Fosh etardin ko‘p qilurlar ehtiroy.

* * *

El na hush etgay tama’ devonadin,
Yo adab savdo bila afsonadin.

* * *

Neki amr etsa pariruxsora yor,
Oshiqi devonag‘a ne ixtiyor!

* * *

Odami bo‘lsa vafo andin yiroq,
It vafo bobida andin yaxshiroq.

* * *

O‘lturmog‘ bila ochilmas ish.

* * *

Tosh otar tifli laimi¹ shumbaxt,
Soya solur boshig‘a oliy daraxt.

¹ *Laim* – xasis, past, nokas.

* * *

Umr etar ta'jil-u¹ fursat asru oz.

* * *

Har jamoatqaki yo'qtur peshvo,
Yo'lg'a ermastur qadam qo'yamoq ravo.

* * *

Pashsha Anqog'a bo'la olmas ravon.

* * *

Tan nechakim bor esa past-u dijam²,
Himmat ar bo'lsa biyik – ondin ne g'am?!

* * *

Kimki oshiq ermas, ul ermas kishi.

* * *

Har kishiga ishq-u himmat bo'lsa yor,
Bunya-u³ tan za'fig'a ne e'tibor.

* * *

Sen jahon mulkida ming yil bo'ldi tut⁴,
Dard-u hasrat birla oxir o'ldi tut.

* * *

Jurm lavsidin⁵ kishi ma'sum emas,
Bo'yla ismat⁶ kimsaga ma'lum emas.

¹ *Ta'jil* – shoshilinch, tezlik, zudlik.

² *Dijam* – ezilgan, xor, g'amgin, azob chekkan.

³ *Bunya* – kishi tabiaty, yaratilish, borliq.

⁴ *Tut* – bu yerda: bilmoq, hisoblamoq, e'tibor qilmoq.

⁵ *Lavs* – kir, iflos.

⁶ *Ismat* – poklik, soflik, ma'sumlik.

Odam avlodini qilmaydur Iloh,
O'ylakim, ondin bosh urmaydur gunoh.

Bo'lmasa sendin gunoh, ey bexabar,
Afv-u rahmat kimga bo'lg'ay choragar¹?

Jurmdin ulkim yuzi bo'lg'ay sarig',
Tavba aylar ul sarig'lig'ni orig².

* * *

Kim, borig'a hamnafasdur nafs-u ruh,
Bastalig³ birdin yetar, birdin futuh⁴.

Uldur erkim, salb⁵ etib nafsoniyat,
G'olib etgay zotig'a ruhoniyat.

Har kishida bu sharaf bizzot⁶ erur,
Ul kishi pok-u sharif avqot⁷ erur.

* * *

Toki nafsingdur qarin⁸?
Anga bor iblis shogirdi kamin⁹.

Nafs oncha ko'nglunga solur g'urur,
Yetkurur oncha zamiringg'a futur¹⁰ –

¹ *Choragar* – chora qiluvchi.

² *Orig* – bu yerda: sof, pokiza.

³ *Basta* – bog'liq, band.

⁴ *Futuh* – ochilish, yechilish.

⁵ *Salb* – yo'q qilish.

⁶ *Bizzot* – shaxsan, bevosita, zotida, aslida.

⁷ *Avqot* – vaqtlar, paytlar, damlar.

⁸ *Qarin* – yaqin.

⁹ *Kamin* – bu yerda: kichik.

¹⁰ *Futur* – halokat, shikast.

Kim, oni shayton ko‘rub, hayron qolur,
Vodiyi hayratda sargardon qolur.

Qaysi ishdinkim yetar nafsingg‘a kom,
Topar ondin komini shayton mudom.

Nafs hukmi birlakim qilsang har ish,
Irjayur ul komdin shaytong‘a tish.

Demakim, shaytong‘a bo‘lmishmen zalil,
Ul sening nafsingni aylabtur vakil.

Har ne ul qilmoq kerak, nafsing qilur,
Har nekim shayton bilur, ul ham bilur.

Har ne dunyog‘a taalluqdur umur¹,
Sarbasar shaytong‘a doxildur zarur.

Nafsing andoq haqqu mulk etmish ani –
Kim, erur darj² anda yuz shayton fani.

Nafsing oncha ko‘rguzur talbisni³ –
Kim, qilur sharmanda yuz iblisni.

Senki yor o‘ldung bu yanglig‘ nafs ila,
Ne uchun shaytondin etkaysen gila.

* * *

Qilma ul ishkim, yetib nuqson sanga,
Oxiri bo‘lg‘ay vuboli⁴ jon sanga.

¹ *Umur* – ishlar, narsalar, hodisalar.

² *Darj* – kiritish, qayd etish.

³ *Talbis* – hiyla, nayrang, aldash.

⁴ *Vubol* – uvol, gunoh.

* * *

Siym sevgonkim, anga pobast o‘lur,
Shavqidin oning ajoyib mast o‘lur.

O‘yladurkim, johil-u nodon mast,
Siymdin but aylab, o‘lg‘ay butparast¹.

* * *

O‘ylakim, tan quvvati – jon sihhati.

* * *

Husni zohirning vafosi yo‘qturur,
Ham sabot-u ham baqosi yo‘qturur.

Oshiq-u shaydo bo‘lurg‘a arzimas,
Ishqidin rasvo bo‘lurg‘a arzimas.

* * *

Ming yil o‘lsang dahr aro yo bir zamon –
Kim, ajal oxir sanga bermas amon.

* * *

Yo‘l borurg‘a xotiri xurram kerak,
Dahr ranjidin malolat kam kerak.

* * *

G‘amsizni kishi demas kishi.

* * *

Bo‘lmasa maqbul kirdori oning,
Balki teng bo‘lsa yo‘q-u bori oning.

¹ *Butparast* – butga sajda qiluvchi.

* * *

G‘am yeridur mehnatobodi jahon,
Onda har nav’ elga bir g‘amdur ayon.

Olam ahli ko‘nglida olam g‘ami,
Xud budur ko‘prak bani Odam g‘ami.

* * *

Gavhar o‘ldi himmat-u odam – sadaf,
Bu sadafqa ul guhardindur sharaf.

Himmat o‘lsa, masnadu joh o‘lmasun,
Mulk-u mol onchaki, dilxoh¹ o‘lmasun.

Kimki, yo‘qdur naqddin piroyasi²,
Bilki himmat basdurur sarmoyasi.

Kimsaga hech ishta gar yetmas ilik,
Bok yo‘q, gar himmati bo‘lsa biyik.

Erga himmatdin berur yuz e’tibor,
Joh-u mulk-u ganjning ne daxli bor?!

Mol o‘lub, gar yo‘q kishining himmati,
Ma’ni ahli ollida yo‘q izzati.

Kimki, bo‘lg‘ay himmati oliy anga,
Bar berur bu himmat iqboli anga.

Shahg‘a himmat past agar berdi Xudo,
Xushroq ondin himmati oliy gado.

¹ Dilxoh – ko‘ngil istagi, dilga yaqin.

² Piroya – zeb, ziynat, bezak.

Podshohkim, bo'lsa himmat ichra past,
Keldi himmatlig' gadodin zerdast¹.

Odamining zebi himmatdindurur,
Nafsning ta'dibi himmatdindurur.

* * *

Ming adad qo'y birla muzduri² shubon³,
Muzd olib, qo'ylarg'a bo'lmish posbon.

Chun bo'ridin qo'yga yetsa tumtaroq⁴,
Ul shubondin onda bir it yaxshiroq.

Ulki ganji bor-u yo'q himmat anga,
Bu shubon-u qo'ygadur nisbat anga.

* * *

Odamig'a yaxshi ko'p avsof⁵ erur,
Lek alarning ashrafi⁶ insof erur.

Kimgakim insof yo'q – inson emas,
Munsiz atvorida juz nuqson emas.

Bu sifat keldi eranlarning⁷ ishi,
Bo'yla davlatqa yetishmas har kishi.

¹ *Zerdast* – mag'lub, mute'.

² *Muzdur* – mardikor.

³ *Shubon* – cho'pon.

⁴ *Tumtaroq* – ofat.

⁵ *Avsof* – vasflar, maqtovlar, ta'riflar.

⁶ *Ashraf* – ulug', sharafli.

⁷ *Eran* – mard; valiy, avliyo.

Odam ermas ulki, noinsof erur,
Odam insof istamas – ammo berur.

Istamaslar eldin insof ahli haq –
Kim, alarg‘a keldi munsiflig¹ sabaq.

Bermay insof, ulki insof istadi,
O‘zni noinsofi mutlaq ayladi.

* * *

Har ne mahbub aylasa, marg‘ub erur.

* * *

Noqis uldurkim, o‘zin komil degay,
Komil ulkim, nuqsin isbot aylagay.

O‘z kamolidin demas ahli kamol,
Ahli nuqson ichradur bu qil-u qol.

* * *

O‘z kamolidin demaktur mahzi jahl²,
Jahldin so‘z aytqoy, kim bo‘lsa ahl³.

* * *

Kim o‘zin komil ko‘rar, noqisdur ul,
Nuqs bermaydur kamoli sori yo‘l.

* * *

Barcha qushning oti bulbul bo‘lmadi,
To azaldin ishq aro kul bo‘lmadi.

¹ *Munsiflig* – insofilik, adolatlilik.

² *Mahzi jahl* – o‘ta nodonlik.

³ *Ahl* – bu yerda: loyiq, munosib.

* * *

O't aro kuymakdin o'zga chora yo'q.

* * *

Barchadin ashrafki, ul inson erur –
Kim, kamolida xirad hayron erur.

* * *

Oshiqekim, ishqida bo'lg'ay kamol,
Tengdurur ollida hijron-u visol.

* * *

Bordun inson zotida oncha sharaf –
Kim, yamon axloqin etsa bartaraf,

Bo'lmasa fir'avnlig'ning¹ payravi,
Qolmas ondin juz sifoti musaviy².

* * *

O'z vujudingg'a tafakkur aylagil,
Har ne istarsen o'zungdin istagil.

* * *

Anglakim so'z o'zga, ma'ni o'zgadur,
Ma'ni ongmos shog'il³ ulkim so'zgadur.

* * *

Olim kerakkim, muttaqiy⁴ bo'lsa va ogoh.

¹ *Fir'avnlig'* – mutakabbirlik, zo'ravonlik.

² *Musaviy* – Musoga xos, ya'ni Muso alayhissalom kabi.

³ *Shog'il* – mashg'ul, shug'ullanuvchi.

⁴ *Muttaqiy* – taqvodor.

* * *

Hoziq tabibi xushgo'y¹ tan ranjig'a shifodur,
Omi-yu tund-u badxo'y² el jonig'a balodur.

* * *

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qutmish ranj
ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz gajn ila.

* * *

Usrukki, elga buyurg'ay hushyorliq – uyquv-chidekdurki, elga buyurg'ay bedorliq.

* * *

Avval bir yo'lni bormoq kerak, andin so'ngra elni boshqarmoq kerak. Yo'lni yurmay kirgan itar va g'ayri maqsud yerga yetar.

* * *

Voiz uldurki, majlisig'a xoli kirgan to'lg'ay va to'la kirgan xoli bo'lg'ay.

* * *

Ulki, buyurub o'zi qilmag'ay, hech kimda foyda va asar aning so'zi qilmag'ay.

* * *

Dehqonki, dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo'lin ochar.

¹ *Xushgo'y* – shirinso'z, xushmuomala.

² *Badxo'y* – fe'li yomon, to'ng, dag'al.

* * *

Sening nasibangni yana birov yemas, aning ham
nasibin sen yemak mumkin emas.

* * *

Tengri razzoqlig¹in bilgan ro'zi uchun g'am
yemagay va qassomlig¹in¹ bilgan kishi rizq oz-u
ko'vida so'z demagay.

* * *

Qanoat chashmayedurkim, suvi olmoq bila qu-
rumas va maxzanyedurkim, naqdi siypamoq² bila
o'ksumas³ va mazra'yedurkim tuxmi izzat va shavkat
bar berur va shajaryedurkim⁴, shoxi istig'no va
hurmat samar kelturur.

* * *

Kimki bir shiddat aro sabr-u tahammul ayladi,
Baxt aning nishini no'sh-u xorini gul ayladi.

* * *

Tavozu' xalqni kishi muhabbatig'a shefta⁵ qilur.

* * *

Adab kichik yoshlig'larni ulug'lar duosig'a sa-
zovor etar va ul duo barakati bila umrdin barxurdor⁶.
Kichiklar mehrin ulug'lar ko'nglig'a solur va ul
muhabbat ko'ngulda muabbad⁷ qolur.

¹ *Qassom* – taqsim qiluvchi, rizq beruvchi.

² *Siypamoq* – sarf qilmoq.

³ *O'ksumoq* – kamaymoq, ozaymoq.

⁴ *Shajar* – daraxt.

⁵ *Shefta* – oshiq, mubtalo.

⁶ *Barxurdor* – bahramand.

⁷ *Muabbad* – abadiy, doimiy.

* * *

Muhabbatg‘a zeb-u piroya adabdin yetar va mavaddatg‘a¹ ravnaq va baho tarkidin ketar. Adab va tavozu’ ko‘zgusig‘a jilo berur, ikki jonibdin² yorug‘luq yetkurur.

* * *

Tavozu’ va adab ahliga ta’zim va hurmat etar va ul donani ekkan bu mahsulni jam’ etar.

* * *

Ishq axtaredur³ duraxshanda⁴, bashariyat ko‘zi nur va safosi andin va gavharedur raxshanda⁵, insoniyat tojining zeb va bahosi andin.

* * *

So‘zkim, dard choshnisidin⁶ harorati bo‘lmaq‘ay, nursiz sham’ bil va sarvarsiz jam’⁷ gumon qil. Hosilekim, so‘zga bu taronadur va mundin o‘zga barcha afsonadur va so‘z ishq so‘zidur va ko‘ngulda hayot nash’asi ishq o‘zidur.

* * *

So‘zki ma’nosida ishq o‘ti nishoni bo‘lmaq‘ay, Bir taharruksiz badan onglaki, joni bo‘lmaq‘ay.

¹ *Mavaddat* – do‘stlik.

² *Jonib* – tomon, taraf.

³ *Axtar* – yulduz.

⁴ *Duraxshanda* – porloq, nurli.

⁵ *Raxshanda* – jilvalanuvchi, tovlanuvchi.

⁶ *Choshni* – maza, bahra, lazzat.

⁷ *Jam’* – bu yerda: el, jamoat.

* * *

Saodatmand agar olim bo'lsa, nodonlar so'zi
anga mujibi ibrat va e'tibor; besaodat johil bo'lsa,
olim so'zidin anga or. Va filhaqiqat, johillikdan
besaodatliqroq ne nima bor?!

* * *

Olam ahli o'zлari qoshida mahbubdurlar va
so'zлari o'z ilaylarida marg'ub. Va bashar jinsi
bu sifatg'a majbuldurlar¹ va nafslari beixtiyor bu
da'vog'a mashg'ul.

* * *

Hech kim o'z ko'nglig'a g'am tilamas va o'z
nafsig'a alam istamas.

* * *

Barchag'a o'zgadin o'zi azizroq va o'zgalar
so'zidan o'z so'zi lazizroq.

* * *

Olam yaxshiligini kishi o'zidin darig' tutmas,
ammo o'zga kishiga yovutmas².

* * *

Eranlar yasanmog'ikim, namoyish uchundur,
xotinlar bezanmagidekdurki, oroyish uchundur. Agar-
chi bu ma'no ikkalasiga qabihdur, ammo eranlarg'a
ko'prak mujibi tafzihdur³.

¹ Majbul – tug'ma, tabiatan, tabiiy.

² Yovutmoq – yaqinlashtirmoq.

³ Tafzih – rasvolik, beobro'lik, sharmandalik.

* * *

Shahvatparast – nafsg‘a zerdast.

* * *

Eshitmak elni to‘la qilur va aytmoq xoli,
eshitguvchi va aytguvchining budur holi.

* * *

Ko‘p degan ko‘p yangilur¹ va ko‘p yegan ko‘p
yiqilur.

* * *

Qolab² amrozining³ moddasi ko‘p yemakdur va
qalb amrozining moddasi ko‘p demak. Ko‘p demak
so‘zga mag‘rurluq va ko‘p yemak nafsg‘a ma’mur-
luq.

* * *

Xudparastki, ne qilg‘oni o‘ziga xubdur, bu
nopolisand fe’lg‘a tafovut ko‘pdur.

* * *

Zarradin ming qatla kamrakkim quyoshlik ursa
lof,
Kimki bo‘lsa zarraye aqli bilurkim der gazof.

* * *

Takabbur shayton ishi va biyiklik nodon ishi.

¹ Yangilmoq – adashmoq, yanglishmoq.

² Qolab – qolip, tan, badan.

³ Amroz – kasalliklar, bemorliklar.

* * *

Xudpisand¹ ishi – bari elga napisand.

* * *

Bilikig‘a mag‘rur, bilur elga ma'yub va Tengrig‘a maqhur².

* * *

Butparastliq yaxshiroqkim, xudparastliq.

* * *

Ehson sifati saodati abad bil, fitna va ofat ya'juji³ daf'ig‘a sad⁴ bil. Insoniyat bog‘ining dilpisandroq shajari ehsondur va odamiyliq konining arjumandroq gavhari ham ehsondur. Jam'i pisandida⁵ sifot va mustahsan⁶ holat ehsong‘a tobe'dur va aning zimnida mundarij⁷ va voqe'dur; ul barcha yaxshiliqlarg‘a jome'⁸ va bari yaxshiligidlar, filhaqiqat⁹, anga roje’.

* * *

Saxovat insoniyat bog‘ining borvar¹⁰ shajaridur, balki ul shajarning mufid samaridur. Odamiyliq kishvarining bahri mavjvari, balki ul mavj bahrining

¹ *Xudpisand* – o‘z manfaatini ko‘zlovchi, xudbin.

² *Maqhur* – 1) qahrga duchor; 2) mag‘lub.

³ *Ya'juj* – qiyomat arafasida paydo bo‘lib, yer yuzini fasod va xarobaga to‘ldiradigan ko‘p sonli buzg‘unchi qavmning nomi.

⁴ *Sad* – devor, g‘ov, to‘sinq.

⁵ *Pisandida* – yaxshi, ma’qul, nazarga tushgan.

⁶ *Mustahsan* – ma’qul; tahsinga sazovor.

⁷ *Mundarij* – darj etilgan, doxil qilingan.

⁸ *Jome’* – jamlovchi.

⁹ *Filhaqiqat* – haqiqatan, darhaqiqat.

¹⁰ *Borvar* – sermeva.

samin gavhari. Saxovatsiz kishi – yog‘insiz abri¹ bahor va royihasiz² mushki totor³. Mevasiz yig‘och hamon-u o‘tun hamon va yog‘insiz bulut hamon-u tutun hamon. Saxosiz kishi birla gavharsiz sadafning bir hukmi bor. Dursiz sadaf bila o‘lub qurug‘on kashaf⁴g‘a ne e’tibor?!

* * *

Saxiy bulutdur – ishi xirmon, balki maxzan bermak. Baxil mo‘rdur – da’bi xo‘sha, balki dona termak.

* * *

Saxovat odamig‘a badandur va himmat anga ruh va himmat ahlidin olamda yuz ming futuh.

* * *

Birta o‘tmakni⁵ ikki bo‘lub, yarmin bir ochg‘a berganni saxiy de; o‘zi yemay barin muhtojga ber-ganni axiy de.

* * *

Mahallida bergen eski chorpora⁶ to‘n – saxovat va bemahal bergen zarboft chorqab⁷ – shaqovat⁸.

¹ Abr – bulut.

² Royiha – is, hid, bo‘y.

³ Mushki totor – toza va xushbo‘y mushk.

⁴ Kashaf – toshbaqa.

⁵ O‘tmak – non.

⁶ Chorporsa – yirtiq to‘n.

⁷ Chorqab – kiyim, ziynat.

⁸ Shaqovat – odamiylik sifatini yo‘qotish.

* * *

Desangki, taoming zoye' bo'lmag'ay – yedur va tilasangki, libosing eskirmagay – kiydur.

* * *

Karam bir jafokashning shiddati yukin ko'tarmakdur va ani ul suubatdin o'tkarmakdur. Birovning mehnati xori hamlin¹ qabul qilmoq va ul tikan no'gidin² guldek ochilmoq va ul qilg'onning tilga kelturmamoq va og'izg'a olmamoq va ul kishiga minnat qo'yhamoq va aning yuziga solmamoq.

* * *

Karam va muruvvat ota va onadurlar, vafo va hayo ikki hamzod³ farzand.

* * *

Har ko'ngulnikim, vafo maskan qilur, hayo ham qilur va har maskandakim, ul topilur, bu ham topilur.

* * *

Vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q.

* * *

Komillar – ahli hayo va noqislar behayo.

* * *

Hilm inson vujudining favoqihlig⁴ bog'idur, odamiyliq' olamining javohirlig' tog'i. Hilmni

¹ *Ham* – ko'tarish, bardosh berish.

² *No 'g* – uch.

³ *Hamzod* – tug'ishgan.

⁴ *Favoqihlig* – mevali, samarali.

havodis daryosida kishilik kemasining langari desa bo'lur va insoniyat mezoni toshig'a nisbat qilsa bo'lur. Axloq shaxsning og'ir baholig' libosidur va ul libos jinsining sangin¹ debosi.

* * *

Mazlumg'a baxshoyish² ko'rguzki, zolimdin osoyish ko'rgaysan. Zerdastlarg'a naf' yetkur, agar tilasangki, zabardastlardin zarar ko'rmagaysen. Xiradmand muxolafatdan qochar va muvofaqatg'a muloyamat eshigin ochar.

* * *

Saodatmand ul yigitdurki, shahvat mayli qilmas, besaodat qarining ilgidan xud hech ish kelmas.

* * *

Har nekim, bebaqodur, anga ko'ngul bog'lamoq xatodur.

* * *

Olimekim, ilmi erdi beamal,
Yo g'aniykim, molig'a buxl erdi yor –
O'ldilar yuz hasrat-u armon bila,
Elga bo'ldi ishlaridin e'tibor.

* * *

Yamonlarg'a lutf-u karam, yaxshilarg'a mujibi zarar va alam. Mushukka rioyer – kabutarg'a

¹ Sangin – mustahkam, chidamlı.

² Baxshoyish – ehsonlar, in'omlar.

ofatdur. Shag'ol jonibin tutmoq – tovuq tuxmin qurutmoqdur.

* * *

Xayrsiz g'aniy – yog‘insiz sahab va amalsiz olim – dobbaki¹, anga yuklagaylar kitob.

* * *

Baxilning molin asrardin mehnati qattig‘ va hasudning fe‘li uyotidin ayshi achchig‘kim, ul o‘z anosidin² zalildur va bu o‘z qilig‘idin alil.

* * *

Kishi molidin nekim bahra oldi aningdur, har nekim asradi o‘zganing. Zahmat bila topqoningni o‘zungdin ayama va mehnat bila yiqqoningni do‘srlar bila, dushmanlar uchun asrama.

* * *

Mol uldurkim, el andin topsa bahr,
Dushman andin topsa tengdur no‘sh-u zahr.

* * *

Har dashvor ishki, mol sarf etmak bila muyassardur – qilmasang jong‘a xatardur, sarfin g‘animat bil va salomat sori azimat qil.

* * *

Diram bila bo‘la olsa zararni qaytarmoq,
Xatodurur kishi ul ishda aylamat ta’til³.

¹ Dobba – yuk tashiydigan hayvon.

² Ano – ranj, mashaqqat.

³ Ta’til – bu yerda: bo‘shlik, sustkashlik.

* * *

Har ish kifoyatidakim, saranjomida tashaddud¹ bo‘lg‘ay va tab‘g‘a taraddud, ul jonibni tutkim, emgagi ozroq yuz bergay va ozori kamrak xotirg‘a kirg‘ay.

* * *

Nodon pandida g‘alat muqarrardur va dushman nasihatida firib mutasavvardur². Andin bozi yema va mundin o‘zungga bozi berma.

* * *

Ul ko‘ngulgakim, qattig‘ so‘zdin reshdek bo‘lg‘ay, achchig‘ til zahrolud³ neshdek bo‘lgay. Ko‘ngulda til sinoni⁴ jarohati butmas, anga hech nima marham yerin tutmas. Har ko‘ngulki, til sinonidin jarohatdur ham yumshoq so‘z va shirin til anga marham va rohatdur. Muloyim takallum vahshiylarni ulfat sari boshqarur, fusungar afsun bila yilonni to‘sukdin chiqorur.

* * *

Husn-u jamolsiz kishi shirin kalom esa,
Sayd aylar elni nukta fasohat bila desa.

* * *

Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz.

¹ *Tashaddud* – kuchayish, zo‘rayish.

² *Mutasavvar* – ko‘ringan, tasavvur qilingan.

³ *Zahrolud* – zahar aralashgan, zaharli.

⁴ *Sinon* – tig‘, nayza.

* * *

Harzago‘ykim¹, ko‘p takallum surgay, itdek-durkim, kecha tong otquncha hurgay.

* * *

Yamon tillik andoqkim, el ko‘ngliga jarohat yet-kurur, o‘z boshig‘a ham ofat yetkurur.

* * *

Har kimki, so‘zi yolg‘on, yolg‘oni zohir bo‘lg‘och uyolg‘on. Yolg‘onni chindek aytquvchi suxanvar² – kumushni oltun ro‘kash³ qiluvchi zargar. Yolg‘on afsonalarda uyqu kelturguvchi, yolg‘onchi uyquda takallum surguvchi. Yolg‘on aytguvchi g‘aflatdadur. So‘zning asnofi⁴ bag‘oyat cho‘qdur⁵, yolg‘ondin yamonroq sinfi yo‘qdur.

* * *

Birovkim, yolg‘on so‘zni birovga bog‘lag‘ay, o‘z qaro bo‘lg‘on yuzin yoqlag‘ay, kabira⁶ gunohdur. Oz so‘z hamki o‘trukdur⁷, zahri muhlikdur, agarchi miqdori o‘ksukdur.

* * *

Zahrning oz esa miqdori dog‘i muhlikdur,
Ignaning no‘gi zaif ersa dog‘i ko‘r qilur.

¹ *Harzago‘* (*y*) – safsata sotuvchi, behuda gaplarni gapiruvchi.

² *Suxanvar* – fasohat va balog‘at sohibi.

³ *Ro‘kash* – qalbaki, yasama, qoplama.

⁴ *Asnof* – turlar.

⁵ *Cho‘x* (*Cho‘q*) – ko‘p.

⁶ *Kabir* – katta, buyuk, ulug‘.

⁷ *O‘truk* – yolg‘on.

* * *

Ulki, so'zni bir yerdin yana bir yerga yetkurgay,
elning o'tgan gunohini o'z bo'ynig'a indurgay.

* * *

So'z terguvchining agar ulug'i, agar kichigi,
bilki, erurlar tamug' o'tining tutrug'i¹.

* * *

Dunyo dor ul-havodisdu² va anga ko'ngul
bog'lamoqqa g'aflat boisdur. Olam umrdek bevafodur
va aning davlatig'a e'timod qilmoq xato.

* * *

Qush to tamannoi xomg'a tushmas – sayyod
ilgida domg'a tushmas va anga to ajal qafasi eshigi
ochilmas, sayyod dom-u donasig'a mayl qilmas.

* * *

O'tdin isinurg'acha ovuch och,
Kuydurgudek anglasang, keyin qoch!

* * *

Yolg'onchi – unutquvchi va taammul va ehtiyot
yo'lidin kanora tutquvchi. Har kimki, so'zi chin
bo'lmag'ay, rostlar ko'nglida ul so'z qabuloyin³
bo'lmag'ay. Yolg'onchi so'zin bir-ikki qatla o't-
kargay, o'zga netgay? Yolg'oni zohir bo'lg'ondin

¹ Tutrug' – tutantiriq, tutatqi.

² Dor ul-havodis – hodisalar uyi.

³ Qabuloyin – qabul bo'lувчи.

so‘ngra anga rasvolig‘ yetgay va so‘zi e’tibori el ko‘nglidin ketgay.

* * *

Ko‘ngul maxzanining qulfi til va ul maxzanning kalidin so‘z bil.

* * *

Ko‘ngul holati so‘z degach bilgurur –
Ki, maxzanda dur yo sadafrezadur¹.

* * *

Chin so‘z – mo‘tabar, yaxshi so‘z – muxtasar².

* * *

So‘zida parishonliq, o‘zida pushaymonliq. So‘zki, fasohat zevaridin muzayyan emasdur, anga chinliq zevari basdur. Yolg‘onchi har necha so‘zida fasihroq, so‘zi qabihroq.

* * *

Tuz borg‘on maqsadg‘a yetti.

* * *

Ne so‘zdinki, yetgay birovga g‘ubor,
Ne lozimki, sen qilg‘asen oshkor.
Qo‘yaberki, qilsun ayon dushmani –
Ki, bordur adovat aduvning fani.

* * *

Xiradmand uldurkim, yolg‘on demas, ammo barcha chin degulik ham emas.

¹ *Sadafreza* – sadafning sinig‘i.

² *Muxtasar* – qisqa, lo‘nda, ixcham.

* * *

Yolg'on o'lsa muloyamatomez,
Vahshatangez chindin angla aziz.

* * *

Yamon-yaxshini Tengridin anglag'il,
Yamonni yamon, yaxshini yaxshi bil.
Yamonni agar yaxshi qilsang gumon
Erur yaxshini ham degandek yamon.

* * *

Sabr bila ko'p bog'lig' ish ochilur, ishda
oshuqqon ko'p toyilur, ko'p toyilg'on ko'p yiqilur.
Ishda oshuqmoq yosh o'g'lon ishidur, sabr bila ish
qilguvchi tajribalig' ulug' yoshlig' kishi ishidur.

* * *

Har kimsaki aylamas oshuqmog'ni xayol,
Yafrog'ni ipak qilur, chechak bargini bol.

* * *

Mastlar orasida bir hushyor – hushyorlar orasida
bir mast hukmi bor.

* * *

Ko'p deguvchi, ko'p yeguvchi – tomug' to'riga
oshuqub ketguvchi.

* * *

G'iybat deguvchi – najosat yeguvchi.

* * *

Er kishi ko‘p yasansa beva bo‘lg‘ay, bu sifat zuafog‘a¹ sheva bo‘lg‘ay.

* * *

Er kishiga zeb-u ziynat – hikmat-u donishdurur²,
Yaxshi kiymak birla xotunlarg‘a oroyishdurur.

* * *

Er kishikim, ko‘p yasang‘ay, xirad ahli aning aqlidin o‘sang‘ay³.

* * *

Xub yirtuq to‘n bila ham xub, gul yamog‘liq chaponi bila mahbub.

* * *

Kampir haram nozanini bo‘lurmu?

* * *

Kishig‘a bo‘lmasa o‘z sha’niga shoyista sifot,
Qilmasun ayb o‘zidekdin dog‘i andoq harakot.

* * *

Elning maxfiy aybin paydo qilmoq – o‘zin bee’timod va o‘zidekni rasvo qilmoqdur. Yo‘qkim, o‘zidekni rasvo qilmoq va o‘zining ham bu nav’ aybin oshkoror qilmoqdur.

¹ Zuafo – ayollar, xotinlar.

² Donish – ilm-ma’rifat.

³ O’sanmoq – bezmoq, zerikmoq.

* * *

El aybini ayturg'a birovkim, uzatur til,
O'z aybini fosh aylagali til uzotur, bil.

* * *

Ilm o'qub, qilmag'on amal maqbul,
Dona sochib, ko'tarmadi mahsul.

* * *

Kishiga necha kelsa mushkul hol,
Hikmat-u aql anga erur hallol¹.

* * *

Xiradmand pandini ko'rgan achig',
So'ngida pushaymonlig'i ne asig'.

* * *

Sayyodning baliqqa shast solmog'i nafs muddaosi
uchundur va baliqning ham qarmoqqa giriftor
bo'lmos'i ju² balosi uchun.

* * *

Bo'ldi sayyodg'au saydg'a nafs orzusi qayd,
Yo'qsa ne ul edi sayyod, ne bu erdi anga sayd.

* * *

Oz demak hikmatqa bois va oz yemak sihhatqa
bois. Og'izg'a kelganni demak nodon ishi va ollig'a
kelganni yemak hayvon ishi.

¹ *Halol* – yechuvchi, hal qiluvchi.

² *Ju'* – ochlik.

* * *

Ko‘p demak birla bo‘lmaq‘il nodon,
Ko‘p yemak birla bo‘lmaq‘il hayvon.

* * *

G‘olib dushman zabuning bo‘lsa, shod bo‘lma
va ishi andishasidan ozod bo‘lmakim, siyosatida
tahammul vojibdur va rioyatida¹ taammul.

* * *

Dushman rajou² xavfi desangkim, fan o‘lmaq‘ay,
Andoq tirilki, kimsa sanga dushman o‘lmaq‘ay.

* * *

Olimki, johilni muqobalag‘a³ kelturub, ilzom⁴
qilmog‘i havas bo‘lg‘ay, aning o‘ziga ushbu ihonat-
o‘q bas bo‘lg‘ay. Olim kerakki, o‘z ilmining poya va
miqdorin asrag‘ay, gavharni imtihon uchun toshqa
urmag‘ay.

* * *

Xorag‘a har kishikim, durri saminni urg‘ay,
Xirad anglarki, qayu biri birini sindurg‘ay.

* * *

Gavhar balchiqqa tushgan bila qiymati ushalmas
va o‘z bahosidin qolmas. Eshakmunchog‘ni tojg‘a
tikkan bila firuza yerin tutmas va hech kim aning
kambaholig‘in unutmas.

¹ *Rioyat* – bu yerda: saqlanish.

² *Rajo* – umid, tilak.

³ *Muqobala* – ro‘para kelish, qarshi chiqish.

⁴ *Ilzom* – mulzam, yengilish.

* * *

Zever bila shakli xub bo‘lmas,
Har qizki, erur yomon liqolig‘.
Har necha qorong‘u bo‘lsa hujra,
Sham’ anda bo‘lur fuzun ziyolig‘.

* * *

Qobilg‘a tarbiyat qilmamoq zulmdur va noqobilg‘a tarbiyat – hayf. Ani adami¹ tarbiyat bila zoye’ qilma va munga tarbiyatningni zoye’ qilma.

* * *

Qobilg‘a tarbiyat erur ul nav’kim, guhar
Tushsa najosat ichra yug‘ay kimsa ani pok.
Gar it uzumig‘a kishi may birla bersa suv,
Bu tarbiyat bila qila olg‘aymu ani tok.

* * *

Qila olg‘oncha ta’zim va adab binosin yiqma va
hayo va hurmat xilvatidin tashqari chiqma.

* * *

Iymong‘a erur nishon hayo birla adab,
Hurmat bila ta’zim saodatqa sabab,
Hayo-vu muaddab angakim, bo‘lsa laqab,
Maqsudig‘a kech yetsa ajab, angla ajab.

* * *

Fosiq bari millatda nodondur va pokravlar ora-sida nodonroq. Fisq bari tariqda yomondur va por-soliq² libosida yomonroq.

¹ Adam – yo‘qlik.

² Porso – taqvodor, xudojo‘y.

* * *

Hayo-vu adab birla tuzgil maosh,
 Yana ayla ta'zim-u hurmatni fosh.
 Ne el yori bo'lsang, alar rangi bo'l,
 Nechuk bor esang, tutqil ul sori yo'l.

* * *

Har g'aniyki, tirikligida ehsonidin ko'ngullarni shod qilmag'ay, o'lganidin so'ng ani kimsa duo bila yod qilmag'ay. Ehson tiriklikda yaxshi otdur, o'lgandin so'ng do'zax azobidin najot.

* * *

Kishida barcha axloqi hamida¹,
 Chu jam' o'ldi, qo'yarlar otin ehson.
 Biri andin saxodur, bir muruvvat,
 Bular gar yo'qtur, inson ermas inson.

* * *

Yaxshiliq va yomonliqni kim qildikim, jazo ko'rmadi?! Saloh va fasod tuxmin kim ektikim, o'rmadi?!

* * *

Yaxshiliq tuxmini sochg'ilkim, budur dehqong'a so'z:
 Har nekim, ekting bugun, borin hamon tut
 oni ko'z.

* * *

Bilmaganni so'rub o'rgangan olim va orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

¹ Hamida – yaxshi, go'zal.

* * *

Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib,
daryo bo‘lur.

* * *

Emgak tortib ilm o‘rgangan xiradmand.

* * *

Ilmdin oriy¹ ulusning johili xudkomasi²,
O‘rganurga jidd-u jahd etgan jahon allomasi.

* * *

Tinch ko‘ngul bila yovg‘on umoch yaxshiroqkim,
takalluf va mashaqqat bila qandin kuloch.

* * *

Ahbob, yigitlikni g‘animat tutungiz,
O‘zni qariliq mehnatidin qo‘rqtunguz.
Oyini adovat-u hasaddin o‘tunguz,
Har nav’ ila o‘zni necha kun ovutunguz.

* * *

Safar vodiysida musofir ayog‘ig‘a dard-u balo
tikanlari ko‘p sonchilur, lekin har tikandin maqsad
guli ochilur.

* * *

Yaxshidin yomonlar ham yomonlig‘ ko‘z tutmas,
yaxshi yomonlarg‘a ham yaxshilig‘ni unutmas.
Yaxshiliq qila olmasang, yomonliq ham bore qilma.

¹ *Oriy* – mahrum.

² *Xudkoma* – faqat o‘z manfaatini o‘ylovchi.

Yaxshiliqdan yomonlig‘ni yaxshiroq bilmasang, yaxshilarga qo‘sul, yaxshiliq tegrasig‘a evrula olmasang, yaxshilar tegrasiga evrul.

* * *

Sihat tilasang ko‘p yema, izzat tilasang ko‘p dema.

* * *

Yaxshi libos – tang‘a oroyish, yaxshi qo‘ldosh – jong‘a osoyish.

* * *

Molliq nodonning demagi, oltunluq chibinning yemagi ma’lum.

* * *

Fosiqdin hayo tilama, zolimdin vafo tilama.

* * *

Kular yuz bilan ato, saxo ustiga saxo.

* * *

Ishqsiz – kesak, dardsiz – eshak.

* * *

Har Yugurgan yovushmas, har ayrulg‘on qovushmas.

* * *

Xasm necha haqir bo‘lsa, ko‘ngul qo‘zg‘atur va xas necha ushoq bo‘lsa, ko‘z bulg‘atur.

* * *

Yaxshi bo'l yo yamon, ikkisi bo'lurmen degan hamon-u yamon hamon. Yamon bila yaxshi orasida ko'p farqdur, ikki kemaning uchin tutqon g'arqdur. Har qavm oyini bila zuhur qilsang alardinsen, alar yamon bo'lsa, sen – yamon va alar yaxshi bo'lsa, sen yaxshilardinsen.

* * *

Nodon do'stni ham do'st sonig'a kivurma.

* * *

Befoyda so'zni ko'p aytma va foydalig' so'zni eshiturdin qaytma. Oz degan – oz yengilur, oz yegan – oz yiqilur. Ochlig' hikmat sarmoyasidur va to'qlug' g'aflat piroyasidir. To'qlug' hirsin ko'nguldin yo'q qil, o'zung och bo'lib, bir ochni to'q qil. O'zungni zebo libos xayolidin o'tkar, libos zebolig'in tilasang, bir yalangni butkar. Libos har nechakim zebodur, kiyganingdin kiydurganining avlodur.

* * *

Ko'zni o'z aybingdin olma va o'zgalar aybig'a ko'z solma.

* * *

Aytur so'zni ayt, aytmas so'zdin qayt.

* * *

Xiradmand chin so'zdin o'zga demas,
Vale bari chin ham degulik emas.

* * *

Dono ilikdin borg'ondin so'z aytmas, o'tgan yigitlik orzu bila qaytmas.

* * *

* * *

Kafshsizlikdin malul bo‘lmag‘il, ayog‘sizlarga boqib shukr qil.

* * *

Kisangda agar diram yo'q, ko'nglungda kisabur'g'ami ham yo'q.

* * *

Agar oting yo'qtur, arpa g'amin yemassen.

* * *

Talab bo'stonida maqsud gullari kechrak ochilg'ondin ko'ngul g'unchasin xorxori malomat bila resh qilmoq munosib emas. Nedinkim, to taqdir chamanidin inoyat nasimi esib, mehnat xazonin ishrat bahorig'a mubaddal² qilmag'uncha maqsud guli ochilmog'ining imkonи yo'qdur. Mundoq bo'lg'ondin so'ng ta'jil sud qilmas va malolatdin g'ayri malomat ish ochilmas.

¹ *Kisabur* – kissavur, o'g'ri.

² *Mubaddal – almashgan, o‘zgargan.*

* * *

Agar yuz qatla bulbul cheksun afg'on.
Bahor o'lmay gul ochilmoq na imkon.

* * *

Do'stlar fikridin-u dushmanlar makridin bepar-volig' joiz ermas va bu ish nadomatidin o'zga natija bermas.

* * *

Kishi ota rizosin hosil qilsa, Tengri taolo rizosini ham hosil qilmish bo'lg'ay va ota g'azabig'a uchrasa, Tengri taolo g'azabig'a uchramish bo'lg'ay. Mundoq bo'lg'ondin so'ngra kishi nechuk ota rizosidin ayru dam urg'ay yo qadam qo'yg'ay?!

* * *

Farzand kerak zaiflig'ida otasig'a xizmat mahallin toptim deb, jonsiporliq¹ qilsa.

* * *

Kulekim, tiyra bo'lmish gulxan andin,
Erur ko'zgu jamoli ravshan andin.

* * *

To hirs-u havas xirmani barbod o'lmas:
To nafs-u havo qasri barafrod² o'lmas.
To zulm-u sitam jonig'a bedod o'lmas,
El shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas.

¹ *Jonsipor* – jonini fido qiluvchi, sadoqatli.

² *Barafrod* – yiqlish, buzilish.

* * *

So'zdurki, nishon berur o'lukka jondin,
So'zdurki, berur jong'a xabar jonondin,
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo'q andin.

* * *

Qardoshing emas ulki, qo'yub bosh sanga,
Davlat chog'i qilg'ay o'zni qo'ldosh sanga –
Kim, qildi qatig'liqda vafo fosh sanga,
Ul bo'ldi haqiqat ichra qardosh sanga.

* * *

Topting chu ayol, yaxshilig' yetkurgil,
O'rgat adab-u yaxshi qilig' yetkurgil,
Har necha adab bo'lsa qatig' yetkurgil,
Xaylingg'a adab qilib. asig' yetkurgil.

* * *

Oltin-kumush etma kasb davlat kundin –
Kim, tortar adab ulusni mehnat tunidin,
Gar yo'qtur adab, ne sud oltun unidin,
Elning adabi xushroq erur oltunidin.

* * *

Har kimgaki ko'p taom yemak fandur,
Bilgilki, najosatqa tani maskandur,
Qorning bila do'st bo'lmasang ahsandur¹,
Nevchunki, er o'g'lig'a qorin dushmandur.

* * *

Uch fe'l erur kishiga qotil oxir,
Qotilliq aro zahri halohil oxir,

¹ Ahsan – tahsin, ofarin.

Buxl angla birin, birin havo¹ bil oxir,
Qil ujbni ham alarg'a doxil oxir.

* * *

Hirs ofatini nafs havosi bilgil,
Qo'ymoq ani nafs muddaosi bilgil,
Nafsingg'a alam hirs balosi bilgil,
Kechmak mundin aning davosi bilgil.

* * *

Farzand ato qullug'in chu odat qilg'ay,
Ul odat ila kasbi saodat qilg'ay,
Har kimki, atog'i ko'p rioyat qilg'ay,
O'g'lidin anga bu ish siroyat qilg'ay.

* * *

Toat ko'pidin, ma'rifat ozi yaxshi.

* * *

El qochsa birovdin el yamoni bil oni,
Ahvolidan idbor² nishoni bil oni,
Fe'l ichra ulus baloyi joni bil oni,
Olam elining yamon yamoni bil oni.

* * *

Ozdi kishikim, bordi yamonlar sori.

* * *

Zolim kishining oqibati xayr o'lmas.

¹ *Havo* – bu yerda: 1) orzu, havas, mayl, ishtiyoq; 2) kibr, balandimog'lik.

² *Idbor* – baxtsizlik, tushkunlik, ishning orqaga ketishi.

* * *

Har kimki hasud erur sazodur hasadi,
Haqdin bo‘lg‘on yamon qazodur hasadi,
O‘z jonig‘a yetguncha balodur hasadi,
Balkim, anga dardi bedavodur hasadi.

* * *

Yo‘q fe’l kishiga yaxshiroq ehsondin.

* * *

Har kimki, chuchuk so‘z elga izhor aylar,
Har nechaki ag‘yordurur, yor aylar,
So‘z qattig‘i el ko‘ngliga ozor aylar,
Yumshog‘i ko‘ngullarni giriftor aylar.

* * *

Xub el bila suhbat tutubon xub o‘lg‘il,
Yaxshini talab qilg‘il-u matlub o‘lg‘il,
Shirin so‘z ila xalqqa marg‘ub o‘lg‘il,
Yumshoq de hadisingni-yu mahbub o‘lg‘il.

* * *

Mehnat arodur kushod topmoq bilgil,
Ranj ichradurur murod topmoq bilgil.

* * *

Har kimsa hasud bo‘lsa, rohatsiz o‘lur.

* * *

Har kimsadakim bo‘lsa qanoat, g‘am yo‘q.

* * *

Yigitlig‘da yig‘ ilmning maxzani,
Qarilig‘ chog‘i xarj qilg‘il ani.

* * *

Qaysi majlisdakim eshitsang so'z,
Bilgil ul so'z sanga amonatdur.
Gar ani o'zga yerda naql etsang,
Ul amonatg'a bu xiyonatdur.

* * *

Xalq aro yaxshiroq, deding, kimdur?
Eshitib, ayla shubha raf¹ andin,
Yaxshiroq bil ani ulus arokim,
Yetsa ko'prak ulusqa naf' andin.

* * *

Emas ul pahlavonki, o'z qadrin
Bosh uza eltibon nigen qilg'ay.
Pahlavon oni bilki yetsa g'azab
Nafsi ammorani zabun qilg'ay.

* * *

Onalarning oyog'i ostidadur
Ravzai jannat-u jinon bog'i.
Ravza bog'i visolin istar esang,
Bo'l onaning oyog'i tufrog'i.

* * *

To fasli bahor zebi olam bo'lg'ay,
Ul zeb ila bog' sabz-u xurram bo'lg'ay.

* * *

Sipehri dunshior juz talavvun² va rangomezliq
va ro'zgori buqalamundisor g'ayri duranglik³ va

¹ Raf' – bu yerda: uzoqlashtirish, yo'q qilish.

² Talavvun – beqarorlik, rang-baranglik.

³ Duranglik – ikki xillik, o'zgaruvchanlik.

hiylangizlik ermas uchun, lojaram ul biridin gohi
bisot bo'stoni rango-rang gullar bila muzayyandurur
va bu biridin gohi bo'ston bisoti gunogun yafrog'lar
bila mulavvan...

* * *

Ne bahorida shod bo'l chandon,
Aylabon o'zni gul kibi xandon,

Ne xazonida barg ayshini soch,
Yuz uza za'faron do'konin och.

* * *

Har neki varaqda erdi marqum,
Bo'lmish bo'lg'ay o'qurda ma'lum.

* * *

O'zligin oshiq agar do'st havosig'a berur,
Yordin har ne kelur, ruhig'a osoyish erur.

* * *

Alo, toki har shahki kom istagay,
Jahon mulki taxtin maqom istagay,

Mashaqqat esa ibtidosi aning,
Murod o'lg'usi intihosi aning.

* * *

Olamda hargiz do'stluq kishi dushmanisz
bo'lmaydur va ahbobliq odami a'dosiz topil-
maydur. Va tavfiq nishoni uldururkim, andoq

maosh qilg‘aykim, do‘sstar tili dushmanlar qoshida qisqa bo‘lmaq‘ay va ahbob boshi a’do ilayida quyi tushmagay.

* * *

Hech nahyдин ijtinob chog‘ir tarkicha bo‘lmас.

* * *

Chog‘irni «umm ul-xabois»¹ debdurlar. Jam’i yomonlig‘ andin mutavallid² bo‘lur.

* * *

Birovki yordin ayru erur: asiri firoq,
Aroda xoh yaqin tut yo‘lini, xoh yiroq.

* * *

Ishingiz ehtiyotin yaxshiroq qilingizkim, noxush ish voqe’ bo‘lsa, pushaymonlig‘din sud yo‘qtur.

* * *

Bog‘ni netsun kishi sarvi xiromon bo‘lmasa,
Ko‘k ravoqi tiyradur, xurshidi raxshon bo‘lmasa.

* * *

Ko‘p band borki, mujibi kushoyish bo‘lur va base ranjki, boisi osoyish.

¹ *Umm ul-xabois* – barcha yomonliklarning onasi.

² *Mutavallid* – tug‘ilish.

* * *

Hamisha to anosir¹ to‘rt ziddayn,
Qilur tarkibi insonni muvofiq,

Qila ko‘r mahzi insoniyatingdin,
Nekim azdod² erur oni muvofiq.

* * *

Tiriklik g‘animatdur.

* * *

Bashar har ne orzu qilsa, o‘z behbudin bilmas,
beixtiyorlig‘din xalq ishi zorlig‘ va ixtiyor da’vosin
qilmoq mahzi beixtiyorlig‘.

* * *

Pand-u nasihat va tashne³ va malomat va ont va
aymon bila birovkim, mutanabbih⁴ bo‘lmamish bo‘l-
sa, bir necha izo va azob bila ham bo‘limg‘usidur.

* * *

Inson joyiz ul-xatodur va lekin nadomat ashkikim,
iborat tavba suvidin bo‘lg‘ay, gunoh chirkin oritur.

* * *

Kim, har kishiga ne’mate berdi Xudo
Shukrini aning vojib erur qilmoq ado.

¹ Anosir – to‘rt unsur: o‘t, havo, suv, tuproq.

² Azdod – ziddiyatlar.

³ Tashne – dashnom, malomat.

⁴ Mutanabbih – ogoh, hushyor.

* * *

To dahr uza gunbazi davvor o'lg'ay,
Ul gunbaz uza sobit-u sayyor o'lg'ay,

To sobit-u sayyordin osor o'lg'ay,
Tengri bori holingda nigahdor o'lg'ay.

* * *

Zamonai dunning bedod-u jafosi va sipehri buqalamunning zulm-u izosi shohdin gadog'acha va fosiqdin porsog'acha yetmagan kishi mavjud emas va zamon ahlidin muruvvat va vafo ma'hud emas.

* * *

Jon asosig'a baqo yo'qtur va umr binosig'a vafo yo'qtur. Zamona gulshanida qaysi g'uncha nishot bila kuldikim, hodisa tundbodidin to'kulmadi va dahr gulistonida qaysi gul inbisot bila ochildikim, voqeа sarsaridin sochilmadi. Umr chamanining guli xorsiz ochilmaydur va hayot anjumanining muli xumorsiz topilmaydur.

* * *

Har sham'i Tirozki, bir shabistonni munavvar qildi, bir ofat yeli ani mukaddar qildi va har sarvinozkim sarafrozlig' havosi tutti, bir halokat samumi oni tubidin qurutti.

* * *

Odamizod o'z ahvolig'a mulohaza qilsa andinkim, adam dor ul-amoni xilvatxonasidin vujud shahristoni mehnatxonasing'a kelibtur va bu

shahristonning maqom-u manzillaridin nechani tay qilib, holo ne yerga yetibdur, borcha holda o‘z qu-suri a’molin va futuri ahvolin va ubudiyat adosida g‘aflat va beboklig‘in va nafs-u havo mutobaatida jur’at va cholokligin topar va Haq subhonahudin tili qosir va bayoni otil erkanin bilur.

* * *

Falak bila siteza qilg‘onni falak yengar ermish.

* * *

El tilidin qutulg‘on kishi yo‘qtur.

* * *

So‘zni uzotmoq hojat emas va kalom tatvilin¹ ma’ni ahli mustahsan demas.

* * *

...Alfoz va iboratdin murod ma’nidur...

* * *

So‘z durrining... sharifidin o‘lgan badang‘a ruhi pok yetar, kasifidin² hayotliq tang‘a zahri halok xosiyati zuhur etar.

* * *

...insonning martaba va kattalikni sevishi tabiiyidir. Bu ishda nafs ixtiyororsiz...

¹ *Tatvil* – cho‘zish, uzaytirish.

² *Kasif* – kasofat; nopok.

* * *

(Mansabdar) goho aql madadi bilan o‘zini tuta olsa-da, biroq mansab mastligi uni o‘z holiga qo‘ymaydi.

* * *

Imkon borida foyda nimadaligini bilmadim, foyda nimadaligini bilganimda esa qo‘limda imkon qolmagan edi.

* * *

... shubhalik luqma... tiyralik kelturur...

* * *

O‘rinsiz kulgidan o‘rinli yig‘i afzal.

* * *

Dehqoni azalki, tuzdi bu turfa chaman,
Qilmadi aning barcha nabolini¹ hasan².
Bir sori agar ekti gul-u sarv-u suman,
O‘zga sori tiki xas-u xoshok-u tikan.

* * *

Uzun so‘zni qo‘y, harf boshig‘a kel.

* * *

Yana ul erdikim, mamolik chun hargiz zulm yeli mazlum charog‘ig‘a mushavvash bo‘lmoqdin va taaddi o‘ti osoyish xirmanig‘a zarar yetkurmak-din xoli bo‘lmaydur.

¹ Nabot – ekin.

² Hasan – yaxshi.

* * *

Har nechaki Tengridin yetar sham'g'a nur,
Parvona erur joni kuyardin ma'zur.

* * *

Tiriklik bo'stonidinkim, adno nilufarin sipehri
axzar¹ bila teng tutsa bo'lmas va hayot gulistonidin-
kim juzviy sarig' gulin xurshidi xovarg'a² o'xshatsa
bo'lmas, g'araz yigitlik chamanining gulbuni xujastasi
va maqsud shabob gulbunining toza guldastasidur.

* * *

Chun tab'i muloyim bo'lur o'rgangali moyil,
Oz vaqtda ko'p nav' qilur kasbi fazoyil.

* * *

Har nechaki puxta bo'lsa tadbir,
Berur anga go'shmul³ taqdir.

* * *

Mol istasang, et shukr-u sano izhori –
Kim, shukr demak qilur g'ino izhori.

* * *

Dahr eliki, keldi ahli nomus bori,
Qardoshlar erur makr ila malbus bori,
Ollingda necha qilsa zaminbo's bori,
Lekin bordur aybinga josus bori.

¹ *Sipehri axzar* – moviy osmon.

² *Xurshidi xovar* – Sharq quyoshi.

³ *Go'shmul* – jazo, tanbeh.

* * *

Rohat yeturur nafsqa navmid o'lmoq.

* * *

Hirs o'lsa, qanoat o'tig'a yoq ani,
Ya'niki adam rishtasig'a toq ani,
Ne raxnaki hirs aylagay, boq ani,
Mahkam qilg'ay magarki tufroq ani.

* * *

Dunyoki o'tar yurt misoli bo'lg'ay,
Anda ne iqomat ehtimoli bo'lg'ay?

* * *

Har kimdaki, dahr ichinda donoliq erur,
Hilm ila ish anga majlisoroliq erur.

* * *

Yaxshi ul erurki, aylabon bovarliq,
Qilg'ay sanga yaxshilik sarvi yovarliq.

* * *

Odamki, demak bila kiromidur-u bas,
So'z durri ishining intizomidur-u bas,
Sihat onchaki, ahli aql komidur-u bas,
Aqlig'a dalil aning kalomidur-u bas.

* * *

Kim, tug'moq erur o'lumga payg'omrason¹.

* * *

Qo'yg'uvchi bog'irg'a huzn dog'i qariliq,
Solg'uvchi g'am-u balo so'rog'i qariliq.

¹ Payg'omrason – xabar yetkazuvchi.

* * *

O'rmoqta amal zar'i fano dosini¹ tut,
 Iblis bu yo'lida, aql vasvosini tut,
 Haq yo'lida nafsingg'a o'lum kosini² tut,
 Nafsing g'alaboti vaqtি Haq posini³ tut.

* * *

Ganj uzra ayog'ingg'a murur o'ldi g'urur,
 Gulgasht eta gulshanda huzur o'ldi g'urur,
 Dunyo soridin sanga surur o'ldi g'urur,
 Bu borchha g'urur o'ldi, g'urur o'ldi g'urur.

* * *

Nutqungni ulusqa o'ylakim shahd ayla.

* * *

Yaxshi kishilar birla tutar bo'l suhbat,
 To bergay amon sharirdin⁴ ul suhbat.

* * *

Mayl ayla hamisha mehribonlar sori,
 Yaxshilar-u turfa kordonlar sori,
 Dol o'ldi yamon kishiga qonlar sori,
 Ozdi kishikim, bordi yamonlar sori.

* * *

Qisqordi hayoti g'am ichin yorg'onning,
 Umri uzun o'ldi ranji qisqorg'onning.

¹ *Dos – o'roq.*

² *Kos – kosa, qadah.*

³ *Pos – bu yerda: rioya, e'tibor.*

⁴ *Sharir – yomonlik qiluvchi.*

* * *

Bir do'stdin ortuqdur agar johil esa,
Andoq dushmanki, ziyrak-u oqil esa.

* * *

Mushkillik ilaki ish adosi keldi,
So'ngra anga «al-aysh» nidosi keldi,
Ish sa'biki, odami balosi keldi,
Osonlig'-u ayshi ibtidosi keldi.

* * *

Yolg'ong'a kishi qilsa g'azab noxushtur,
Chindin g'azab etmaging ajab noxushtur.

* * *

Har kimsaki, hirs ranji doxildur anga,
Ul dag'dag'a ichra umr mushkildur anga,
O'z fe'lidin-o'q hayoti zoyildur anga –
Kim, bo'lsa haris hirsi qotildur anga.

* * *

Bordur yamon elga hamnishinlig'da zarar,
Xurramliq aro ranj-u hazinlig'da zarar,
Kasb etma sharr ahlidin qarinlig'da zarar –
Kim, keldi yamonlarg'a yaqinlig'da zarar.

* * *

O'z xaylig'a kimki yaxshiliq mayli qilur,
Ehson ani bilki, qavm sarxayli qilur.

* * *

Yosh ulg‘aysa, toqi muqarnasdur¹ dard,
Balkim mamlu sipehri atlasdur dard,
Qari kishiga bilki kam emasdur dard,
Yuz sihhati bo‘lsa, qariliq basdur dard.

* * *

Har kimki, aning himmati dunroq bo‘ldi,
Bilki, g‘amining naxli nighunroq bo‘ldi,
Kim himmati rif’ati fuzunroq bo‘ldi,
Qayg‘ularining tori uzunroq bo‘ldi.

* * *

Olam elida birov saodatsiz o‘lur,
Kim faqr yo‘lida istitoatsiz² o‘lur,
Izzat topmas kim qanoatsiz o‘lur,
Har kimsa hasud bo‘lsa, rohatsiz o‘lur.

* * *

Har kim so‘zi fahsh – aql anga rom o‘lmas.

* * *

Har kimki nasib anga fazoyil ermas,
Ko‘ngliga g‘ino maxzani hosil ermas,
Kim ganji fazoyil bila komil ermas,
Bo‘lsun Qorunkim, mutamavvil³ ermas.

* * *

Rizq istayu bo‘lma xalqning dushmani sen,
Istar seni chun rizq nechukkim ani sen.

¹ *Muqarnas* – naqshli.

² *Istitoat* – kuch-qudrat.

³ *Mutamavvil* – boy-badavlat.

Qaro tufroq'a singmagan qatra,
Andin imkoni yo'q ochilmoq gul.

* * *

Laimg'a¹ ta'zim o'z-o'ziga ranji azimdur, balki azobi alim².

* * *

Oliy sha'n el kichik yoshlig' ekanda ham olamoroydur-u oy bir kechalikda angushtnamoy³.

* * *

Shahning af'oli etar xayr-u sipohig'a asar,
Chu nabi dediki, «annos-u alo dini muluk»⁴.

* * *

Takallufluq to'n mujibi kulfatdur-u betakallufluq adami ulfat.

* * *

Kuch bila kulgudin yiroq sovuqluqqa yovug‘roq,
vale kuch bila yig‘lamoq erur andin sovug‘roq.

¹ *Laim – xasis, past.*

² *Alim – alamlı, og‘ir.*

³ *Angushtnamoy* – mashhur, taniqli.

⁴ Annos-u alo dini muluk – odamlar shohlarining maslagida bo‘ladilar.

* * *

Uylansa birav tori o‘lub nakbat¹ anga,
Makkoraki, qaltabon² surar shahvat anga,
Zisht ersa gar eldin yoshurur, rahmat anga,
Xub ersa gar elga ko‘rguzur, la’nat anga.

* * *

Ne dashti maxuf³ emish fano sahrosi –
Kim, anda kirarga yo‘q balo yorosi,
Hargiz chu yonib kelmadi nopaydosi,
Kimdin kishi aylagay nishon ilqosi⁴.

* * *

Shohni ajdahog‘a nisbat qilibtururkim ganj umidi
ham andin bor-u ranj biymi ham.

* * *

Falong‘a ajab hol erurkim, xaloyiq
Ne qilsa alar birladur mojarosi.

Sola olmas el oshig‘a bir nuxud, gar
Tuzulmas aning birla ul el arosi.

Qazon yo‘qli, ul anda kafliz emastur –
Ki, bo‘lsun yuziga qazonlar qarosi.

* * *

Safih⁵ zolim mahramliqqa va ablahi nodon
hamdamliqqa yaramas.

¹ *Nakbat* – falokat, baxtsizlik.

² *Qaltabon* – razil, benomus.

³ *Maxuf* – qo‘rinchli, dahshatli.

⁴ *Ilqo* – tashlash, tark etish.

⁵ *Safih* – past, nodon.

* * *

Jahon ahli bevafodur va alardin vafo ko‘z tutmoq xatodur.

* * *

Jannat guli-yu nasrinig‘a bo‘lsang mushtoq,
Gah yor yuziga, gah kafi poyig‘a boq.

* * *

To shammaye husndin boqiydur, ishq ahlig‘a ajz
va zabunliq muloqiydur.

* * *

Durg‘a daryo tarbiyati bulutdin ortug‘roqdur.

* * *

Yaxshi xotunlar safoi ro‘zgori quyosh nurig‘a misoldur va shamsning muannas ekani munga dol.

* * *

Biyik himmatlik elga arzi hol et,
Zamiri nurposh eldin savol et –

Ki, bor abri bahori gavharafshon,
Choqin ham olam ahlig‘a zarafshon.

* * *

Maxfiy rozni huqqa ichindagi mushk isi debturkim, huqqa ochilsa, ul isini ne yig‘ishtursa bo‘lur, ne yoshursa.

* * *

Mazlum ohi barqi yashm¹ bila daf' bo'lmas, balki
lutf suyi bila o'churmaguncha raf' bo'lmas.

* * *

Eyki, istarsen choqin daf'ig'a yashm,
O'zga tekmakka berib imkong'a yo'l.

Bexabar mazlum ohi barqidin –
Kim, choqindin dog'i so'zonroqdur ul.

Turfaroq bukim, sanga maxsus erur,
Gar sanga joning kerak, ogoh bo'l.

* * *

Dono nuktasini nodon eshitmasa, qoyilg'a ne
ziyon, gavhareki bu sochar, ul termasa, munga ne
nuqson.

* * *

Pokdomon zuafokim² etaklaridin yurunni eranlar
sajjodasi³ mehrobig'a tiroz⁴ qilsa sazodur va ul
mehrobda namoz qilsa ravodur.

* * *

Erni xurus debtur va kulah go'shasin aning toji,
nomardni mokiyon debtur yemakta najosat muhtoji.

¹ *Yashm* – yashil tusli qimmatbaho tosh.

² *Zuaf* – ayollar.

³ *Sajjoda* – joynamoz.

⁴ *Tiroz* – bezatuvchi, zeb beruvchi.

* * *

Do'stdinki dushman xo'yi bo'lg'ay, dushman
yaxshiroqdurki, do'st ro'yi bo'lg'ay.

* * *

Yomon yomonlig'ini qilmasa, yaxshilig'cha bor
va bir yaxshilig' qilsa, o'n yaxshilig' qilg'oncha bor.

* * *

Bo'limg'andur husn-u ishq oyinida, ey sarvinoz,
To abad bir yondin istig'no-vu bir yondin niyoz.



MUNDARIJA

Ergash OCHILOV. Hayot qomusi.....	3
Hikmatlar	13

Adabiy-badiiy nashr

Tafakkur tuhfalari

ALISHER NAVOIY

HIKMATLAR

Muharrir *B. Xudoyorova*

Badiiy muharrir *J. Adilov*

Texnik muharrirlar: *L. Xijova, T. Xaritonova*

Kichik muharrir *D. Xolmatova, G. Yeraliyeva*

Musahhih *M. Ishonxonova*

Kompyuterda tayyorlovchi *N. Ahmedova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.09.

Bosishga 2015-yil 7-oktabrda ruxsat etildi.

Ofset qog‘ozi. Bichimi 70x90^{1/32}. «Times New Roman» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog‘i 9,36. Nashr tabog‘i 8,92. Adadi 3000 nusxa.

Buyurtma №15-609.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining

«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

100129, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz

www.iptd-uzbekistan.uz

Navoiy, Alisher

Hikmatlar / A. Navoiy. E. Ochilov / – Toshkent:
«O‘zbekiston», 2015. – 256 b. – (Tafakkur tuhfalari).

ISBN 978-9943-01-939-3

Alisher Navoiy ijodi o‘ziga xos hikmat bo‘stonidir. O‘zingizda tug‘ilgan har qanday savolga javob izlab, unga murojaat qilsangiz, ahvoli ruhiyangizga mos bir hikmat topib, maqsadingiz hosil bo‘lishi shubhasiz. O‘ylaymizki, barcha yoshdagi va turli toifadagi keng kitobxonlar ommasini mutafakkir shoirning hassos misralari qatida yashirin ma’no durlari bilan oshno etishni ko‘zda tutgan ushbu nashr o‘quvchilarga badiiy-estetik zavq bag‘ishlab, ularning ma’naviy-axloqiy kamolotiga xizmat qiladi.

**UO‘K: 821.512.133-1
KBK 84(50‘)6**

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-01-939-3



9 789943 019393